



# YILLIK HISOBOT 2025



**O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MARKAZIY  
BANKI**

# **YILLIK HISOBOT 2025**

**Toshkent 2026**

## MUNDARIJA

<b>MARKAZIY BANK RAISING MUROJAATI .....</b>	<b>4</b>
<b>2025-YILNING ASOSIY KO'RSATKICHLARI .....</b>	<b>5</b>
<b>2025-YIL RAQAMLARDA .....</b>	<b>6</b>
<b>Rezyume .....</b>	<b>7</b>
<b>I. MAKROIQTISODIY SHAROITLAR.....</b>	<b>9</b>
<b>II. NARXLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH VA PUL-KREDIT SIYOSATI .....</b>	<b>12</b>
Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi va tamoyillari .....	12
Narxlar barqarorligi: inflyatsiya va kutilmalar .....	13
Pul-kredit sharoitlari, instrumentlari va operatsion mexanizmi .....	15
<b>III. VALYUTA BOZORI VA XALQARO ZAXIRALAR .....</b>	<b>19</b>
Valyuta bozori va valyuta operatsiyalari.....	19
To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe .....	22
Xalqaro zaxiralarni boshqarish.....	26
<b>IV. MOLIYAVIY BARQARORLIK, TARTIBGA SOLISH VA NAZORAT .....</b>	<b>30</b>
Banklar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari.....	30
Nobank kredit tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari.....	34
Prudensial chora-tadbirlar .....	36
Makroprudensial chora-tadbirlar .....	37
Tartibga solish va nazorat .....	39
<b>V. TO'LOV TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR .....</b>	<b>46</b>
Markaziy bankning to'lov tizimlari.....	46
Moliyaviy texnologiyalar va to'lov tashkilotlari faoliyati .....	48
<b>VI. TADQIQOTLAR, TAHLIL VA MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH .....</b>	<b>51</b>
Markaziy bankda tahlil va tadqiqotlar .....	51
Ma'lumotlarni boshqarish va ular bilan ishlash.....	53
<b>VII. KOMMUNIKATSION SIYOSAT VA XALQARO HAMKORLIK .....</b>	<b>58</b>
Markaziy bankning kommunikatsion siyosati.....	58
Xalqaro hamkorlik .....	60
<b>VIII. MOLIYAVIY INKLYUZIYA VA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH .....</b>	<b>63</b>
Moliyaviy xizmatlar ommabopligi va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish .....	63
Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish .....	68
Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash .....	70
Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash .....	71
<b>IX. PUL MUOMALASI .....</b>	<b>74</b>
Naqd pul aylanmasi va muomaladagi pullar.....	74

<b>X. INSON RESURSLARI SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH .....</b>	<b>78</b>
<b>XI. MOLİYAVIY XAVFSIZLIK, XATARLARNI BOSHQARISH VA ICHKI NAZORAT .....</b>	<b>81</b>
Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash .....	81
Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasini tartibga solish va nazorat qilish .....	83
Komplayens-nazorat .....	85
Ichki audit.....	86

## MARKAZIY BANK RAISING MUHOJAATI

Hurmatli o'quvchi!

2025-yil O'zbekiston iqtisodiyotida nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish, balki tarkibiy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish yili bo'ldi.

Global iqtisodiy noaniqliklarga qaramay, pul-kredit siyosati va moliyaviy tizimning chidamliligi iqtisodiy o'sishning mustahkam poydevorini ta'minlashga qaratildi.

Markaziy bankning asosiy maqsadi — narxlar barqarorligini ta'minlash borasida 2025-yil davomida inflyatsiyaning prognoz ko'rsatkichlari doirasida shakllanishi ta'minlandi. Pul-kredit sharoitlarining qat'iyligi hamda instrumentlardan foydalanish hisobiga inflyatsiyaning monetar omillarini va inflyatsion kutilmalarni jilovlash bo'yicha ijobiy natijalar qayd etildi.

Xalqaro zaxiralar hajmi va tarkibi mamlakatimizning tashqi majburiyatlarini to'liq bajarish hamda valyuta bozorida xatarlarni yumshatish maqsadida xalqaro belgilangan me'yorlardan yuqori darajada shakllantirib kelinmoqda. To'lov balansi va xalqaro investisiyaviy mavqedagi ijobiy dinamika mamlakatimiz suveren kredit reytingining yaxshilanishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Valyuta bozorida erkin suzuvchi almashuv kursi tamoyiliga amal qilinishi va bozor mexanizmlarining ustuvorligi ta'minlanmoqda.

Moliyaviy sektorni isloh qilish va uning barqarorligini ta'minlashda asosiy e'tibor quyidagi ikki ustuvor yo'nalishga, birinchidan, bank tizimi barqarorlik ko'rsatkichlarini xalqaro andozalarga, jumladan Bazel III talablariga muvofiqlashtirishga, ikkinchidan, zamonaviy va innovatsion yechimlarni joriy etish orqali sohada samaradorlikni oshirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga qaratildi.

To'lov tizimining barqarorligi va uzluksiz faoliyat yuritishini qo'llab-quvvatlash uchun to'lov infratuzilmasini rivojlantirish, yangi raqamli yechimlarni joriy etish va kiberxavfsizlik darajasini oshirishga qaratilgan choralar ko'rildi.

Umuman olganda, kelgusi yillarda ham Markaziy bank faoliyatining strategik ustuvor yo'nalishlari inflyatsiya bo'yicha o'rta muddatda 5 foizlik maqsadli ko'rsatkichga erishish, moliyaviy barqarorlikni hamda to'lov tizimlari uzluksiz ishlashini ta'minlash, shuningdek moliya sektori, pul va valyuta bozorlarini rivojlantirishni va moliyaviy inklyuziyani oshirishni qamrab oladi. Markaziy bank faoliyatida ochiqlik tamoyili hamisha ustuvor ahamiyat kasb etadi.



Timur Ishmetov  
Markaziy bank raisi

## 2025-YILNING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

<p><b>Yillik inflyatsiya</b></p> <p><b>7,3%</b></p> <p>-2,5 foiz band</p>	<p><b>Bazaviy inflyatsiya</b></p> <p><b>5,7%</b></p> <p>-1,6 foiz band</p>	<p>Aholining inflyatsion kutilmalari</p> <p><b>11,5%</b></p> <p>-2,9 foiz band</p>	<p>Tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari</p> <p><b>11,1%</b></p> <p>-1,8 foiz band</p>	<p>Inflyatsiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkich (target)</p> <p><b>5%</b></p>
		<p><b>UZONIA</b> (o'rtacha yillik)</p> <p><b>13,1%</b></p>	<p>Milliy valyutadagi depozit foiz stavkasi (o'rtacha yillik)</p> <p><b>19,3%</b></p> <p>-0,2 foiz band</p>	
<p><b>Asosiy stavka</b></p> <p><b>14%</b></p>	<p>Pul bozorida operatsiyalar</p> <p><b>783</b> trln so'm</p> <p>+1,5 barobar</p>		<p>Milliy valyutadagi depozit foiz stavkasi (o'rtacha yillik)</p> <p><b>23,0%</b></p> <p>-0,2 foiz band</p>	
<p>Banklarning aktivlari</p> <p><b>925</b> trln so'm</p> <p>+20 foiz</p>	<p>Ajratilgan kreditlar</p> <p><b>390</b> trln so'm</p> <p>+36 foiz</p>	<p>Mikro, kichik va o'rta biznes uchun kreditlar</p> <p><b>131</b> trln so'm</p> <p>+42 foiz</p>		
<p>Iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari qoldig'i</p> <p><b>653</b> trln so'm</p> <p>+15 foiz</p>		<p>Milliy valyutadagi depozitlar qoldig'i</p> <p><b>330</b> trln so'm</p> <p>+43 foiz</p>		
<p>Kapital monandligi</p> <p><b>18,3%</b></p> <p>Minimal talab 13 foiz</p>	<p>Muammoli kreditlar</p> <p><b>3%</b></p> <p>2024-yilda 4 foiz</p>	<p>Depozitlar dollarizatsiyasi</p> <p><b>21%</b></p> <p>-4 foiz band</p>	<p>Kreditlar dollarizatsiyasi</p> <p><b>38%</b></p> <p>-3,5 foiz band</p>	
<p>Xalqaro zaxiralar</p> <p><b>66,3</b> mlrd dollar</p> <p>+61 foiz</p>	<p>O'zbekistonning sof xalqaro investitsiyaviy mavqei</p> <p><b>19,1</b> mlrd dollar</p> <p>2 barobarga yoki 9,6 mlrd dollarga mustahkamlandi</p>		<p>So'm AQSh dollariga nisbatan</p> <p><b>6,9</b> foizga</p> <p>mustahkamlandi</p>	
<p>Joriy operatsiyalar hisobi YalMga nisbatan</p> <p><b>-3,9%</b></p> <p>2024-yilda -4,7 foiz</p>	<p>Valyuta bozorida chet el valyutasi taklifi</p> <p><b>53</b> mlrd dollar</p> <p>+36 foiz</p>			

## 2025-YIL RAQAMLARDA

<p>Banklar</p> <p><b>36</b> ta</p>	<p>Nobank kredit tashkilotlari</p> <p><b>233</b> ta</p> <p>+40 ta</p>	<p>To'lov tashkilotlari</p> <p><b>47</b> ta</p> <p>+3 ta</p>	
<p>Bank xizmatlari ko'rsatish ofislari (mini-banklar)</p> <p><b>1 729</b> ta</p> <p>+9 ta</p>	<p>Valyuta ayirboshlash shoxobchalari</p> <p><b>7 047</b> ta</p> <p>+835 ta</p>	<p>Bankomat va infokiosklar</p> <p><b>40 090</b> ta</p> <p>+10 181 ta</p>	<p>Kredit byurolari</p> <p><b>3</b> ta</p>
<p>Bank kartalari</p> <p><b>68</b> mln ta</p> <p>+6,3 mln ta</p>	<p>QR-kodlar</p> <p><b>139</b> ming dona</p> <p>+1,3 barobar</p>	<p>Elektron hamyonlar</p> <p><b>25</b> mln ta</p> <p>+20 foiz</p>	<p>Mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar</p> <p><b>646</b> trln so'm</p> <p>+1,6 barobar</p>
<p>Markaziy bank axborot kanallari doimiy foydalanuvchilari soni</p> <p><b>2</b> mln nafar</p> <p>+15 foiz</p>	<p>Jalb qilingan xalqaro texnik ko'mak</p> <p><b>18</b> ta</p>	<p>2019–2025-yillarda jami</p> <p><b>144</b> nafar talaba</p> <p>Markaziy bank stipendiyasi sohibi bo'ldi</p> <p><b>56</b> nafari</p> <p>ishga qabul qilindi</p>	
<p>Amalga oshirilgan tadqiqotlar</p> <p><b>20</b> ta</p>	<p>Xodimlarning umumiy o'quv soatlari</p> <p><b>11 556</b></p>	<p>Muomaladagi naqd pullar</p> <p><b>68,5</b> trln so'm</p>	<p>Bank kartalariga tushgan mablag'larni naqdlashtirish darajasi</p> <p><b>18,7%</b></p> <p>2024 yilda 21,8 foiz</p>
<p>"24/7" rejimida ishlaydigan bank shoxobchalari</p> <p><b>5 615</b> ta</p> <p>+1 168 ta</p>	<p>To'lov terminallari</p> <p><b>431</b> ming ta</p> <p>+4 537 ta</p>		

## Rezyume

*Markaziy bankning 2025-yildagi faoliyati to'g'risida yillik hisoboti O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi O'RQ-582-sonli Qonunining 8 va 15-moddalariga muvofiq tayyorlandi. Yillik hisobotda makroiqtisodiy shart-sharoitlar hamda Markaziy bank faoliyatining asosiy yo'nalishlariga oid tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.*

Hisobot yilida jahon iqtisodiyotida noaniqliklar saqlanib qolayotgan sharoitda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, qulay tashqi iqtisodiy konyunktura hamda investitsion faollikning oshishi hisobiga 2025-yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi real hisobda 7,7 foizga o'sdi.

### Narxlar barqarorligi va pul-kredit siyosati

Pul-kredit siyosati inflyatsion targetlash rejimi doirasida amalga oshirilib, asosiy e'tibor inflyatsiyaning o'rta muddatli 5 foizlik maqsadli ko'rsatkichiga erishishga qaratildi.

2025-yil davomida inflyatsion jarayonlarda sekinlashish tendensiyasi davom etib, iqtisodiyotda narxlar dinamikasining bosqichma-bosqich barqarorlasha boshladi. Yil yakuniga ko'ra inflyatsiya 7,3 foizni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 2,5 foiz bandga pasaydi. Bazaviy inflyatsiya esa 5,7 foizgacha sekinlashdi.

Mavjud inflyatsion xatarlarning oldini olish maqsadida 2025-yil mart oyida Markaziy bankning asosiy stavkasi 14 foizgacha oshirilib, yil davomida ushbu darajada saqlab qolindi.

Shuningdek, pul-kredit siyosati transmission mexanizmini takomillashtirish maqsadida ochiq bozor operatsiyalari kengaytirilib, Markaziy bankning 7 kunlik obligatsiyalari joriy etildi hamda REPO operatsiyalari faollashtirildi.

### Valyuta bozori va xalqaro zaxiralar

Valyuta bozorida chet el valyutasi taklifining oshishi fonida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi 6,9 foizga mustahkamlandi.

Valyuta kursi shakllanishida bozor mexanizmlarining roli va o'rni yanada kuchaytirilib, valyuta bozorining tashqi va ichki shoklarga moslashuvchanligi ortib bormoqda.

Xususan, market-meykerlar sonining ko'payishi va valyuta bozoridagi operatsiyalar hajmining o'sishi natijasida kursning ikki tomonlama tebranuvchanligi ortdi.

Shuningdek, joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi YaIMga nisbatan 3,9 foizgacha qisqardi (2024-yilda — 4,7%).

Oltin aktivlari qiymatining o'sishi fonida xalqaro zaxiralar hajmi 66,3 mlrd dollarga yetdi (+61%).

## **Moliyaviy barqarorlik**

Iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari 653 trln so'mga yetdi (+15%), kapital monandligi 18,3 foizni tashkil etib, belgilangan minimal me'yorlar talablaridan yuqori darajada saqlandi. Muammoli kreditlar ulushi 3 foizgacha pasaydi, depozitlar dollarlashuvi darajasi esa 21 foizgacha kamaydi.

Nobank moliya tashkilotlari sektorida ham faol o'sish kuzatildi — ajratilgan kreditlar hajmi 31,8 trln so'mga yetdi (*o'sish — 2 barobar*).

Hisobot yilida Markaziy bank tomonidan prudensial va makroprudensial tartibga solish mexanizmlari yanada takomillashtirildi. Bazel III standartlarini joriy etish, aholining qarz yukini cheklashga qaratilgan me'yorlarni belgilash, tavakkalchilikka asoslangan bank nazoratini rivojlantirish davom ettirildi.

Shuningdek, islom moliyasi qonunchilik bazasini rivojlantirish va nasiya xizmatlarini tartibga solish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

## **To'lov tizimlari va moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish**

Hisobot yilida, banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 1,6 barobarga oshib, 11 375 trln so'mni tashkil etdi. Mobil bank ilovalari orqali operatsiyalar hajmi esa 646 trln so'mga yetdi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar infratuzilmasini kengaytirish doirasida QR-to'lovlar, elektron hamyonlar va masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish ishlari davom ettirildi.

Shuningdek, hisobot yilida kiberxavfsizlikni ta'minlash va moliyaviy firibgarliklarning oldini olish bo'yicha choralar kuchaytirildi.

## **Moliyaviy inklyuziya va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash**

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida 131,2 trln so'm kredit ajratildi. Shuningdek, 3,46 mln nafar aholining bandligi ta'minlandi.

Markaziy bank moliyaviy xizmatlar iste'molchilari huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham amalga oshirdi. Jumladan, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish mexanizmlari takomillashtirildi, bank mahsulotlari shaffofligi oshirildi hamda moliya tashkilotlari tomonidan axborotni oshkor etish talablari kuchaytirildi.

## **Institutsional salohiyatni rivojlantirish**

Markaziy bankda Tadqiqot kengashi tashkil etilib, Tadqiqot maydoni konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy markaziy banklardan 18 ta texnik ko'mak jalb qilindi.

Yil davomida 20 ta tadqiqot amalga oshirildi.

Xodimlarning malakasini oshirish va professional ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida yil davomida xodimlar uchun jami 11,5 ming soatlik o'quv tadbirlari tashkil etildi.

## I. MAKROIQTISODIY SHAROITLAR

### Tashqi iqtisodiy sharoitlar

2025-yilda global iqtisodiy sharoitlar yuqori darajadagi noaniqliklar bilan tavsiflandi (1.1-rasm). Savdo bilan bog'liq jarayonlarning murakkablashuvi, import bojlarining oshirilishi hamda geosiyosiy ziddiyatlar jahon iqtisodiyoti va investitsiya faolligiga bosim ko'rsatdi.

Shu bilan birga, yilning ikkinchi yarmida vaziyat bosqichma-bosqich barqarorlashdi. Ayrim davlatlar o'rtasidagi keskinliklarning yumshashi, texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasiga investitsiyalarning ko'payishi, shuningdek, fiskal qo'llab-quvvatlash choralari global iqtisodiy o'sishni rag'batlantirdi.


2025-yil davomida jahonda moliyaviy sharoitlar bosqichma-bosqich yumshashda davom etdi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlar markaziy

banklari inflyatsiya darajasining pasayishi fonida foiz stavkalarini ehtiyotkorlik bilan pasaytirishni boshladi (1.2-rasm). Biroq inflyatsiya ko'plab mamlakatlarda hali ham maqsadli ko'rsatkichlardan yuqori darajada saqlanib qolmoqda.


Noaniqliklar investorlarning xavfsiz aktivlarga bo'lgan talabini kuchaytirdi. Natijada oltin, kumush va boshqa metallar narxlari sezilarli darajada oshdi (1.3-rasm).

Ushbu omillar O'zbekiston uchun nisbatan qulay tashqi iqtisodiy muhitni shakllantirdi. Jahon bozorida xomashyo narxlarining yuqoriligi va tashqi moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi eksport, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hamda kapital oqimining o'sishiga xizmat qildi.

1.1-rasm. Noaniqlik indeklari, band



1.2-rasm. Rivojlangan mamlakatlar asosiy stavkalari, foizda



Manba: worlduncertaintyindex.com

Manba: tegishli markaziy banklar

Asosiy savdo hamkor davlatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlari turlicha bo'ldi. Rossiya va Xitoyda o'sish biroz sekinlashgan bo'lsa, Qozog'iston va Turkiyada iqtisodiy faollik tezlashdi. Aksariyat hamkor davlatlarda inflyatsiya darajasining pasayish tendensiyasi kuzatildi.

Shuningdek, AQSh dollarining nisbatan qadrsizlanishi fonida qator mamlakatlar valyutalari mustahkamlandi (1.4-rasm). Bu esa pul o'tkazmalari hajmining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Ichki iqtisodiy sharoitlar

2025-yilda O'zbekiston iqtisodiyotida iqtisodiy faollik yuqori darajada saqlanib qoldi va yil yakuni bo'yicha yalpi ichki mahsulotning real o'sishi 7,7 foizni tashkil etdi (1.5-rasm).

Hisobot davrida iqtisodiy faollikning tezlashishi amalga oshirilayotgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholi daromadlarining o'sishi (*real hisobda 9,2%*), shuningdek, qulay tashqi iqtisodiy muhit ta'siri bilan izohlanadi.


Taklif tomonidan faollikning jadallashuvi asosan xizmatlar sohasi va qurilish tarmog'ining kengayishi hisobiga ta'minlandi.

2025-yilda xizmatlar sohasining o'sish sur'ati 14,7 foizni tashkil etdi. Eng yuqori o'sish ko'rsatkichlari moliyaviy xizmatlar (24,6%), axborot-kommunikatsiya xizmatlari (22,7%), shuningdek yashash va ovqatlanish (10,4%) sohalarida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar kengayishi moliyaviy texnologiyalar, onlayn-banking va raqamli to'lov vositalarining faol rivojlanishi, yangi moliyaviy mahsulotlarning joriy etilishi hamda aholi va biznes tomonidan ularga bo'lgan talabning oshishi bilan izohlanadi.


Axborot-kommunikatsiya xizmatlarining o'sishi esa AT sektorning kengayishi, shu bilan birga uning moliya, savdo va logistika kabi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari faoliyatiga chuqur integratsiyalashuvi bilan bog'liq.

1.3-rasm. Metallarning jahon bozorida narxlar dinamikasi, foizda, 2023-yil yanvar oyi = 100%



Manba: Jahon banki

1.4-rasm. Asosiy savdo hamkorlarning valyuta kurslari dinamikasi, foizda, yillik o'zgarishi



Manba: tegishli markaziy banklar

Umumiy ovqatlanish sohasidagi dinamika aholining real daromadlari oshishi va iste'molning xizmatlar tomon siljishi bilan bog'liq.

2025-yilda qurilish ishlari hajmi 14,2 foizga oshdi. O'sish davlat va xususiy sektor tomonidan infratuzilma loyihalarini amalga oshirilishi, xususiy investitsiyalarning kengayishi, uy-joy qurilishining faollashuvi, shuningdek, ishlab chiqarish, sanoat va logistika obyektlarining rivojlanishi hisobiga ta'minlandi. Bundan tashqari, ko'chmas mulk bozorida o'tgan yil davomida amalga oshirilgan bitimlar sonining sezilarli darajada ko'payishi (15,1%) qurilish sohasida iqtisodiy faollikning yuqori sur'atlarda saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda.


Talab tomonidan iqtisodiy faollik barqaror ichki iste'mol, investitsion faollik, shuningdek, eksport uchun qulay tashqi konyunktura hisobiga qo'llab-quvvatlandi.

Ma'lum sekinlashuvga qaramasdan, investitsiyalar o'sishi yuqori sur'atlarda saqlanib qoldi. Asosiy oqim to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, shuningdek, jahon moliya bozorlarida moliyaviy sharoitlarning bosqichma-bosqich yumshashi fonida jalb etilgan kreditlar va qarz mablag'lari hisobiga ta'minlandi.

Ichki investitsiyalar esa asosan davlat investitsiyalari hamda aholining uy-joy qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lari hisobidan shakllantirildi.


Iqtisodiy faollikning tezlashishi mehnat bozorida ham o'z aksini topdi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab va bo'sh ish o'rinlari soni oshdi. Nominal ish haqi yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qoldi, inflyatsiyaning sekinlashishi esa real ish haqining ko'payishiga xizmat qildi.

1.5-rasm. Ishlab chiqarish usuli bo'yicha YaIM o'sishi dekompozitsiyasi, foiz bandda



Manba: Milliy statistika qo'mitasi

1.6-rasm. Davlat byudjet xarajatlari dinamikasi, foizda



Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi

## II. NARXLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH VA PUL-KREDIT SIYOSATI

### Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi va tamoyillari

Markaziy bank pul-kredit siyosatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 151-moddasiga asosan ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Bunda, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratiladi.

*2020-yilda Markaziy bankning inflyatsiya bo'yicha doimiy maqsadi (targeti) 5 foiz etib belgilagan.*

Inflyatsion targetlash rejimida quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

#### **1. Inflyatsiya bo'yicha target belgilanadi va barcha pul-kredit siyosati choralari ushbu targetga erishishga qaratiladi.**

Inflyatsiyaning o'rta muddatli darajasi 5 foiz etib belgilandi va keng jamoatchilikka e'lon qilindi. Markaziy bank faoliyatida inflyatsiyaning target ko'rsatkichiga erishish vazifasi boshqa vazifalardan ustun hisoblanadi.

**2. Markaziy bankning asosiy stavkasi pul-kredit siyosatining asosiy instrumenti hisoblanadi.** Asosiy stavka iqtisodiyotdagi foiz stavkalari dinamikasiga va bu orqali ichki talabga ta'sir ko'rsatadi. Ichki talabni muvozanatlashtirish orqali inflyatsion targetga erishiladi.

#### **3. Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmi mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi.**

Markaziy bank tomonidan inflyatsiya targetiga erishishda pul-kredit siyosati instrumentlari va yondashuvlarini eng ilg'or xalqaro tajriba asosida ishlab chiqiladi. Bunda foiz stavkalarini boshqarish, ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish, majburiy zaxiralar me'yorlarini o'zgartirish va iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib boshqa choralar ko'rib boriladi. Pul-kredit siyosatiga oid qarorlar keng qamrovli makroiqtisodiy tahlil va prognozlarga asoslanadi.

#### **4. Markaziy bank valyuta siyosatini erkin suzuvchi valyuta kursi rejimida amalga oshiradi.**

So'm almashuv kursi ichki valyuta bozoridagi talab va taklif asosida shakllanadi. Markaziy bank neytrallik tamoyiliga amal qilib, valyuta intervensiyalari va monetar instrumentlarni qo'llagan holda sotib olingan oltin bo'yicha to'lovlarni sterilizatsiya qilib boradi. So'm almashuv kursi bo'yicha hech qanday maqsad belgilanmaydi.

#### **5. Pul-kredit siyosati ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.**

Qabul qilinayotgan qarorlarning keng jamoatchilikka o'z vaqtida va tushunarli tarzda yetkazilishi inflyatsion kutilmalar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi hamda Markaziy bank siyosatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

## Narxlar barqarorligi: inflyatsiya va kutilmalar

2025-yilda inflyatsiya darajasi 9,8 foizdan 7,3 foizgacha pasaydi.

2025-yilning may oyida 2024-yilgi energiya resurslari narxlari erkinlashtirilishining yuqori baza effekti tugashi natijasida umumiy inflyatsiya sezilarli darajada pasaydi. Biroq, navbatdagi narxlar oshirilishining ikkilamchi ta'sirlari umumiy inflyatsiyaning barqaror pasayishini cheklovchi omillardan bo'ldi. Hisobot yilida, energiya resurslari narxlari oshirilishining birlamchi ta'sirisiz inflyatsiya darajasi 6,1 foiz doirasida shakllandi.

Shuningdek, birinchi yarim yillikda energiya narxlari oshirilishi ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksining (*IChNI*) o'sishiga sabab bo'lganiga qaramasdan, ikkinchi yarim yillikda sezilarli pasayish kuzatilib, ko'rsatkich yil yakuni bo'yicha 10,0 foizni tashkil etdi.


YaIM deflyatori esa biroz sekinroq sur'atda pasayib, yil yakunida 11,9 foizga teng bo'ldi (2.1-rasm).

2025-yilda oziq-ovqat mahsulotlari guruhi umumiy inflyatsiyaga oshiruvchi ta'sirga ega bo'lib, ushbu guruh mahsulotlari narxlari oshishi yanvar oyidagi 2,6 foizdan dekabrda 5,5 foizga yetdi (2.2-rasm).


2025-yilda nooziq-ovqat mahsulotlari guruhi inflyatsiyasi barqaror darajada pasayib, dekabrda 5,1 foizni tashkil etdi. Bunga, ayniqsa, dori vositalari guruhi inflyatsiyasining sezilarli pasayishi ta'sir ko'rsatdi.

Milliy valyuta kursining yil davomida mustahkamlanishi import qilinadigan iste'mol tovarlari narxlarini nisbatan muvozanatlashtirildi. Bu, o'z navbatida, nooziq-ovqatlar inflyatsiyasiga pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatdi. Biroq, avtomobillar uchun yonilg'i narxlari yil davomida yuqori darajada saqlanib, dekabr oyida 18,2 foizlik yillik o'sishni qayd etdi.

2.1-rasm. Inflyatsiya ko'rsatkichlari dinamikasi, foizda, o'tgan yilning mos davriga nisbatan



2.2-rasm. INI asosiy tarkibiy qismlari inflyatsiyasi dinamikasi, foizda, o'tgan yilning mos davriga nisbatan



Xizmatlar inflyatsiyasi umumiy inflyatsiyaning pasayishida muhim ahamiyat kasb etib, yanvar oyidagi 27,0 foizdan dekabrda 13,9 foizgacha pasaydi. Bu asosan, 2024-yilgi energiya resurslari tariflari oshirilishining birlamchi ta'siri chiqib ketishi bilan bog'liqdir. Xususan, kommunal xizmatlar inflyatsiyasi yanvar oyidagi 66,6 foizdan dekabr oyida 26,0 foizgacha pasaydi. Shunga qaramay, xizmatlar inflyatsiyasi hali ham umumiy inflyatsiyadan yuqori darajada saqlanib qolganligi ushbu sohada talab tomondan bosimlar saqlanayotganini ko'rsatadi.


### Bazaviy inflyatsiya

*Bazaviy inflyatsiya 2025-yilda 7,3 foizdan 5,7 foizgacha pasayib, iqtisodiyotda narxlar shakllanishi barqarorlashayotganiga ishora berdi.*


Yilning birinchi yarmida bazaviy inflyatsiyaga uning tarkibiy guruhlarini, jumladan, oziq-ovqatlar va xizmatlar bazaviy inflyatsiyasining o'suvchi dinamikada shakllangani oshiruvchi ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi yarim yillikda barcha komponentlarning pasayish trayektoriyasiga o'tishi yil yakunida bazaviy inflyatsiyaning pasayishini ta'minladi.

Xizmatlar bazaviy inflyatsiyasining boshqa guruhlariga nisbatan sezilarli darajada sekin pasayishini, asosan, energiya resurslari ta'minotidagi o'zgarishlarning ishlab chiqarish va logistika xarajatlariga ikkilamchi ta'sirlari hamda umumiy ovqatlanish sohasida saqlanib qolayotgan yuqori inflyatsion muhit bilan izohlash mumkin (2.3-rasm).

2.3-rasm. Umumiy inflyatsiya va bazaviy inflyatsiya dinamikasi, foizda, o'tgan yilning mos davriga nisbatan



2.4-rasm. Aholi va tadbirkorlarning kelgusi 12 oy uchun inflyatsion kutilmalari, foizda



## Inflyatsion kutilmalar

2025-yil davomida aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari umumiy inflyatsiyaning pasayishiga mos ravishda pasayuvchi trendni namoyon etdi. Xususan, aholining kelgusi 12 oylik kutilmalari yil boshidagi 14,4 foizdan yil yakunida 11,5 foizgacha, tadbirkorlarning kutilmalari esa 12,9 foizdan 11,1 foizgacha pasaydi.

Inflyatsion kutilmalarni shakllantiruvchi omillar tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Xususan, birinchi yarim yillikda valyuta kursi bo'yicha yuqori kutilmalar shakllangan bo'lsa, ikkinchi yarim yillikda so'mning mustahkamlanishi natijasida ular yaxshilandi. Biroq energiya resurslari tariflari oshishi bo'yicha xavotirlar saqlanib, uning ikkilamchi ta'siri transport-logistika xarajatlari bo'yicha kutilmalarda ham namoyon bo'ldi (2.4-rasm).


## Pul-kredit sharoitlari, instrumentlari va operatsion mexanizmi

2025-yilda pul-kredit siyosati iqtisodiyotda inflyatsiyaga yalpi talab tomondan bo'lgan bosimlarni yumshatish va real foiz stavkalarini maqbul darajada saqlanishi orqali inflyatsiyaning o'rta muddatli target ko'rsatkichiga erishilishini ta'minlash maqsadlariga yo'naltirildi.


2025-yil mart oyida asosiy stavka 0,5 foiz bandga oshirilib 14 foiz etib belgilandi va yil davomida shu darajada saqlandi (2.5-rasm).

Markaziy bank asosiy stavkasi ushbu darajasini yil davomida o'zgarishsiz saqlanib qolinishi, shuningdek aprel oyidan inflyatsiyaning pasayib boruvchi tendensiyaga o'tishi pul bozorida real foiz stavkalarining 2,4–6,6 foiz oralig'ida shakllanishiga va iqtisodiyotda nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari ta'minlanishiga xizmat qildi (2.6-rasm).

2.5-rasm. Markaziy bank asosiy stavkasi dinamikasi, foizda



2.6-rasm. Banklararo pul bozori foiz stavkalari, foizda



Manba: Markaziy bank

2025-yilda pul bozorida o'rtacha tortilgan yillik foiz stavkasi 13,3 foizni tashkil etdi hamda davr mobaynida to'liq foiz koridorida shakllandi.

Aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha foiz stavkalari 2025-yil yanvar-iyun oylarida o'rtacha 21,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, dekabr oyiga kelib, 20,6 foizgacha pasaydi.

Iqtisodiyotda nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari ta'minlanishi va pul bozorida foiz stavkalarining ijobiy real darajada saqlanib qolishi natijasida, 2025-yilning dekabrda aholi depozitlarining foiz stavkasi ularning inflyatsion kutilmalariga nisbatan 9,1 foizlik real darajada shakllandi (2.7-rasm).


Ushbu ijobiy real foiz stavkalari milliy valyutadagi depozitlar hajmining sezilarli darajada o'sib borishiga xizmat qildi.

Xususan, 2025-yil davomida aholi hamda yuridik shaxslarning milliy valyutadagi muddatli va jamg'arma depozitlari mos ravishda 48 foiz hamda 70 foizga oshdi.


Jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yil yakunida 23,6 foiz doirasida shakllanib, 2024-yilga nisbatan 0,9 foiz bandga pasaydi. Korporativ kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi esa yil davomida nisbatan barqaror shakllanib, dekabr oyida o'rtacha 23 foizni tashkil etdi (2.8-rasm).

2025-yilda bank tizimida tizimli likvidlik profitsitining tobora ortib borishi fonida Markaziy bankning likvidlikni jalb etish operatsiyalariga bo'lgan talabi oshib bordi. Jumladan, 2025-yil yanvar oyida likvidlik jalb etish operatsiyalarining kunlik o'rtacha qoldig'i 16,2 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, dekabr oyiga kelib ushbu ko'rsatkich 39,3 trln so'mga yetdi.

2.7-rasm. Aholining milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha foiz stavkalari, foizda



2.8-rasm. Milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, foizda



2025-yilda Markaziy bankning likvidlikni taqdim etish operatsiyalariga (*REPO auksion, REPO overnayt, valyuta overnayt krediti*) tijorat banklari tomonidan bo'lgan talab nisbatan sust shakllanib, ushbu operatsiyalar kunlik o'rtacha 330 mlrd so'mni tashkil etdi.

Bank tizimi umumiy likvidligi holatidan kelib chiqib, pul bozorida ortiqcha likvidlik mavjudligi kuzatilgan hollarda Markaziy bank obligatsiyalarining qo'shimcha emissiyasi amalga oshirildi.

Bank tizimi likvidligi hajmining ortishi sharoitida ushbu likvidlikning pul bozoridagi foiz stavkalariga va inflyatsiya darajasiga bo'lgan ehtimoliy bosimini yumshatish maqsadida 2025-yil avgust oyidan boshlab Markaziy bankning 7 kunlik obligatsiyalari muomalaga chiqarilishi boshlandi hamda avgust-dekabr oylarida o'rtacha kunlik 21,7 trln so'mlik operatsiyalar o'tkazildi (2.9-rasm).


## Banklararo pul bozori faoliyati tahlili va foiz stavkalari

2025-yilda pul bozoridagi operatsiyalarning hajmi 2024-yilga nisbatan 54 foizga oshib, jami 783 trln so'mni (*YalMga nisbatan 42%*) tashkil etdi va bunda, depozit operatsiyalari hajmi deyarli o'zgarmagan bo'lsa, REPO operatsiyalari qariyb 2 barobarga oshdi hamda ushbu amaliyotlarning ulushi 68 foizni tashkil etdi. Ushbu tendensiya banklararo amaliyotlarda kredit xatarlarini boshqarishda garov mulkiga bo'lgan talabning o'sayotganligi hamda davlat qimmatli qog'ozlari bozorining kengayib borayotganligi bilan izohlanadi (2.10-rasm).


Davlat qimmatli qog'ozlari bozorining kengayishi REPO operatsiyalarining likvidlikni qayta taqsimlashdagi roli va ahamiyatini oshirmoqda.

O'z navbatida, yil davomida muomaladagi davlat qimmatli qog'ozlari hajmi sezilarli darajada oshib, yil yakunida 86 trln so'mga yetdi.

2.9-rasm. Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari, trln so'mda



2.10-rasm. Banklararo pul va REPO amaliyotlari, trln so'mda



2025-yilda pul bozorining o'rtacha tortilgan foiz stavkasi 13,3 foizni, xususan, depozit operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalar 13,4 foizni, REPO operatsiyalar stavkasi 13,3 foizni tashkil etdi (2.11-rasm).

UZONIA benchmark foiz stavkasi 2025-yilda foiz koridori doirasida shakllanib, o'rtacha 13,1 foiz darajada asosiy stavkaga yaqin shakllandi (2.12-rasm).

2025-yilda bir kundan yuqori muddatli operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalari turlicha dinamikaga ega bo'lib, yil yakunida Markaziy bank foiz koridori doirasida shakllandi. Xususan, 2–7 kunlik operatsiyalar bo'yicha o'rtacha foiz stavkalari 13,9 foizni (2024-yilda — 15,1%), 8-30 kunlik operatsiyalar bo'yicha esa 15,2 foizni (2024-yilda — 16,4%) tashkil etdi.

2025-yilda tijorat banklari tomonidan likvidlikni asosan overnight operatsiyalari orqali boshqarish afzal ko'rib, pul bozorida jami amaliyotlarning 86,8 foizi 1 kunlik depozit operatsiyalariga to'g'ri keldi.


### Kelgusi yillar uchun asosiy yo'nalishlar

2026–2028-yillarga mo'ljallangan pul-kredit siyosati asosiy yo'nalishlari narxlar barqarorligini ta'minlash va inflyatsiyani maqsadli darajaga tushirishga qaratilgan.


Asosiy ssenariyga ko'ra, inflyatsiya 2026-yilda 6,5 foiz, 2027-yilda 5 foizgacha pasayishi va 2028-yilda ushbu daraja atrofida barqarorlashishi kutilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Markaziy bank nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlarini saqlab boradi.

Shu bilan birga, pul-kredit siyosati makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ham qaratiladi. Pul-kredit siyosati samaradorligini oshirish maqsadida pul bozori mexanizmlarini takomillashtirish, tahlil va prognozlash salohiyatini rivojlantirish hamda Markaziy bank kommunikatsiya siyosatini kuchaytirish choralari ko'rib boriladi.

2.11-rasm. Banklararo pul va REPO operatsiyalar foiz stavkasi, foizda



2.12-rasm. UZONIA benchmark foiz stavkasi dinamikasi, foizda



### III. VALYUTA BOZORI VA XALQARO ZAXIRALAR

#### Valyuta bozori va valyuta operatsiyalari

2025-yilda respublika ichki valyuta bozorida chet el valyutasi bilan bog'liq operatsion faollikning o'sishi kuzatildi.

Yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab 2024-yilga nisbatan 24 foizga (48,2 mlrd dollar) o'sgan bo'lsa, valyuta taklifi hajmi 36 foizga (24,4 mlrd dollar) oshdi.

Hisobot yilida xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport tushumlari 11 foizga ortib, 18,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Tushumlarning 9,8 mlrd dollari yoki 54 foizi ichki valyuta bozorida sotildi (+19%).


Shuningdek, 2025-yilda ichki valyuta bozorida 9,7 mlrd dollarlik valyuta mablag'lari banklar tomonidan xorijiy kreditlar hisobidan sotildi (o'sish — 1,7 barobar).

Sotib olingan xorijiy valyutaning asosiy qismi — 50 foizi ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar hamda tovarlar va xomashyo importi, 28 foizi — xorijiy valyutadagi kreditlarni so'ndirish, 17 foizi — xalq iste'moli tovarlari va dori-darmon mahsulotlari importi, 2 foizi — xorijiy investorlar daromadlarining repatriatsiyasi va qolgan 3 foizi — boshqa maqsadlar uchun xarid qilingan (3.1-rasm).


Hisobot yilida milliy valyuta almashuv kursi dinamikasi ichki valyuta bozorida talab va taklif omillari, umumiy makroiqtisodiy holat va tashqi iqtisodiy sharoitlar ta'sirida shakllandi.

2025-yil davomida so'mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi 11 881 – 13 004 so'm diapazonida shakllanib, 6,9 foizga mustahkamlandi (3.2-rasm).

3.1-rasm. Valyuta bozorida chet el valyutasi taklifi, mlrd dollarda



3.2-rasm. 2025-yil davomida almashuv kursi dinamikasi, dollar/so'm



Umuman olganda, eksport, xorijiy kreditlar va pul o'tkazmalari kanallari orqali valyuta oqimlarining sezilarli darajada oshishi, shuningdek, xorijiy investitsiyalar hajmining o'suvchi dinamikasi hamda importning nisbatan barqarorlashishi ichki valyuta bozorida valyuta kursining mustahkamlanish omillaridan bo'ldi.


O'zbekistonda valyuta savdolarini tashkil etishning "metching" usuliga o'tilgan 2021-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda ikki tomonlama tebranuvchanlik darajasi o'rtacha 0,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 2 barobardan ko'proqqa oshib, 0,28 foizga yetdi.

Ta'kidlash joizki, 2025-yil aprel-dekabr oylari davomida tebranuvchanlik 0,35 foizgacha ko'tarilgan bo'lib, moslashuvchanlik darajasi yuqori hisoblangan davlatlar valyutalariga yaqinlashdi (3.3, 3.4-rasm).

Shuningdek, 2025-yilda so'mning o'rtacha standart og'ishi 42,95 so'mga teng bo'lgan bo'lsa, foiz ko'rsatkichi 0,34 foizni tashkil etdi (2021–2024-yillarda ushbu ko'rsatkich 24,17 so'm yoki 0,21% ga teng bo'lgan) (3.5-rasm).

2025-yilda o'rtacha kurs 12 575 so'mni tashkil etgan bo'lsa, yil davomida kursning eng yuqori qiymati 13 004 so'mga (o'rtacha kursdan 5,5% ga yuqori) va eng quyi qiymati 11 881 so'mga (o'rtacha kursdan 3,4% ga past) teng bo'ldi.

3.3-rasm. Rivojlanayotgan davlatlar valyutalari va so'mning AQSh dollariga nisbatan tebranuvchanligi, foizda



Manba: tegishli markaziy banklar


Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ)ning "Valyuta kurs rejimlarini klassifikatsiya qilishning yangilangan tizimi"ga ko'ra, mamlakatda valyuta kursi 6 oy yoki undan ortiq vaqt davomida markaziy qiymat atrofida  $\pm 2\%$  diapazonda shakllansa, XVJ ushbu holatda valyuta kursini erkin suzuvchi (*floating*) emas, balki barqarorlashtirilgan valyuta kurs rejimi (*stabilized arrangement*) deb baholaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, so'm valyuta kursi dinamikasi 2025-yilda erkin suzuvchi valyuta kursi maqomini o'zida aks ettirdi deb, xulosa qilishga asos bo'ldi.

Bunda, valyuta kursi ikki tomonlama tebranuvchanligi oshishining asosiy omillaridan biri ichki valyuta bozorida market-meykerlar sonining oshgani hamda ular tomonidan tuzilgan bitimlar hajmining sezilarli darajada ortgani bo'ldi. Xususan, 2025-yil yakuniga kelib market-meykerlar<sup>1</sup> soni 2 tadan 5 tagacha ko'paydi.


Almashuv kursining mustahkamlanishi natijasida iqtisodiyotimizda milliy valyutaga bo'lgan ishonch oshishi bilan bog'liq bir qator ijobiy makroiqtisodiy tendensiyalar kuzatildi.

3.4-rasm. Almashuv kursi tebranuvchanligi, foizda



\*So'm kursining kunlik o'zgarishlari orqali hisoblangan yillik o'rtacha tebranishi moslashuvchan valyuta kursi siyosatini yuritayotgan 25 ta rivojlanayotgan davlatlar<sup>2</sup> almashuv kurslarining yillik o'rtacha tebranish ko'rsatkichiga yaqinlashgan.

3.5-rasm. O'zbek so'mining almashuv kursi tebranuvchanligi, so'mda va foizda



Manba: Markaziy bank

<sup>1</sup> Market-meyker – muayyan valyuta juftligi bo'yicha doimiy ravishda sotib olish va sotish buyurtmalarini taklif qilib, bozor likvidligini ta'minlaydigan ishtirokchi (bank).

<sup>2</sup> Armaniston, Braziliya, Chili, Kolumbiya, Gruzziya, Vengriya, Hindiston, Indoneziya, Qozog'iston, Malayziya, Meksika, Paragvay, Peru, Polsha, Tailand, Turkiya, Urugvay va boshqalar.

Xususan, hisobot yilida:

– milliy valyutadagi hisob-kitoblar hamda jamg'arishning faollashishi hisobiga bank tizimidagi milliy valyutadagi depozitlar hajmi yil boshidan 44 foizga oshib, 330 trln so'mga yetdi;

– aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari mos ravishda 11,5 va 11,1 foizgacha sekinlashdi (*yil boshida mos ravishda 14,4 va 14%*) hamda kutilmalar shakllanishida valyuta kursi omili ikki barobarga qisqardi;

– depozit va kreditlarning dollarlashuv darajasida pasayish dinamikasi tezlashdi (*kreditlar bo'yicha 41% dan 38% gacha, depozitlar bo'yicha 26% dan 22% gacha*);

– davlat va korporativ tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari o'rtacha 6–7 foizgacha qisqardi.

### **Valyuta bozorida kommunikatsiya**

2025-yilda valyuta bozoriga oid kommunikatsiyani kuchaytirish maqsadida XVJ va soha ekspertlari bilan hamkorlikda ishlar olib borildi. XVJ texnik missiyasi tavsiyalari asosida valyuta bozori tendensiyalarini muhokama qilish uchun Markaziy bank, tijorat banklari va ekspertlardan iborat "Valyuta bozori ekspertlar guruhi" tashkil etildi.

Shuningdek, 2025-yil noyabr oyida mahalliy va xorijiy ekspertlar hamda OAV vakillari ishtirokida "Inflyatsion targetlash rejimida suzuvchi valyuta kursining ahamiyati" mavzusida forum o'tkazildi.

### **To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe**

2025-yilda jahon miqyosidagi geosiyosiy omillar, tashqi savdodagi fragmentatsiya hamda yuqori iqtisodiy noaniqliklarga qaramasdan, O'zbekistonning to'lov balansi hamda xalqaro investitsiyaviy mavqeyida ijobiy dinamika saqlanib qoldi.

Asosiy eksport xomashyo tovarlari narxlarining o'sishi<sup>3</sup>, shuningdek safarlar, transport va axborot texnologiyalari sohalarida xizmatlar eksportining kengayishi eksport o'sish sur'atlarining importga nisbatan yuqoriroq shakllanishiga olib keldi.

2025-yilda joriy operatsiyalar hisobi 5,8 mlrd dollar manfiy saldo bilan, deyarli 2024-yil miqdorida (*5,7 mlrd dollar*) shakllandi. YaIMga nisbatan ushbu taqchillik 0,8 foiz bandga qisqarib, 3,9 foizni tashkil etdi (3.6-rasm).

### **Tovar va xizmatlar eksporti**

2025-yilda eksport hajmi 23 foizga oshib, 32,3 mlrd dollarni tashkil qildi. Bunda tovarlar eksporti 23 mlrd dollarga (+17%), xizmatlar eksporti esa 9,3 mlrd (+42%) dollarga yetdi.

Tovarlar eksportida (*oltinsiz*) to'qimachilik, meva-sabzavot, kimyo mahsulotlari va qimmatbaho bo'lmagan metallar asosiy ulushni tashkil etib, jami tovarlar eksportining 68 foizini qamrab oldi. Oltin eksporti 31 foizga o'sib, 9,8 mlrd dollarga yetdi.

---

<sup>3</sup> 2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida oltinning o'rtacha narxi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 44 foizga, kumush narxi 41 foizga hamda mis narxi 9 foizga o'sdi.

Xizmatlar eksportida safarlar asosiy ulushni egallab, ularning hissasi 50 foizni tashkil etdi. 2025-yilda 11,7 mln nafar sayyoh tashrifi hisobiga safarlar bilan bog'liq xizmatlar eksporti 46 foizga oshib, qariyb 4,7 mlrd dollarga yetdi.

### Tovar va xizmatlar importi

Iqtisodiy faollikning oshishi hamda davlat va xususiy sektorda amalga oshirilgan investitsiyaviy loyihalar hisobiga mashina va uskunalar, transport vositalari, energoresurslar, kimyo va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ichki talab yuqori darajada saqlandi. Natijada, 2025-yilda jami import hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20 foizga oshib, 52,2 mlrd dollarni tashkil qildi.

Bunda tovarlar importi 16 foizga o'sib 38,5 mlrd dollarga yetdi. Import tarkibida mashina va uskunalar, kimyo mahsulotlari, qimmatbaho bo'lmagan


metallar, energoresurslar hamda transport vositalari jami tovarlar importining 70 foizini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 30 foizga oshib, 13,6 mlrd dollarga yetdi.

Yuqoridagi omillar ta'sirida savdo balansi manfiy saldosi 19,9 mlrd dollar doirasida shakllandi. Mazkur taqchillik birlamchi va ikkilamchi daromadlar bo'yicha shakllangan ijobiy saldo hisobiga qisman qoplandi.

### Birlamchi va ikkilamchi daromadlar

2025-yilda transchegaraviy pul o'tkazmalari joriy operatsiyalar hisobi taqchilligini kamaytiruvchi asosiy omillardan biri bo'ldi. 2025-yilda birlamchi va ikkilamchi daromadlar balansi mos ravishda 371 mln dollar va 13,7 mlrd dollar miqdorida ijobiy saldo bilan shakllandi.

3.6-rasm. Joriy operatsiyalar hisobi dinamikasi, mlrd dollarda



2025-yilda rezidentlarning birlamchi daromadlar bo'yicha tushumlari 13 foizga oshib, 6,4 mlrd dollarga yetdi, norezidentlarning birlamchi daromadlari esa 6,1 mlrd dollarni tashkil qildi (+34%).

Birlamchi daromadlar bo'yicha xarajatlar o'sishi asosan norezident investitsiyalari va tashqi qarzar bo'yicha hisoblangan daromad hamda foiz to'lovlari hissasiga to'g'ri keldi.

2024-yilning ikkinchi yarmidan boshlab global moliyaviy sharoitlarning yumshatilishi tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari o'sishini sekinlashtirgan bo'lsada, tashqi majburiyatlar bo'yicha foiz to'lovlari yangi qarz mablag'larining jalb qilinishi hisobiga oshdi.

Ikkilamchi daromadlar doirasida norezidentlardan uy xo'jaliklariga kelib tushgan shaxsiy transfertlar 15 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, ular bo'yicha to'lovlar 690 mln dollarga teng bo'ldi.


Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi asosan xorijiy investitsiyalar va tashqi qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirildi. 2025-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof jalb qilingan hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 48 foizga o'sib, 4,4 mlrd dollarni tashkil qildi.

Shu davrda portfel investitsiyalarning sof jalb qilinishi xalqaro obligatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobiga 40 foizga oshib, 4,4 mlrd dollarni tashkil etdi. Boshqa investitsiyalar tarkibida xorijdan jalb qilingan kredit va qarzar hajmi esa 21 foizga oshib, 9,1 mlrd dollarni tashkil qildi.

### Xalqaro investitsiyaviy mavqe

2025-yil boshiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining sof xalqaro investitsiyaviy mavqeyi 2 barobarga yoki 9,6 mlrd dollarga mustahkamlanib, 2026-yil 1-yanvar holatiga 19,1 mlrd dollarni tashkil etdi.

3.7-rasm. O'zbekiston Respublikasining xalqaro investitsiyaviy mavqeyi, mlrd dollarda



Rezidentlarning tashqi aktivlari asosan boshqa investitsiyalar bo'yicha aktivlar hamda xalqaro zaxiralar hajmining oshishi hisobiga 32 mlrd dollarga ko'payib, 128,4 mlrd dollarni tashkil etdi.

Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy, portfel va boshqa investitsiyalar sof kirimi ortishi hisobiga tashqi majburiyatlar hajmi 22,4 mlrd dollarga ko'payib, 109,3 mlrd dollarga yetdi (3.7-rasm).

Iqtisodiyot sektorlari kesimida davlat boshqaruvi va boshqa sektorlar "sof kreditor", bank sektori esa "sof qarzdor" sifatida shakllandi.


### Tashqi qarz

2025-yilning yakunlariga ko'ra umumiy tashqi qarz<sup>4</sup> hajmi yil boshiga nisbatan 27 foizga oshib, 82,2 mlrd dollarni tashkil etdi. Bunda davlat tashqi qarzi nooperatsion o'zgarishlarni inobatga olgan holda 19 foizga o'sib, 40,5 mlrd dollarga, korporativ tashqi qarz esa 36 foizga oshib, 41,7 mlrd dollarga yetdi (3.8-rasm).

Umumiy tashqi qarz bo'yicha majburiyatlar 2025-yilda 17,7 mlrd dollarga ko'payib, mazkur o'sishning 6,6 mlrd dollari davlat, 11,1 mlrd dollari esa korporativ qarz hissasiga to'g'ri keldi. Korporativ tashqi qarz tarkibida bank sektori, yoqilg'i-energetika hamda boshqa sektorlar korxonalar majburiyatlari o'sishi kuzatildi.

Korporativ tashqi qarz tarkibida bank sektori bo'yicha majburiyatlar qoldig'i 14,4 mlrd dollarni (+32%), yoqilg'i-energetika sektorida 12,8 mlrd dollarni (+43%) hamda boshqa sektorlarda 14,6 mlrd dollarni (+35%) tashkil qildi.

3.8-rasm. O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi tarkibi, mlrd dollarda



Manba: Markaziy bank

<sup>4</sup> Davlat va davlat tomonidan kafolatlangan hamda korporativ (xususiy) tashqi qarz, shu jumladan qarz bo'yicha hisoblangan lekin to'lanmagan foizlarni o'z ichiga oladi.

## Xalqaro zaxiralarni boshqarish

2025 yilda Markaziy bank tomonidan xalqaro zaxiralarni boshqarish global savdo siyosatidagi jiddiy o'zgarishlar, jahon iqtisodiyoti istiqbollari bo'yicha noaniqliklar, pul-kredit siyosatining yumshatilishi va geosiyosiy ziddiyatlar sharoitida xavfsizlik, likvidlilik va daromadlilik tamoyillariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirildi.

Zaxiralarni boshqarish samaradorligini oshirishda, jumladan, investitsiya siyosati va strategiyasi hamda risklarni boshqarish tizimlarini xalqaro amaliyotga muvofiq takomillashtirishda Jahon banki bilan o'rnatilgan "Xalqaro zaxiralarni boshqarish va maslahat dasturi" (*Reserve Advisory and Management Program — RAMP*) doirasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, Jahon banki texnik ko'magida Markaziy bankda dasturiy ta'minot va yetakchi axborot tizimlarini joriy etish, aktivlarni diversifikatsiya qilish va boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha amaliy ishlar olib borildi, shuningdek, trening va maslahat dasturlari yordamida xodimlarning malakasi oshirib borildi. Jumladan, "Sertifikatlangan moliyaviy tahlilchi" (*Chartered Financial Analyst — CFA*) va "Moliyaviy xatarlarni boshqarish bo'yicha mutaxassis" (*Financial Risk Manager — FRM*) malaka dasturlari bo'yicha tegishli bosqich imtihonlaridan o'tildi.

Shuningdek, dastur doirasida Markaziy bank mablag'larining bir qismi Jahon banki ishonchli boshqaruviga topshirilishi orqali keng ko'lamlil va yuqori likvidli aktivlarga investitsiya qilinishi va malakali mutaxassislar tomonidan samarali boshqarilishi davom ettirildi.

Bundan tashqari, Janubiy Koreya Markaziy banki va Songyungvan universiteti bilan Knowledge Partnership Program (*KPP*) dasturi doirasida "Qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish" bo'yicha qo'shma tadqiqot o'tkazildi.

## Xalqaro zaxiralar dinamikasi

2025-yil yakuniga ko'ra yalpi xalqaro zaxiralar hajmi 66,3 mlrd dollarni, jumladan oltin — 55,1 mlrd dollar, chet el valyutasidagi aktivlar — 9,7 mlrd dollar va qimmatli qog'ozlar — 1,5 mlrd dollarni tashkil etdi (3.9-rasm).

2025 yilda global savdoda proteksionistik siyosatning kuchayishi va iqtisodiy o'sish istiqbollari bo'yicha noaniqliklar ortishi sharoitida yetakchi markaziy banklar tomonidan iqtisodiy faollik keskin pasayib ketishining oldini olish maqsadida pul-kredit siyosatini yumshatish choralari ko'rildi. Xususan, AQSh Federal zaxira tizimi tomonidan asosiy foiz stavkasi 0,75 foiz bandga pasaytirildi. Mazkur sharoitda qat'iy daromad keltiruvchi aktivlarga nisbatan oltinning investitsion va xavfsiz aktiv sifatida jozibadorligi oshdi.

Natijada, 2025-yil davomida oltin narxi 1 troy unsiya uchun 68 foizga oshib, yil yakuniga kelib 4 389,5 dollarni tashkil qildi.

Zaxiralar tarkibidagi oltinning fizik hajmi deyarli o'zgarmagan bo'lsada (+0,3 mln troy unsiya), oltin zaxiralari qiymati 23,1 mlrd dollarga o'sib, shundan oltin narxi o'sishining ta'siri 22,3 mlrd dollarni tashkil qildi. Shuning hisobiga oltinning xalqaro zaxiralar tarkibidagi ulushi 2024-yildagi 78 foizdan 2025-yil yakuniga kelib 83 foizga yetdi.

Hisobot yilida Markaziy bank tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan 109 tonna monetar oltin xarid qilindi va 100 tonna oltin eksporti amalga oshirildi. Eksportdan tushgan valyuta mablagʻlari pul-kredit siyosatini amalga oshirish hamda xalqaro operatsiyalar boʻyicha hisob-kitoblarni taʼminlashga yoʻnaltirildi.

Yil yakuniga kelib chet el valyutasidagi aktivlar hajmi 2,0 mlrd dollarga oshib, ularning 87 foizi AQSh dollarida va 13 foizi Xitoy yuanida shakllandi. Valyuta aktivlarining bir qismi Xitoy yuanida shakllanishi uning xalqaro zaxira valyutasi maqomi va tashqi savdoda yetakchi hamkor mamlakat valyutasi ekanligi bilan izohlanadi.

Xalqaro zaxiralarni boshqarishda risklarni, shu jumladan, konsentratsiya riskini kamaytirish maqsadida hisobot yilida chet el valyutasidagi aktivlar yuqori suveren kredit reytingiga ega 16 ta mamlakat va xalqaro investitsion reytingga ega 35 ta bankda muddatli depozitlarga joylashtirildi.


Jumladan, yil yakuniga koʻra Markaziy bankning muddatli depozitlari Osiyo-tinch okeani (55%), Yevropa (38%) va Shimoliy Amerika mintaqasi (7%) banklariga joylashtirilgan.

Depozitga joylashtirilgan valyuta mablagʻlarining 25 foizi “AAA”, 27 foizi “AA” va 48 foizi “A” suveren kredit reytingiga ega mamlakatlar hissasiga toʻgʻri keladi. Shuningdek, valyuta mablagʻlarining 5 foizi “AAA”, 17 foizi “AA” va 78 foizi “A” investitsion reytingga ega xorijiy hamkor-banklarga joylashtirilgan.

2025-yilda Markaziy bankning jami amaldagi hamkor banklari soni 47 tani tashkil etib, ularning 33 tasi birinchi darajali kapital hajmi boʻyicha dunyoning 100 ta eng katta banklari reytingida qayd etilgan, qolgan qismi esa dunyoning 200 ta eng yirik banklari roʻyxatiga kiritilgan.

Valyuta aktivlari bilan bogʻliq xatarlar hamkor-banklar kesimida muntazam monitoring qilib borilmoqda.

3.9-rasm. Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari dinamikasi va tarkibi



Manba: Markaziy bank

### Xalqaro zaxiralar tarkibidagi qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish.


2025-yil yakuniga kelib Markaziy bankning qimmatli qog'ozlar portfeli qiymati 1,5 mlrd dollarga yetdi. Mazkur portfel passiv strategiyalar asosida boshqarilib, qimmatli qog'ozlarni so'ndirish muddatiga qadar saqlab turish hamda tegishli benchmark risk ko'rsatkichlariga mos qimmatli qog'ozlar tanlab olish (*indeksatsiya qilish*) usullari qo'llaniladi.

Markaziy bankning qimmatli qog'ozlar portfeli daromadlilik yillik hisobda 4,6 foizni tashkil qilib, 2025-yil davomida portfel daromadi va benchmark daromadi o'rtasida sezilarli tafovut kuzatilmadi, tafovutning standart chetlashishi (*Tracking Error*) nol foizni tashkil qildi.


### Xalqaro zaxiralarning yetarlilik ko'rsatkichlari

Xalqaro zaxiralarning me'yoriy talablar doirasida bo'lishi davlatning moliyaviy barqarorligi va ishonchligini mustahkamlab, O'zbekistonning xalqaro kredit reytinglari hamda investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. Bu esa, tashqi moliya bozorlaridan resurslarni qulay shartlarda jalb qilish, tashqi qarzlarga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish va inqirozli davrlarda nisbatan tez va kam yo'qotishlar bilan yengib o'tish imkoniyatlarini kengaytiradi.

3.10-rasm. Xalqaro zaxiralarning ARA EM ko'rsatkichi, foizda



3.11-rasm. Xalqaro zaxiralarning YaIMga nisbatan o'zgarishi, foizda



Manba: Markaziy bank

Mamlakatimizda xalqaro zaxiralarni muvozanatli boshqarish siyosati zaxiralarning qisqa muddatli qarzlarni qoplash darajasi (*minimal talab 100%*), importni qoplash darajasi (*kamida uch oylik importni qoplash*), keng ma'nodagi pul massasiga nisbati (*20%*), hamda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ARA EM zaxiralar yetarliligi (*100–150%*) ko'rsatkichlarining xalqaro amaliyotda belgilangan minimal talablardan yuqori shakllanishida namoyon bo'lmoqda<sup>5</sup>.

Xususan, xalqaro zaxiralarning keng ma'nodagi pul massasiga nisbati 2025-yil 1-yanvar holatiga 211 foizni tashkil qilib, 20 foizlik minimal talabdan 11 barobar ko'p shakllandi.

Importni qoplash darajasi 2024-yildagi 13 oydan 14 oygacha oshib, tavsiya etiladigan me'yorlardan 4,7 barobar yuqori bo'ldi. Qisqa muddatli tashqi qarzlarni qoplash darajasi 442 foizni (*minimal talabdan 4,4 barobar yuqori*), XVJning ARA EM zaxiralar yetarliligi ko'rsatkichi esa minimal talabdan 3,4 barobar yuqori darajani tashkil etdi (3.10-rasm).

Shu bilan birga, O'zbekiston xalqaro zaxiralarning YalMga nisbati 45 foiz bo'lib, asosiy savdo hamkor mamlakatlar ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda (3.11-rasm).

Mazkur ko'rsatkichlar boshqa muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qatorida mamlakatning ichki va tashqi shoklar ta'sirida inqiroz ehtimolini kamaytirishga xizmat qilib, investorlar uchun investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi.

### **Kelgusi yillar uchun asosiy yo'nalishlar**

2026-yilda ichki valyuta bozorini yanada rivojlantirish maqsadida Markaziy bankning valyuta intervensiyalari bo'yicha yangi tahrirdagi strategiyasi ishlab chiqiladi. Shuningdek, valyuta bozorini rivojlantirish, ushbu sohada kommunikatsiya siyosatini kuchaytirish, valyuta operatsiyalari mexanizmlarini takomillashtirish hamda valyuta kursi shakllanishida bozor omillari rolini oshirish bo'yicha choralar ko'riladi.

Shu bilan birga, xalqaro rezervlarni boshqarish tizimini takomillashtirish ishlari davom ettiriladi. Bunda rezerv aktivlarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidligi va daromadliligini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, xalqaro rezervlarni tashqi majburiyatlarni bajarish uchun yetarli darajada shakllantirish ta'minlanadi.

<sup>5</sup>Assessing Reserves Adequacy for Emerging Markets (ARA EM) – bu ko'rsatkich XVJning metodologiyasi asosida mamlakatning valyuta siyosati, eksport-import hajmi, pul massasi, tashqi qarzlari kabi ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi.

## IV. MOLIYAVIY BARQARORLIK, TARTIBGA SOLISH VA NAZORAT

2025-yilda Markaziy bank bank tizimida moliyaviy barqarorlikni o'rganish hamda tashqi omillar bilan bog'liq makroiqtisodiy va moliyaviy xatarlarni yumshatishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratdi.

Banklar faoliyati turli makroiqtisodiy va moliyaviy ssenariylar asosida muntazam ravishda stress-testlardan o'tkazilib, kelgusida ularning kapitali va likvidligiga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni kamaytirish bo'yicha tegishli choralar ko'rib borildi.

Stress-test natijalari asosida tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan zarur chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish yuzasidan tegishli nazorat va muvofiqlashtirish ishlari ta'minlandi.

Hisobot yili davomida bank nazorati tizimini takomillashtirish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda nazorat samaradorligini oshirish maqsadida Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ko'magida Moliyaviy sektorni baholash dasturi (*FSAP*) o'tkazilib, bunda banklar faoliyatini nazorat qilish tizimi Bazal talablariga muvofiqligi baholandi.

Baholash dasturi ekspertlari tomonidan taqdim etilgan xulosa va takliflar asosida Markaziy bank boshqaruvi qarori bilan "2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, banklar faoliyatida sodir bo'lgan ahamiyatga molik ma'lumotlar, bank kengashi tomonidan qabul qilingan muhim qarorlar, regulyator tomonidan bankka nisbatan qo'llanilgan chora va sanksiyalarni o'z ichiga olgan institutsional tahliliy ma'lumotlar har chorakda shakllantirib borildi.

Banklarning biznes reja ko'rsatkichlari ijrosi 2025-yilda ham choraklik nazorat qilib borildi.

### **Banklar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari**

#### **Kreditlar**

Hisobot yilida banklarning jami aktivlari 155 trln so'mga yoki 20 foizga oshib, 2026-yilning 1-yanvar holatiga 925 trln so'mga yetdi.

Aktivlar tarkibidagi sof kredit qo'yilmalari ulushi 2024-yildagi 66,9 foizdan 65,3 foizgacha kamaygan bo'lsa, boshqa banklardagi mablag'lar ulushi 8,5 foizdan 8,6 foizgacha hamda investitsiyalar va sotib olingan qimmatli qog'ozlar ulushi 7,7 foizdan 11,1 foizgacha oshishi kuzatildi.

2025-yilda banklar tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlariga 390 trln so'm yoki 2024-yilga nisbatan 36 foizga ko'p kreditlar ajratildi.

Ajratilgan kreditlarning milliy valyutadagi qismi 2024-yilga nisbatan 43 foizga oshib, 276 trln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, xorijiy valyutadagi qismi 20 foizga oshib, 114 trln so'mni tashkil etdi. Ajratilgan kreditlarning 60 foizi tadbirkorlik subyektlari hamda 40 foizi aholi hissasiga to'g'ri keladi.

Tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlarning 96 trln soʻmlik qismi revolver shaklida aylanma mablagʻlarni toʻldirish maqsadlariga yoʻnaltirilgan.

Oʻz navbatida, 2025-yil davomida 305 trln soʻm yoki 2024-yilga nisbatan 38 foizga koʻp kreditlar soʻndirilgan boʻlib, ularning ajratilgan kreditlarga nisbati 78 foizni tashkil etgan (4.1-rasm).

Iqtisodiyotga kredit qoʻyilmalari qoldigʻi 2025-yil boshiga nisbatan 13 foizga yoki 87 trln soʻmga oshib, 2026-yilning 1-yanvar holatiga 653 trln soʻmga yetdi (4.2-rasm).

Mazkur kredit qoʻyilmalarining milliy valyutadagi qismi 2024-yildagi 59 foizdan 62 foizga yetgan boʻlsa, xorijiy valyutadagi kreditlar salmogʻi 41 foizdan 38 foizgacha pasaygan.

2025-yilda tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kredit qoʻyilmalari 8 foizga oʻsib, 384 trln soʻmga, aholiga ajratilgan kreditlar hajmi esa 24 foizga oshib, 220 trln soʻmga yetgan.


Aholining kredit qoʻyilmalari tarkibida ipoteka kreditlari ulushi 36 foizni (79,4 trln soʻm), mikroqarzarlar 22 foizni (48,9 trln soʻm), tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar 18 foizni (40,5 trln soʻmni), avtokreditlar 18 foizni (39,7 trln soʻm) va boshqa kreditlar 5 foizni (11,9 trln soʻm) tashkil etdi.

Hisobot yilida davlat ulushiga ega banklarda jami kredit qoʻyilmalari hajmi 10 foizga oshib, 404 trln soʻmga va xususiy banklarda 20 foizga oshib, 200 trln soʻmga yetdi.


Bunda, davlat banklari kredit qoʻyilmalarining bank tizimi portfelidagi ulushi 2024-yildagi 69 foizdan 67 foizgacha pasaygan boʻlsa, oʻz navbatida xususiy banklarning ulushi 31 foizdan 33 foizgacha oshgan.

Mazkur holat xususiy banklar faoliyatida raqamli yechimlardan foydalanish koʻlamining kengayishi, biznes modellarda chakana kreditlashga eʼtiborning ortishi hamda kreditlash jarayonlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan oʻzgarishlar bilan izohlanadi.

4.1-rasm. Ajratilgan va soʻndirilgan kreditlar dinamikasi



4.2-rasm. Kredit portfeli dinamikasi



## Depozitlar

2025-yilda banklarning jami majburiyatlari 789,4 trln soʻmga yetib, 2024-yilga nisbatan 21 foizga yoki 135 trln soʻmga oshgan boʻlsa, ushbu oʻsishining 80 foizi depozitlar, 10 foizi jalb qilingan kredit liniyalari, 6 foizi chiqarilgan qimmatli qogʻozlar va 4 foizi boshqa banklar va moliyaviy tashkilotlardagi mablagʻlar hisobiga shakllandi.

Jami majburiyatlar tarkibida jalb qilingan depozitlar ulushi 47 foizdan 53 foizgacha hamda chiqarilgan qimmatli qogʻozlar ulushi 4 foizdan 5 foizgacha oshgan.

Jalb qilingan kredit liniyalarining ulushi 36 foizdan 31 foizgacha kamaygan.

Jalb qilingan depozitlar tarkibida milliy valyutadagi depozitlar ulushi 75 foizdan 79 foizgacha oshgan boʻlsa, chet el valyutasidagi depozitlar ulushi 25 foizdan 21 foizgacha pasaydi.

Ushbu holat soʻmning mustahkamlanishi, shuningdek ijobiy real foiz stavkasi saqlab qolinayotganligi natijasida milliy valyutadagi depozitlarning jozibadorligi oshib borayotganligi bilan izohlanadi.

Banklardagi tashqi kredit resurslari 5,8 foizga (8,6 trln soʻmga oshib, 13 mlrd dollarni tashkil qilgan) oshgan boʻlsa, ichki resurslar – depozitlar qoldigʻi 2025-yilda 108,6 trln soʻm yoki 35 foizga oʻsgan.

## Moliyaviy barqarorlik koʻrsatkichlari

2025-yilda bank tizimining jami kapitali hajmi 18 foizga oshib, 135 trln soʻmga, ustav kapitali hajmi 13 foizga oʻsib, 94 trln soʻmga yetdi.

Banklardagi regulyativ kapital hajmi 21 foizga oshib, 151 trln soʻmni va tavakkalchilikka tortilgan aktivlar

14 foizga koʻpayib, 823 trln soʻmni tashkil qildi. Kapital monandligi koʻrsatkichi 18,3 foizni tashkil etib (*minimal talab 13%*), oʻtgan yil darajasidan 1 foiz bandga mustahkamlangan (4.3-rasm).

Hisobot yilida yuqori likvidli aktivlar hajmi 56 trln soʻmga yoki 42 foizga koʻpayib, 189 trln soʻmga, ular tarkibidagi milliy valyutadagi aktivlar 47 trln soʻmga, xorijiy valyutadagi aktivlar esa 9 trln soʻmga koʻpayib, ularning hajmi mos ravishda 121 va 68 trln soʻmni tashkil etdi.

Natijada, yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi (*likvidlilik buferi*) 2025-yilda 3,8 foiz bandga oshib, 2026-yilning 1-yanvar holatiga 21,1 foizga (*minimal talab 10%*) yetdi.

Yuqori likvidli aktivlar hajmining oshishi fonida, bank tizimida likvidlilikni qoplash meʼyori (*qisqa muddatli likvidlilik (LCR)*) yaxshilandi. Mazkur koʻrsatkich hisobot yili davomida 14 foiz bandga oshib, joriy yilning 1-yanvar holatiga 208 foizni tashkil etdi (*minimal talab 100%*).

Bu esa, oʻz navbatida, bank tizimida kutilmagan stress holatlar yuzaga kelgan taqdirda ham banklarda keyingi 30 kun davomida mijozlar oldidagi majburiyatlarni 2 barobar ortigʻi bilan bajara olish imkoni mavjudligini bildiradi.

Sof barqaror moliyalashtirish meʼyori koʻrsatkichi (*uzoq muddatli likvidlilik koʻrsatkichlari (NSFR)*) qariyb 5 foiz bandga oshib, 120 foiz darajasida shakllandi (*minimal talab 100%*).

2025-yilda banklarning yalpi daromadlari 201 trln soʻm, yalpi xarajatlari 185 trln soʻmni tashkil etib, bank tizimi sof foydasi 15,5 trln soʻmga teng boʻldi.

Banklar jami daromadlarining 64 foizi foizli daromadlar, 36 foizi foizsiz daromadlar hissasiga to'g'ri keladi. Foizli daromadlarning 70 foizi kredit va mijozlarning majburiyatlari, 6 foizi qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan daromadlar, 3 foizi boshqa banklarga joylashtirilgan mablag'lardan tashkil topgan.

Hisobot yilida banklarda foizsiz daromadlarning sezilarli oshishi (+33%) natijasida bank tizimi rentabellik ko'rsatkichlari yaxshilandi. Xususan, bank tizimi aktivlari rentabelligi 2024-yilga nisbatan 0,8 foiz bandga oshib, 2,2 foizni va kapital rentabelligi 5,8 foiz bandga ko'payib, 12,4 foizni tashkil etdi (4.4-rasm).

O'z navbatida, banklar foizli xarajatlarning ortishi operatsion samaradorlik ko'rsatkichi (CIR)da namoyon bo'ldi. 2025-yilda mazkur ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 0,8 foiz bandga oshib, 36,3 foizni (maqbul daraja 50%) tashkil etdi.

## Muammoli kreditlar


2025-yilda bank tizimida muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 1 foiz bandga pasayib, 3 foizni tashkil etdi.

2026-yil 1-yanvar holatiga tijorat banklari kredit portfelining 85 foizi "standart", 12 foizi "substandart" hamda 3 foizi muammoli (1,1% "qoniqarsiz", 1% "shubhali" va 0,9% "umidsiz") kreditlar sifatida tasniflandi.


Banklar tomonidan 2025-yilda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi yaratilgan zaxiralar (standart aktivlar bo'yicha yaratilgan zaxiralarni hisobga olinmaganda) hajmi 1,5 trln so'mga yoki 8 foizga pasayib, 17 trln so'mga yetdi. Bunda, muammoli kreditlarni zaxiralar bilan qoplanish darajasi o'tgan yilning mos davridagi 87 foizdan 2026-yil 1-yanvar holatiga 94 foizgacha oshdi.

Muammoli kreditlarning 67 foizi (12,1 trln so'm) tadbirkorlik subyektlari va 33 foizi (6 trln so'm) jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri keladi.

4.3-rasm. Kapital yetarliligi ko'rsatkichi



4.4-rasm. Bank tizimi aktivlar rentabelligi (ROA)



Aholining muammoli kreditlari tarkibida 2 trln soʻmi mikroqarzarlar (33%), 1,2 trln soʻmi avtokreditlar (19%), 966 mlrd soʻmi ipoteka kreditlari (16%), 1,6 trln soʻmi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar (26%) va 319 mlrd soʻmi boshqa kreditlar (5%) hissasiga toʻgʻri keladi.

## Nobank kredit tashkilotlarining asosiy koʻrsatkichlari

### Aktivlar

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning aktivlari oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 barobarga ortib, 2026-yil 1-yanvar holatiga 12,5 trln soʻmni tashkil etgan.

Bunda, mikromoliya tashkilotlarining aktivlari oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 trln soʻmga (+50%) oʻsib, 11,8 trln soʻmga yetgan boʻlsa, lombardlar aktivlari 246 mlrd soʻmga (+49%) oshib, 743 mlrd soʻmga yetgan.

2026-yil 1-yanvar holatiga mikromoliya tashkilotlari va lombardlar aktivlarining asosiy qismi, yaʼni 91 foizi (11,4 trln soʻm) kredit qoʻyilmalari hissasiga toʻgʻri kelib, ular hajmi oʻtgan yilga nisbatan 1,4 barobarga oshdi.

*Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kreditlarining barcha kredit tashkilotlar umumiy kredit portfelidagi ulushi 1,9 foizga yetdi.*

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan 2025-yilda jami 31,8 trln soʻm miqdorida kreditlar ajratilib (*oʻsish — 2 barobar*), bunda, kreditlashning 91 foizi (28,9 trln soʻmi) mikromoliya tashkilotlari va 9 foizi (2,9 trln soʻmi) lombardlar hissasiga toʻgʻri kelgan (4.5-rasm).

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar xizmatlarining asosiy qismi jismoniy shaxslarga toʻgʻri kelib, ular ulushi 97 foizni (30,8 trln soʻm), yuridik shaxslar ulushi esa 3 foizni (1,1 trln soʻm) tashkil etdi.

Bunda, tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikrokreditlar qoldigʻi 1,8 barobarga koʻpayib, 694 mlrd soʻmga, faktoring xizmatlari hajmi 2,4 barobarga oshib, 222 mlrd soʻmga yetgan boʻlsa, lizing xizmatlari hajmi 37 foizga kamayib, 6 mlrd soʻmni tashkil etgan (4.6-rasm).

### Islomiy moliyalashtirish

2025-yilda jami 21,1 mlrd soʻmlik islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar 7 ta mikromoliya tashkilotlari tomonidan koʻrsatilgan boʻlib, jami xizmatlar tarkibida “Murobaha” xizmatlari 63 foiz (13,2 mlrd soʻm), “Mushoraka” 13 foiz (3 mlrd soʻm), “Islomiy ijara” 7 foiz (1,4 mlrd soʻm) va “Muzoraba” xizmatlari 17 foiz (3,5 mlrd soʻm)ni tashkil etgan.

### Faktoring xizmatlari

2025-yilda kredit tashkilotlari tomonidan jami 9,5 trln soʻmlik faktoring xizmatlari koʻrsatildi (*oʻsish — 5 barobar*). Ushbu hajmning 93 foizi (8,8 trln soʻm) tijorat banklari, 7 foizi (699 mlrd soʻm) esa mikromoliya tashkilotlari hissasiga toʻgʻri keldi.

Koʻrsatilgan faktoring xizmatlari tarkibida raqamli faktoring xizmatlari ulushi 46 foizni tashkil etib, ularning hajmi 4,4 trln soʻmga teng boʻldi.

Biznesning aylanma mablagʻlarga boʻlgan ehtiyojini faktoring orqali moliyalashtirish hajmi sezilarli oshdi. Xususan, faktoring xizmatlari boʻyicha oylik eng yuqori hajm 2024-yil dekabr oyidagi 630 mlrd soʻmdan 2025-yil dekabr oyida 1,2 trln soʻmga yetdi.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha faktoring xizmatlarining asosiy qismi sanoat sohasiga 4,5 trln so'm (48%) hamda savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga 4,1 trln so'm (44%) yo'naltirilgan. Shuningdek, qurilish va qishloq xo'jaligi sektorlarida har biri mos ravishda 391 mlrd so'mlik (4%) va 409 mlrd so'mlik (4%) debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirilgan.

### Xalqaro faktoring amaliyotlari

2025-yilda tijorat banklari tomonidan 642 mlrd so'm ekvivalentida (*jamiga nisbatan 7%*) regress huquqi bilan xalqaro faktoring xizmatlari ko'rsatildi.

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga (65%) hamda sanoat tarmog'iga (32%) to'g'ri keldi. Qishloq xo'jaligi sohasida (3%) debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirildi.

Xalqaro faktoring xizmatlarining asosiy qismi Tojikiston (39%), Rossiya (34%), Qozog'iston (10%) hamda Qirg'iziston (10%) bilan amalga oshirilgan.


### Majburiyatlar va kapital

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning jami majburiyatlari 2025-yil yakunida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 barobarga oshib, 8,5 trln so'mni tashkil etgan. Xususan, mikromoliya tashkilotlarining majburiyatlari 8,3 trln so'mni (+55%), lombardlarda esa 146 mlrd so'mni (+21%) tashkil etgan.


Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami kapitali o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 barobarga ko'payib, 2026-yil 1-yanvar holatiga 4,1 trln so'mga yetgan. Bunda, mikromoliya tashkilotlarining jami kapitali 1,4 barobarga oshib, 3,5 trln so'mni va lombardlarda 1,6 barobarga o'sib, 597 mlrd so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, xorij kapitali ishtirokidagi mikromoliya tashkilotlarining ustav kapitali 310 mlrd so'm (*o'sish — 1,5 barobar*) va lombardlarda 97 mlrd so'mga (*o'sish — 5,4 barobar*) yetgan.

4.5-rasm. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kreditlar, trln so'mda



4.6-rasm. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kredit turlari qoldig'i, mlrd so'mda 2026-yil 1-yanvar holatiga



### **Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari**

2025-yil yakunlari bo'yicha mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning jami daromadlari 5,1 trln so'mni, jami xarajatlari 3,9 trln so'mni tashkil etib, jami 1,2 trln so'm miqdorida sof foyda olingan.

Mikromoliya tashkilotlarida aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (*ROA*) 2024-yil boshiga nisbatan 2,3 foiz bandga kamayib, tahlil sanasida 38,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, kapital rentabellik ko'rsatkichi (*ROE*) ushbu davrda 0,9 foiz bandga kamayib, 2025-yil yakuni bo'yicha 18,5 foizni tashkil etgan.

Shu bilan birga, lombardlarda aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (*ROA*) 2025-yil yakunida 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,2 foiz bandga kamayib, 55,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, kapital rentabellik ko'rsatkichi (*ROE*) 2024-yilning mos davriga nisbatan 0,3 foiz bandga oshib, hisobot sanasida 52,3 foizga yetgan.

### **Muammoli kreditlar**

Mikromoliya tashkilotlarida muammoli kreditlar qoldig'i joriy yilning 1-yanvar holatiga 263 mlrd so'm yoki 2,4 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davri darajasida saqlangan.

Muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyenti 2025-yil boshiga nisbatan 8 foiz bandga oshib, 2026-yil 1-yanvar holatiga 65 foizni tashkil etgan.

### **Prudensial chora-tadbirlar**

Hisobot yilida banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida bank tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga nisbatan bardoshlilikni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib borildi.

Jumladan, banklarning tavakkalchilikka asoslangan bank nazorati tamoyillari asosida banklarning risk-profillarini baholash, ularning kredit portfeli sifatini yaxshilash, likvidlilik va kapital buferlarini shakllantirish, shuningdek yirik qarzdorlarning moliyaviy holatini muntazam tahlil qilib borish bo'yicha tegishli ishlar olib borildi.

Jahon banki tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan tavakkalchilikka asoslangan bank nazorati qo'llanmasiga muvofiq ilk marotaba barcha 35 ta bankning risk-profilini, xususan, banklarning kredit, likvidlilik, operatsion va bozor xatarlariga bardoshlilik holati baholandi.

*2023-yilda 4 ta, 2024-yilda 14 ta bankning risk-profilini baholangan.*

Baholash natijalari bo'yicha bank tizimi 3 ball, davlat banklari 3 ball va boshqa banklar 2 ball bilan baholandi.

Bunda, 2 ta bank 1 ball, 15 ta bank 2 ball, 15 ta bank 3 ball va 3 ta banklar faoliyati 4 ball deb baholandi.

Shuningdek, baholash yakunlari bo'yicha banklar boshqaruvi va kengashlariga mavjud xatarlarni bartaraf qilish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi.

Tavakkalchilikka asoslangan bank nazoratini amalga oshirish chora-tadbirlari doirasida 2025-yilning iyun oyida bank tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit xatarlari konsentratsiyasi va ularning banklar moliyaviy barqarorligiga ta'siri yuzasidan "asosiy" va "xatarli" ssenariylarda stress-test o'tkazildi.

Stress-test natijalari asosida banklar tomonidan mavjud zaifliklar, ularning barqarorlik ko'rsatkichlariga kreditlash imkoniyatlari cheklanishiga ta'sirlari aniqlandi.

Shu bilan bog'liq holda, stress-test natijalari yuzasidan tijorat banklari tomonidan banklarning risklarini boshqarishdagi, hususan kredit risklarini boshqarishdagi mavjud zaifliklarni bartaraf qilish borasida tegishli amaliy chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va ijrosi nazoratga olingan.

Bundan tashqari, banklardagi kreditlarning muammoga aylanishiga sabab bo'layotgan tizimli omillarni o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali yechimlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish maqsadida 2025-yilda Banklardagi muammoli aktivlar bilan ishlash bo'yicha ishchi guruh tashkil etildi. Bugungi kunda guruh tomonidan:

- NPL (90+ kun) kreditlar portfelini tizimli (*kredit portfelidagi o'sish dinamikasi, konsentratsiya, banklar, hududlar, tarmoq va yirik qarzdorlar kesimida*) tahlil qilish;
- segmentlar kesimida muammolarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- davlat ishtirokidagi banklar bo'yicha alohida nazorat mexanizmlarini qo'llash;

- banklarda muammoli kreditlarni bartaraf qilish maqsadida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilish;
- tahliliy hisobotlar tayyorlash kabi vazifalar amalga oshirib kelinmoqda.

Shuningdek, hisobot yilida Markaziy bank tomonidan banklarning 2025-yil uchun belgilangan biznes reja ko'rsatkichlari ijrosi choraklik nazorat qilib borilmoqda.

### **Makroprudensial chora-tadbirlar**

O'zbekistonda moliya tizimi barqarorligini ta'minlash yuzasidan 2025-yil davomida Markaziy bank tomonidan bir qator makroprudensial chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, banklar kapital monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida ishlab chiqilgan yangi nizom orqali kapital monandlilik talablari Bazeli III standartlariga moslashtirildi va kapital buferlari amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, qarzdorlarga yo'naltirilgan makroprudensial siyosat vositalari takomillashtirilib, ularning qamrovi kengaytirilmoqda.

Xalqaro moliya tashkilotlari tavsiyalari va xorijiy tajriba asosida davriy tizimli xatarlarni oldini olish maqsadida banklar uchun kontrtsiklik kapital buferini belgilash asoslari ishlab chiqildi. Mazkur hujjat Bazeli III standartlariga muvofiq kontrtsiklik kapital bufer darajasini belgilash va o'zgartirishning umumiy konsepsiyasini shakllantirib, 2026-yil 1-yanvardan boshlab tijorat banklari uchun 1,5 foiz miqdoridagi kontrtsiklik kapital buferini joriy etishga asos bo'ldi.

Shuningdek, tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash metodologiyasi takomillashtirilib, ularning qamrovi kengaytirildi. Tarkibiy tizimli xatarlarni bartaraf etish maqsadida 2026-yil 1-yanvardan boshlab tizimli ahamiyatga molik banklar uchun 1 foiz miqdorida kapital buferi oʻrnatildi. Bundan tashqari, banklarning barqaror faoliyati va toʻlov qobiliyatini taʼminlash uchun 2026-yildan kapital konservatsiya buferi 2,5 foiz darajasida joriy etildi.

Bank va nobank kredit tashkilotlarida kredit xavfini kamaytirish hamda aholi qarz yuki darajasining oshib ketishini oldini olish maqsadida 2025-yil 1-yanvardan boshlab qarzga xizmat koʻrsatishning daromadga nisbati cheklovi (*DSTI*) barcha kredit turlari boʻyicha 50 foizgacha pasaytirildi.

Shu bilan birga, kredit faolligini saqlab qolish va aholining tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash maqsadida qarz yuki talablari boʻyicha ayrim istisnolar belgilandi. Xususan:

– oʻzini oʻzi band qilgan shaxs sifatida birinchi marta roʻyxatdan oʻtganiga olti oydan oshmagan qarz oluvchilarga daromad olishga yoʻnaltirilgan faoliyati uchun banklar tomonidan kreditlar ajratishda jismoniy shaxslar kredit portfelining 15 foizigacha qarz yuki koʻrsatkichini inobatga olmaslik;

– jismoniy shaxslar kredit portfelining eng koʻpi bilan 15 foiziga tijorat banklari tomonidan qarz yuki koʻrsatkichi 100 foizgacha boʻlgan qarz oluvchilarga kreditlar ajratilishi;

– tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlarga, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida beriladigan kreditlar hamda taʼlim kreditlariga qarz yuki koʻrsatkichi talablarining tatbiq etilmasligi;

– mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan jismoniy shaxslarga kreditlar ajratishda amaldagi kredit shartnomalarini ham inobatga olgan holda asosiy qarz qoldigʻi bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha (*oʻzini oʻzi band qilgan qarz oluvchilar uchun 75 barobarigacha*) boʻlgan miqdorda qarz yuki koʻrsatkichi talablarini inobatga olmaslik mumkin.

Kredit portfelining garov bilan taʼminlanganlik darajasini oshirish va aktivlar bozoridagi oʻzgarishlardan kelib chiqishi mumkin boʻlgan yoʻqotishlarni oldini olish maqsadida jismoniy shaxslarga ipoteka va avtokreditlar ajratishda kredit summasining garov summasiga nisbati (*LTV*) boʻyicha cheklovlar oʻrnatildi. Xususan, 2025-yil 24-iyuldan avtokreditlar uchun LTV 75 foiz etib belgilandi. Ipoteka kreditlari boʻyicha mazkur koʻrsatkich Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablagʻlari hisobidan qayta moliyalashtiriladigan kreditlar uchun 85 foiz, boshqa ipoteka kreditlari uchun esa 80 foizni tashkil qildi.

Shu bilan birga, banklarga avtokredit va ipoteka portfellarining har biri boʻyicha eng koʻpi bilan 15 foiz qismiga meʼyoriy talablardan yuqori LTV bilan kredit ajratishga ruxsat etildi. Biroq, qarz oluvchining oʻrtacha oylik daromadini aniqlash imkoniyati mavjud boʻlmagan holatlarda ipoteka kreditlari uchun bunday istisno qoʻllanilmasligi belgilandi.

Kredit portfeli diversifikatsiyasini ta'minlash va konsentratsiya xavfini cheklash maqsadida ayrim kredit turlari bo'yicha qo'shimcha konsentratsiya talablari joriy etildi. Xususan, 2025-yil 24-iyuldan boshlab mikroqarzarlar, overdraft va kredit kartalarning har biri jami kredit portfelinin 25 foizidan oshmasligi belgilandi. Ushbu talablarga javob bermaydigan banklar kredit portfelini 2029-yil 1-yanvarga qadar Markaziy bank bilan kelishilgan muddatlarda bosqichma-bosqich me'yorlarga moslashtirish talabi qo'yildi.

Shuningdek, aholiga iste'mol kreditlari va mikroqarzarlar ajratishda qarz yuki xavfini kamaytirish maqsadida qarzning daromadga nisbati (*DTI*) bo'yicha talablar o'rnatildi.

2026-yil 1-martdan boshlab mazkur ko'rsatkich o'rtacha oylik daromadni aniqlash imkoniyati mavjud bo'lgan qarz oluvchilar, shu jumladan o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun 8 barobardan oshmasligi belgilanadi.

Banklarga jismoniy shaxslar kredit portfelining eng ko'pi bilan 15 foizigacha o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida birinchi marta ro'yxatdan o'tganiga olti oydan oshmagan qarz oluvchilarga daromad olishga yo'naltirilgan kreditlar ajratishda *DTI* talablarini qo'llamaslik imkoniyati berildi. Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlar hamda ta'lim kreditlari bo'yicha mazkur talablar tatbiq etilmasligi belgilandi.

Makroprudensial siyosat asoslarini takomillashtirish doirasida tizimli xatarlarni aniqlash uchun qo'shimcha tahliliy modellar ishlab chiqildi.

Shuningdek, bank tizimi bardoshlilikini baholash yo'nalishida makro stress-test vositalari yanada takomillashtirildi.

Moliyaviy barqarorlik holati va xatarlari bo'yicha ma'lumotlar press-relizlar, podkastlar hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

### **Tartibga solish va nazorat**

2025-yilda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishga oid qonunchilik hujjatlarini umume'tirof etilgan xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, moliyaviy xavfsizlik tizimini joriy qilish va bank tizimi barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan muhim islohotlar davom ettirildi.

*2025-yilda banklar kapitalining monandligi va likvidlilik koeffitsiyentlariga doir talablar Bazel III standartiga muvofiqlashtirildi.*

Bunda, bank regulyativ kapitali tarkibiga kiritilishi mumkin bo'lgan kapital elementlari ko'lamini kengaytirilishi bilan bir qatorda ularga nisbatan muvofiqlik mezonlari qat'iylashtirildi. Shuningdek kapital monandligi ko'rsatkichida inobatga olinuvchi tavakkalchiliklar (*kredit, bozor va operatsion*) hisob-kitobining tartibi takomillashtirildi.

Shu bilan birgalikda, likvidlilik ko'rsatkichlari — likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (*LCR*) va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (*NSFR*) hisob-kitobi tartibi qayta ko'rib chiqildi hamda yuqori likvidli aktivlar tarkibi kengaytirildi. Ushbu o'zgartirishlar banklarning qisqa va uzoq muddatli likvidlilik buferlari to'g'ri baholanishini ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, banklar tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlari moliyalashtirilishini rag'batlantirish maqsadida kredit tavakkalchiligi hisob-kitobida bitta kichik tadbirkorlik subyektiga berilgan kreditlarga nisbatan pasaytirilgan tavakkalchilik darajasi (75%) qo'llanishi mumkin bo'lgan limit 300 mln so'mdan 15 mlrd so'mgacha oshirildi. Shuningdek, tadbirkorlarga 15 mlrd so'mgacha berilgan kreditlar bo'yicha kafolatlash tashkiloti kafolatlarning tavakkalchilik darajasi 50 foiz etib belgilandi.

Shuningdek, bankka aloqador shaxslar bilan bog'liq konsentratsiya tavakkalchiliklarini kamaytirish maqsadida bankka aloqador bitta shaxsga hamda barcha shaxslarga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng ko'p miqdorlariga doir talablar qat'iyashtirildi.

Alohida ta'kidlash o'rinliki, yangi tashkil etilgan moliyaviy institut — mikromoliya banklari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, mikromoliya banklariga nisbatan prudensial normativlar, shuningdek ularda korporativ boshqaruv va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari, tashqi va ichki audit va boshqa talablar mutanosib darajada tartibga solish va nazorat qilish tamoyilini inobatga olgan holda belgilandi.

2024–2025-yillarda Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki bilan hamkorlikda o'tkazilgan Moliyaviy sektorni baholash dasturi (FSAP) doirasida O'zbekiston bank-moliya tizimi ilk marotaba kompleks baholashdan o'tdi.

Ushbu dastur doirasida 9 ta yo'nalishda baholash ishlari amalga oshirildi. Xususan, O'zbekistonda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimi Bazel qo'mitasining Samarali bank nazorati bo'yicha 29 ta asosiy tamoyilidan 20 tasi bo'yicha "ijobiy" deb baholandi.

Mazkur baholash natijasida Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tomonidan "Moliyaviy tizim barqarorligini baholash" (FSSA), "Moliyaviy sektorni baholash" (FSA) va "Bank nazoratining samarali amalga oshirilishi bo'yicha bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining asosiy tamoyillariga muvofiqligini baholash" (BCP) hisobotlarini chop etish yo'lga qo'yildi hamda ushbu hisobotlarda bank-moliya tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator tavsiyalar berib borilmoqda.

Mazkur hisobotlar hamda baholovchilarning tavsiyalari asosida 2025–2028-yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan "Yo'l xarita"si tasdiqlandi.

#### **Aholi omonatlarini kafolatlash tizimini takomillashtirish**

Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni 2025-yilning 18-fevralida qabul qilindi.

Mazkur qonun xalqaro standartlarga moslashtirilib, unda jismoniy shaxslar bilan birga tadbirkorlik subyektlarining ham omonatlari kafolatlanishi belgilandi. Bunda bir bankda bir omonatchining milliy va chet el valyutasidagi kafolatlangan omonatlari bo'yicha

to'lanadigan kompensatsiyaning umumiy miqdori, omonatlarning valyutasi va hajmidan qat'i nazar, 200 mln so'mdan oshmagan miqdorni tashkil etadi.

Shu bilan birga, Qonunda bank tugatilgan taqdirda kompensatsiyalarni to'lashni boshlash muddati bosqichma-bosqich 7 ish kunigacha qisqartirilishi belgilandi.

Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi negizida Omonatlarni kafolatlash agentligi tashkil etildi.

Agentlik faoliyati Paybox Plus modeli asosida tashkil etildi. Shu doirada riskka asoslangan kalendar badallar tizimi joriy qilinib, stress-test o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Agentlikda HR BP modeli asosida kadrlar boshqaruvi joriy etildi hamda ichki audit, komplayens va tavakkalchiliklarni boshqarishni qamrab olgan uch bosqichli nazorat tizimi shakllantirildi. Shuningdek, Agentlik IADI hamda uning mintaqaviy qo'mitalari doirasida faol ishtirok etib, 12 ta davlatning depozitlarni sug'urtalash tashkilotlari bilan hamkorlik memorandumlarini imzoladi.

2025-yilda jami 1,6 trln so'm kalendar badallar undirilib, Omonatlarni kafolatlash jamg'armasi hajmi 6,8 trln so'mga yetdi (*yillik o'sish — 49,4%*). Ushbu o'sishning 57 foizi kalendar badallar, 43 foizi esa investitsiya daromadlari hisobiga ta'minlandi.

Jamg'arma mablag'larining asosiy qismi davlat qimmatli qog'ozlari (77,9%) va banklar depozitlariga (20%) joylashtirildi. Investitsiya faoliyati natijasida 960 mlrd so'm daromad olindi.

Agentlikni raqamli transformatsiya qilish doirasida KOICA granti (350 ming dollar) hisobidan Boshqaruv-axborot tizimi

(MIS)ni ishlab chiqish ishlari boshlandi. Jahon banki ekspertlari tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan "Yo'l xarita"si doirasida institutsional salohiyatni mustahkamlash va faoliyatni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish choralari amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, 2025-yilda amalga oshirilgan islohotlar omonatlarni kafolatlash tizimining institutsional asoslarini mustahkamlab, uning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

### **Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish**

Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda biznesni moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish maqsadida qator yangi institutlar tashkil etildi.

Xususan, "mikromoliya tashkiloti — mikromoliya banki — tijorat banki" zanjirini bog'lovchi bo'g'in sifatida mikromoliya banki instituti joriy etildi. Mikromoliya banklari belgilangan cheklovlarni inobatga olgan holda bank faoliyatini (*kreditlarni 5 mlrd so'mdan oshmagan miqdorda ajratishni, jismoniy shaxslardan omonatlarni kafolatlangan miqdor doirasida jalb qilishni*) amalga oshiradi.

Shuningdek, bank kreditlariga muqobil bo'lgan moliyalashtirishni amalga oshiruvchi faktoring tashkilotlarini tashkil etishning huquqiy asosi yaratildi. Faktoring tashkilotlari pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalashtirish faoliyati bilan shug'ullanadi.

Bundan tashqari, kafolatlar berish tashkiloti instituti joriy etildi. Mazkur tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarning kredit tashkilotlari oldidagi pul majburiyatlarini bajarish bo'yicha kafolatlar (*kafilliklar*) berish faoliyatini professional asosda amalga oshiradi.

### **Banklarni sanatsiya qilish**

2025-yilda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, jumladan prudensial nazorat hamda makroprudensial siyosat vositalarini takomillashtirish bilan bir qatorda, banklardagi to'lovga qobiliyatsizlik holatining moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sirini kamaytirish mexanizmlarini yaratish bo'yicha ishlar davom ettirildi.

Xususan, ilg'or xorijiy amaliyot hamda Moliyaviy barqarorlik kengashi (*MBK*) standartlariga asoslangan "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining O'RBQ-1070-sonli Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonun bilan banklarni sanatsiya qilish maqsadlari va tamoyillari, sanatsiya qilish vositalari, sanatsiya qilishni moliyalashtirish mexanizmlari, Markaziy bankning sanatsiya qilish bo'yicha vakolatlari, Moliyaviy barqarorlik kengashi faoliyati bilan bog'liq qoidalar, shuningdek banklarni ixtiyoriy va majburiy tugatish tartibi belgilandi.

### **O'zbekistonda islomiy bank faoliyati uchun huquqiy asos yaratish**

O'zbekistonda banklar tomonidan islomiy moliya xizmatlarini ko'rsatishga huquqiy asos yaratish maqsadida Markaziy bank tomonidan mahalliy va xorijiy ekspertlar bilan birgalikda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini

joriy qilishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Mazkur qonunda islomiy bank faoliyatini litsenziyalash tartibini belgilash, Markaziy bank va tijorat banklarida islomiy moliya kengashlarini tashkil qilish, islomiy moliya standartlarini joriy qilish, banklar tomonidan amalga oshiriladigan islomiy moliya operatsiyalarini belgilab berish, islomiy moliya xizmatlarini soliqqa tortish va islomiy bank faoliyatini tartibga solishga qaratilgan boshqa qoidalar nazarda tutilgan.

### **Nasiya savdo bozori ishtirokchilarini tartibga solish**

Hisobot yilida O'zbekistonda nasiya savdo (*BNPL*) bozori ishtirokchilarini tartibga solish bo'yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar amalga oshirish boshlandi.

Nasiya savdo xizmatlarini litsenziya asosida amalga oshirish, shuningdek sohani tartibga soluvchi qonunchilik talablarini xalqaro tajriba asosida ishlab chiqish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.

Markaziy bank tomonidan KPMG auditorlik tashkiloti vakillari moderatorligida nasiya savdo bozorini tartibga solishda samarali nazorat mexanizmlarini joriy qilish maqsadida bozor ishtirokchilari, tijorat banklari, mikromoliya tashkilotlari, kredit byurolari hamda boshqa manfaatdor tomonlar ishtirokida davra suhbatlari va o'rganishlar o'tkazib borilmoqda.

Muhokamalar natijasida bozorni dastlab "yengillashtirilgan" nazorat mexanizmlari orqali tartibga solish maqsadga muvofiq deb topildi. Shu asosda xorijiy tajriba,

xususan Singapur amaliyoti o'rganilib, O'zbekiston FinTex Assotsiatsiyasi va bozor ishtirokchilari hamkorligida nasiya savdo bozori uchun o'zini o'zi nazorat qilish mexanizmi — Etika kodeksi loyihasi ishlab chiqildi.

Bugungi kunda, nasiya savdo bozori ishtirokchilarini tartibga solish va nazorat qilishda birinchi qadam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nasiya savdo xizmatlari bozori ishtirokchilari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasi tayyorlanmoqda.

### **To'lov tizimlari operatorlari va tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish**

Hisobot yilida to'lov tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish borasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini bajarilishiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan:

- to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlari aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi hamda ustav kapitalining eng kam miqdorlariga yetkazish borasida tegishli ishlar olib borildi;
- to'lov xizmatlarini ko'rsatish davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldini olish va boshqarishni tashkil etish maqsadida litsenziya da'vogari tomonidan antifrod tizimi tavsifi taqdim etilishi qayd etildi;
- Markaziy bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilangan vazifalarni realizatsiya qilish maqsadida "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi Qonunga tegishli o'zgartirish

va qo'shimchalar kiritish yuzasidan Qonun loyihasi ishlab chiqildi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda va belgilangan tartibda Oliy majlisning Qonunchilik palatasiga kiritildi.

### **Mikromoliya banklari va tashkilotlarini nazorat qilish**

Osiyo taraqqiyot bankining "Inklyuziv moliya sektorini rivojlantirish dasturi"ga asosan texnik ko'mak doirasida xalqaro ekspert jalb qilinib, "Mikromoliya banklari uchun tavakkalchilikka asoslangan nazorat qo'llanmasi" ishlab chiqildi.

Mazkur qo'llanma tavakkalchilikka asoslangan nazoratning umumiy jihatlarini hamda risk profili komponentlarini baholash jarayonlarini yoritadi. Xususan, risk profili komponentlari, xususan mikromoliya banki risk-profilini, biznes-modeli, kapitali (*kredit, bozor, foiz va operatsion tavakkalchiliklar*), korporativ boshqaruvi, likvidlilik tavakkalchiliklarini boshqarish tizimini baholash bosqichlari va jarayonlari keltirilgan.

Bundan tashqari, mikromoliya banklari uchun prudensial hisobot shakllari takomillashtirildi. Yangi ishlab chiqilgan hisobot shakllari "Mikromoliya banklarining nazoratiga oid moliyaviy hisobotlari" (23 ta jadval), "Mikromoliya banklarining nazoratiga oid moliyaviy hisobotlariga balans hisobvaraqlari yoyilmasi shakllari" (14 ta jadval) ni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, mikromoliya tashkilotlari faoliyatiga oid 12 ta yangi moliyaviy va nazoratga oid hisobot shakllari ishlab chiqildi.

### Qo'shimcha tartiblar

Shartli deponentlash (*eskrou*) operatsiyalarini amalga oshirish uchun bunday hisobvaraqlarni ochish, shuningdek, IT-Park rezidenti bo'lgan, ta'sischisi norezident bo'lgan yuridik shaxslarga shuningdek, ularning norezident mutaxassislariga qulaylik yaratish maqsadida ularga bank hisobvaraqlari masofadan turib ochish imkoniyati yaratildi va ushbu holatlar "Bank hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga" ga kiritildi.

Bundan tashqari, ushbu yo'riqnomaga muvofiq, 14 yoshgacha bo'lgan shaxslar nomiga milliy va chet el valyutasida depozit hamda metall hisobvaraqlarini qonuniy vakillari orqali ochish, 14-18 yoshli shaxslarga esa hisobvaraqlarni mustaqil ravishda ochish tartibi joriy etildi.

Faktoring va kafolatlar berish tashkilotlari uchun buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi belgilanib, "Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomaga" da kiritildi.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarga bank hisobvaraqlarida qarzdorlik mavjud bo'lgan hollarda ham kommunal xizmatlar (*elektr energiyasi, gaz*) uchun to'lovlarni navbatdan tashqari tartibda amalga oshirish imkoniyati yaratildi.

O'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga korporativ (*biznes*) kartani joriy qilish, shartli deponentlash (*eskrou*) operatsiyalarini amalga oshirish yangi hisobvaraqlar "Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi" kiritildi.

Kiberjinoyatlarning oldini olish maqsadida, jismoniy shaxslarga ochilgan bank kartalarini Bank depozitorlarining milliy axborot bazasida hisobga olinishi yo'lga qo'yildi va kelgusida jismoniy shaxslarning o'zlarining hisobvaraqlari va kartalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishiga zamin yaratildi.

### Nazorat

2025-yilda Markaziy bank tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarni buzgan banklarga nisbatan ayrim operatsiyalarini to'xtatish, jarima sanksiyalari va boshqa ta'sirchan choralar qo'llanib borildi.

Xususan, 2025-yilda Markaziy bank Bank nazorati qo'mitasi qarorlariga asosan 34 ta bank, 15 ta mikromoliya tashkiloti va 8 ta lombardga nisbatan jami 46 mlrd so'm miqdorida jarimalar qo'llanildi.

Bunda, mazkur jarimalarning:

- 12,9 mlrd so'mi yoki 28 foizi iqtisodiy me'yorlar talablari bajarilmaganligi uchun (*26 ta bank va 13 ta nobank kredit tashkilotlariga nisbatan*);
- 20,2 mlrd so'mi yoki 43,5 foizi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bo'yicha o'rnatilgan talablar buzilganligi uchun (*23 ta bank va 8 ta nobank kredit tashkilotiga nisbatan*);
- 9,6 mlrd so'mi yoki 21 foizi banklar tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilinmaganligi uchun (*33 ta bank va 1 ta nobank kredit tashkilotga nisbatan*);
- aniqlangan qoidabuzarliklar uchun 2 ta to'lov tashkilotlariga to'lov xizmatlarining va (*yoki*) operatsiyalarning ayrim turlarini amalga oshirishni, jumladan, elektron shakldagi to'lovlarga ishlov berish va

to'lovni amalga oshirish uchun zarur axborotni bankka berish yoki mazkur to'lovlar bo'yicha pul mablag'larini qabul qilish va pul o'tkazmalari tizimi orqali pul mablag'larini qabul qilish va amalga oshirish 2025-yil 13-noyabrdan boshlab olti oy muddatga cheklandi;

– 3,3 mlrd so'mi yoki 7,2 foizi valyuta sohasidagi qonunchilik talablari buzilishi, kibexavfsizlik va transchegaraviy operatsiyalar bo'yicha talablarga rioya etmaslik, Markaziy bankka haqqoniy bo'lmagan (*noto'g'ri*) ma'lumotlar taqdim etish hamda bank xizmatlari iste'molchilari huquqlari buzilishi uchun (*12 ta bankka nisbatan*) undirilgan.

Markaziy bankning me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablari ta'minlanmaganligi, valyuta mavqeiga o'rnatilgan me'yorlarga rioya qilinmaganligi hamda Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan o'rnatilgan talablar buzilishi sababli 30 ta banklarga, 1 ta mikromoliya tashkilotiga va 21 ta to'lov tashkilotlariga hamda 3 ta to'lov operatorlariga nisbatan ogohlantirish ta'sir choralari qo'llanildi.

### **Kelgusi yillar uchun asosiy yo'nalishlar**

Kelgusi yillarda bank tizimi barqarorligini ta'minlash va moliyaviy sektor bardoshlilikini oshirishga qaratilgan choralar davom ettiriladi. Xususan, riskka asoslangan bank nazoratini yanada takomillashtirish, moliyaviy institutlar faoliyatida risklarni erta aniqlash va monitoring qilish mexanizmlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va bank tizimi chidamliligini oshirish maqsadida xalqaro standartlar, jumladan Bazil III tamoyillarini to'liq joriy etish bo'yicha choralar ko'riladi.

O'z navbatida, 2026-yilda 2026–2030-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi qabul qilinadi.

Shu bilan birga, moliyaviy sektorda davlat ulushini qisqartirish, bank tizimida raqobat muhitini kengaytirish hamda moliyaviy barqarorlikka tahdid soluvchi tizimli risklarni muntazam baholab borish ishlari kuchaytiriladi. Xalqaro moliyaviy sektorni baholash dasturlari (*FSAP*) doirasida berilgan tavsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

## V. TO'LOV TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

2025-yilda Markaziy bank tomonidan to'lov tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, infratuzilmasini takomillashtirish hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirishga qaratilgan ishlar davom ettirildi.

### Markaziy bankning to'lov tizimlari

#### Banklararo to'lov tizimi

2025-yilda Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2024-yilga nisbatan 1,6 barobarga oshib, 11 375 trln so'mni tashkil etdi. Tizim orqali bir kunlik o'rtacha tranzaksiyalar hajmi 2024-yildagi 29,2 trln so'mdan 45,3 trln so'mgacha ko'paydi.

Banklararo to'lov tizimida tranzaksiyalar hajmining o'sishi iqtisodiyotni moliyalashtirish, investitsion faollik hamda pul bozori operatsiyalari kengayishi bilan bog'liq bo'ldi.

2025-yilda ushbu to'lov tizimining ishtirokchilari soni 38 tani tashkil etdi.

Qo'shimcha bir soatlik rejim (17:00-18:00) doirasida tijorat banklari o'rtasida hamda Markaziy bank ishtirokida pul bozori va pul-kredit operatsiyalari o'tkazilib, banklar likvidligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qildi.

Shuningdek, yagona bank kodi (MFO) texnologiyasi asosida faoliyat yurituvchi banklar soni 21 taga yetdi.

Hisobot yilida to'lov tizimining barqaror ishlashi ta'minlanib, ishtirokchilarning elektron to'lovlari belgilangan tartibda o'z vaqtida amalga oshirildi.

#### Hisob-kitoblar kliring tizimi

Hisobot yilida jismoniy va yuridik shaxslarning chakana to'lovlari real vaqt rejimida o'tkazishga ixtisoslashgan Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi faoliyatining uzluksizligi ta'minlandi.

2025-yilda Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi 126,5 trln so'mni (+26%), tranzaksiyalar soni esa 143,5 mln dan ortiqni tashkil etdi (+17%).

Shu bilan birga, mazkur tizim orqali tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qiluvchi tashkilotlar ro'yxatini kengaytirish, mijozlar uchun qulay va sodda to'lov xizmatlarini joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Markaziy bankning Hisob-kitoblar kliring tizimi orqali to'lovlarni qabul qiluvchi idora va tashkilotlar (*xizmatlar taqdim etuvchilar*) soni hisobot yilida 6 taga ko'payib, 50 tadan ortdi. Xususan, O'zbekiston musulmonlari idorasi (*xaj va umra to'lovlari*), Ijtimoiy himoya milliy agentligi (*ijtimoiy to'lovlari*), Agrosanoatni raqamlashtirish markazi (*agrosanoat xizmatlari to'lovlari*), Bojxona qo'mitasining davlat chegarasidagi elektron navbatlar xizmatlari uchun to'lovlar va boshqa tashkilotlarning ushbu tizimiga ulanishi ta'minlandi.

To'lov xizmatlari bozorida aholi uchun qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida joriy etilgan, vositachilik haqini aholidan emas, mablag' oluvchilar (*benefitsiarlar*) hisobidan undirish mexanizmi<sup>6</sup> samarali ishlab kelmoqda.

2025-yil davomida jami 106,5 mln dan ortiq to'lovlar bo'yicha qariyb 261,7 mlrd so'm (+43%) mablag'lar to'lov xizmati uchun vositachilik haqi (*komissiya*) tarzida banklar va boshqa to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilarga to'lab berildi. Natijada aholining kommunal to'lovlar, davlat bojlari va jarimalar, davlat xizmatlari to'lovlari hamda boshqa chakana to'lovlari bo'yicha ushbu miqdordagi vositachilik haqini to'lashi bilan bog'liq xarajatlari iqtisod qilindi.

### Tezkor to'lovlar tizimi

Hisobot yilida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga to'lov operatsiyalarini tunu-kun "24/7" rejimida onlayn amalga oshirish imkonini beruvchi Markaziy bank Tezkor to'lovlar tizimining barqaror faoliyati ta'minlandi.


2025-yilda tizim orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni o'tgan yilga nisbatan 30 foizga oshib 61 mln tani, to'lovlar hajmi esa 51 foizga oshib 1 390 trln so'mni tashkil etdi. Tizimdan foydalanishning kengayishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov hujjatlarining 95 foizi masofadan amalga oshirildi.

Ta'kidlash joizki, amalga oshirilgan tranzaksiyalarning 33 foizi kechki va tungi vaqt hissasiga to'g'ri keldi.


G'aznachilik (*xarajatlarini, ish haqi, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni bank ish kuniga bog'liq bo'lmagan holda*) va Markaziy bank tizimida xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar to'lovlarini 24/7 rejimida Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirish imkoniyati yaratilishi natijasida tizim orqali o'tkazilayotgan amaliyotlar ko'lamini oshirib bormoqda.

Xususan, 2025-yilda G'aznachilik tizimidagi byudjet tashkilotlaridan va Markaziy bank tizimidagi korxonalar tomonidan 191,7 trln so'mlik (+68%) to'lovlar amalga oshirildi.


5.1-rasm. Banklararo to'lov tizimi orqali tranzaksiyalar hajmi



5.2-rasm. Hisob-kitob kliring tizimi orqali tranzaksiyalar



5.3-rasm. Tezkor to'lovlar tizimi orqali tranzaksiyalar



Manba: Markaziy bank

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-martdagi "Aholi tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida" PQ-88-sonli Qarori.

## Moliyaviy texnologiyalar va to'lov tashkilotlari faoliyati

2025-yilda naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirish maqsadida bank kartalariga asoslangan chakana to'lov infratuzilmasini kengaytirish va uning samarali ishlashini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish ko'lamining kengayishi bank kartalariga bo'lgan talabning ortishi bilan kechishi kuzatilmoqda. Xususan, 2025-yilda muomaladagi bank kartalari soni 68,2 mln donaga (+10%) yetdi. Kobeyjing bank kartalari<sup>7</sup> soni 1,4 barobarga oshib, 6,5 mln donani tashkil etdi.

430 mingta to'lov terminallari orqali qabul qilingan to'lovlar hajmi 1,4 barobarga o'sib, 460,3 trln so'mga yetdi.

To'lov xizmatlaridan foydalanuvchilariga qulayliklar yaratish maqsadida bank infratuzilmalari hamda turizm obyektlariga o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni hisobot yilida 34 foizga oshib, 2026-yil 1-yanvar holatiga 40 mingdan ortiqni tashkil etdi.

O'z navbatida, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmalarining (*bankomat, infokiosk va avtomatlashtirilgan depozit mashinalarini*) turistik massivlar, yirik infratuzilma markazlari va boshqa muhim ijtimoiy infratuzilma obyektlarida o'rnatilishiga alohida e'tibor qaratildi.

"HUMO" va "Uzcard" to'lov tizimlari bankomat tarmoqlarining o'zaro integratsiya qilinishi bank kartalari foydalanuvchilari uchun infratuzilmadan muqobil foydalanish imkoniyatini

bermoqda. Hisobot yilida, bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 344 trln so'mni, tranzaksiyalar soni esa 291,8 mln tani tashkil etdi.

### Mobil to'lovlar

2025-yilda banklarning mobil ilovalari orqali jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan onlayn operatsiyalar hajmi 1,6 barobarga oshib, 645,6 trln so'mni tashkil etdi (5.4-rasm).

Shu jumladan, onlayn depozit operatsiyalari hajmi 99,3 trln so'm, onlayn konversiya amaliyotlari — 55,8 trln so'm, onlayn mikroqarzarlar — 38,6 trln so'm va kreditlarni so'ndirish — 46,7 trln so'mni tashkil etdi.

Aholi uchun bazaviy bank xizmatlarini (*omonat va konversiya amaliyotlari, mikroqarzar olish, bank kartasiga buyurtma berish, identifikatsiyadan o'tish*) onlayn rejimda bajarish imkoniyati, tadbirkorlik subyektlari uchun esa to'lovlarni hisob-kitob terminallaridan tashqari QR-kod, NFC va boshqa kontaktsiz to'lov texnologiyalarini qo'llagan holda qabul qilish xizmatlari ko'lami kengaytirib borildi.

Xususan, 2025-yilda "QR-online" axborot tizimi tomonidan tadbirkorlik subyektlariga taqdim qilingan QR-kodlar soni qariyb 139 ming donaga yetkazilib, unda amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2024-yilga nisbatan qariyb 1,4 barobarga ortdi (5.5-rasm).

Shu bilan birga, kontaktsiz to'lov texnologiyasini kengaytirish doirasida "HUMO PAY" dasturi orqali bank kartasidan bevosita foydalanmasdan

<sup>7</sup> Respublika va xorijiy to'lov tizimlari infratuzilmasida bir karta orqali hisob-kitoblarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi bank kartasi.

savdo hamda pullik xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish xizmati 20 ta bankning mobil ilovalari orqali ko'rsatib kelinmoqda.

Kontaksiz to'lov xizmatlarini rivojlantirish doirasida joriy etilgan Tap-to-phone<sup>8</sup> xizmatlaridan foydalanuvchi subyektlar soni 2026-yil 1-yanvar holatiga qariyb 4,1 ming taga yetdi.

2025-yilda NFC texnologiyasi asosida amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2024-yilga nisbatan 1,4 barobarga oshib, 61,1 trln so'mni tashkil etdi.

2025-yilda to'lov tashkilotlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 412,4 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 24 foizga oshdi. Jismoniy shaxslar tomonidan asosan kommunal xizmatlar (24,7 trln so'm), davlat xizmatlari (16,7 trln so'm), byudjet va soliq to'lovlari (11,8 trln so'm), mobil aloqa xizmatlari (11,2 trln so'm) hamda kredit to'lovlari (10,4 trln so'm) amalga oshirildi.

## Elektron pullar


To'lov xizmatlari bozorida elektron pullar tizimlarining joriy etilishi naqd pulsiz hisob-kitoblarning rivojlanishiga xizmat qilib, foydalanuvchilar uchun to'lov xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

2026-yil 1-yanvar holatiga elektron pullar tizimlari soni 12 tani tashkil etib, elektron hamyonlar soni 24,8 mln taga (+20%) yetdi.


Elektron pullar tizimlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni 2024-yilga nisbatan 1,6 barobarga oshib 24,6 mln tani, tranzaksiyalar hajmi esa 1,2 trln so'mni tashkil etdi.

Elektron hamyon egalari tomonidan o'tkazilgan tranzaksiyalarning 89 foizi tadbirkorlik subyektlariga tovar va xizmatlar uchun hisob-kitoblarga hamda 11 foizi jismoniy shaxslarga mablag' o'tkazishga yo'naltirilgan.

5.4-rasm. Mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar, trln so'mda



5.5-rasm. QR-online tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar



Manba: Markaziy bank

<sup>8</sup> To'lov terminali kabi to'lov qabul qilish imkonini beradi

Elektron pullar vositasida amalga oshirilgan to'lovlarning 28 foizi kommunal xizmatlar, 19 foizi mobil operator xizmatlari, 18 foizi davlat va soliq xizmatlari uchun to'lovlar, 8 foizi joyda xaridlar uchun to'lovlar, 6 foizi kredit so'ndirishga yo'naltirilgan to'lovlar va boshqa xizmatlar uchun o'tkazilgan to'lovlarni tashkil etadi.

Aholi uchun qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida xarid bilan bir vaqtda bank kartalari orqali naqd pul olish xizmati virtual kassa tarmog'i bilan ta'minlangan "Paynet" AJning respublika bo'ylab barcha hududlardagi to'lov agentlari tomonidan "tartibga solish qumdoni" doirasida ko'rsatilishiga ruxsat berildi. 2025-yilda "Paynet" AJ to'lov tashkilotining to'lov agentlari orqali 1,2 trln so'mlik (1,8 mln ta tranzaksiya) naqd pul mablag'larini berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatildi.

### **Kelgusi yillar uchun asosiy yo'nalishlar**

Kelgusi yillarda to'lov tizimlarini rivojlantirish va ularning xavfsiz hamda uzluksiz faoliyatini ta'minlashga qaratilgan choralar davom ettiriladi. Bunda to'lov infratuzilmasini modernizatsiya qilish va moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish, naqdsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda Markaziy bank raqamli valyutasini joriy etish imkoniyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi.

## VI. TADQIQOTLAR, TAHLIL VA MA'LUMOTLARNI BOSHQARISH

### Markaziy bankda tahlil va tadqiqotlar

#### Tadqiqot maydoni

Hisobot yilida iqtisodiyot, moliya, davlat siyosati va barqaror rivojlanish sohalaridagi ilmiy va amaliy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi, hamkorlik, muloqot va bilim almashuviga asoslangan, ochiq intellektual muhitni yaratish maqsadida "Tadqiqot maydoni" Konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Maydon faoliyati orqali amaliy ahamiyatga ega muammolarni tadqiq etish, ular bo'yicha yechim takliflarini shakllantirish hamda davlat siyosatini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilish jarayonlarini ilmiy yondashuv va tadqiqot natijalari bilan qo'llab-quvvatlash ko'zda tutiladi.

Maydonning asosiy formatlari — bu akademik doiralar bilan qo'shma tadqiqotlar, tadqiqot grantlari va stipendiya dasturlari, yoshlar uchun "Markaziy bank tanlovi" hamda ilmiy konferensiyalardir.

*2025-yilda Markaziy bank Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bilan o'zaro anglashuv memorandumini imzoladi.*

2025-yil dekabr oyida oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida makroiqtisodiy tahlil, prognozlashtirish va pul-kredit siyosatini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan respublika miqyosidagi "Markaziy bank tanlovi" (CBU Challenge) musobaqasiga start berildi.

Respublikaning 33 ta oliy ta'lim muassasasidan 3–4-bosqich bakalavr va magistrantlardan iborat 4–5 nafarlik jami 144 ta jamoa tanlovda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tdi.

Shuningdek, hisobot yilida Markaziy bank huzurida xorijiy va mahalliy moliya institutlari hamda universitetlarda ilmiy faoliyat yuritayotgan ekspertlar va professorlardan iborat bo'lgan Tadqiqot kengashi tashkil etildi.

Bundan tashqari, Markaziy bankning har ikki yillik tadqiqotlar dasturini e'lon qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Mazkur to'plam Markaziy bankning asosiy vazifalari, strategik maqsadlari hamda ustuvor tadqiqot yo'nalishlari, mamlakatda amalga oshirilayotgan umumiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari, global iqtisodiy, moliyaviy va texnologik tendensiyalar hamda moliya-iqtisod sohasidagi dolzarb muammolar va yangi fenomenlarni qamrab oluvchi mavzular joy olgan.

Markaziy bank veb-saytida alohida "Tadqiqotlar" bo'limi ochilib, u yerda Tadqiqot kengashi, Tadqiqotlar dasturi, qo'shma tadqiqotlar va Tadqiqot maydonining boshqa yo'nalishlari to'g'risida ma'lumot berilib bormoqda.

#### Amalga oshirilgan tadqiqotlar

2025-yilda jami 20 ta tadqiqot ishi amalga oshirildi. Shundan 9 tasi Markaziy bank veb-saytida e'lon qilinib, tadqiqot mavzusidan kelib chiqqan holda tegishli vazirlik va idoralarga yuborildi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar inflyatsiya va narxlar, moliya bozori, tashqi iqtisodiy faoliyat va global iqtisodiyot, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari hamda norasmiy kabi yo'nalishlarni qamrab oldi. Mazkur tadqiqotlar xulosalari pul-kredit, valyuta, bank nazorati siyosatlari bo'yicha qarorlar qabul qilishda foydalanilmoqda.

Xususan, narxlar va inflyatsion omillar yo'nalishida farmatsevtika, non, sut, go'sht va kartoshka mahsulotlari bozorlarida narx shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganildi. Tahlilda xomashyo narxlari, logistika va infratuzilma xarajatlari, raqobat muhiti hamda davlat tartibga solish choralarining ta'siri baholanib, tegishli takliflar ishlab chiqildi.

Shuningdek, kreditlar muddatlarining inflyatsiya dinamikasiga ta'siri tahlil qilinib, qisqa muddatli kreditlarning inflyatsiyaga ehtimoliy bosimi aniqlandi.

Moliyaviy barqarorlik yo'nalishida:

– “Kredit xatarlarini kamaytirishda qo'llaniladigan makroprudensial choralar: davlatlar tajribasi va O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari” mavzusidagi tadqiqotda turli mamlakatlarda kredit risklarini cheklash uchun qo'llaniladigan makroprudensial instrumentlar tahlil qilinib, ularning O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari hamda moliyaviy barqarorlikka ta'siri baholandi;

– “O'zbekistonda nasiya bozori tahlili: ushbu xizmatlar haqiqatdan ham foizsizmi?” mavzusidagi tadqiqotda nasiya savdosi bozorining holati va faoliyat yuritish mexanizmi tahlil qilinib, ushbu segmentni tartibga solish bo'yicha xalqaro tajriba o'rganildi.

Real sektor yo'nalishida:

– iqtisodiyotga ajratilgan moliyaviy resurslarning tarmoqlar kesimida taqsimlanishi samaradorligi hamda ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri baholandi;

– “O'zbekiston uy-joy bozori tahlili: kutilma va xatarlar” mavzusidagi tadqiqotda uy-joy bozorining dinamikasi, narxlar o'sishi va ipoteka kreditlashning roli o'rganildi. Shuningdek, bozordagi potensial makroiqtisodiy xatarlar tahlil qilindi.

Yashirin iqtisodiyot va mehnat bozori yo'nalishida:

– tadbirkorlik subyektlarining elektr energiyasi iste'moli ma'lumotlari asosida norasmiy iqtisodiyot ko'lami muqobil usulda baholandi;

– BMT Taraqqiyot dasturi va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bilan hamkorlikda “O'zbekistonda norasmiy bandlik” mavzusida qo'shma tadqiqot amalga oshirilib, unda norasmiy bandlik darajasi va uning asosiy omillari tahlil qilindi hamda olingan xulosalar bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan fikr almashildi.

Bundan tashqari, rasmiy statistikaga muqobil tezkor ma'lumotlarni olish maqsadida real sektor korxonalari o'rtasida so'rovlar o'tkazilib, “Iqtisodiy faollik indeksi” va “Iqtisodiy kutilmalar indeksi” shakllantirib borildi.

## Ma'lumotlarni boshqarish va ular bilan ishlash

### Pul-kredit va moliyaviy statistika

Hisobot yilida pul-kredit va moliyaviy statistikani shakllantirish amaliyotini eng so'nggi xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda e'lon qilinadigan statistik ma'lumotlarning sifati va ko'lamini oshirish choralari ko'rib borildi.

Xususan, XVJning "Davlat ulushi mavjud moliyaviy korxonalarining davlat sektoriga tasniflash" mavzusidagi texnik missiyasi (*onlayn*) doirasida pul-kredit va moliyaviy statistikasida qamrab olingan 378 ta moliyaviy tashkilotning sektoral tasnifi eng so'nggi xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqildi. Olingan tavsiyalar moliyaviy statistikani shakllantirish amaliyotiga to'liq joriy qilindi.

Shuningdek, Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda bank bo'lmagan moliyaviy tashkilotlar tomonidan "Boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi"ni shakllantirish uchun taqdim etiladigan choraklik hisobotlarni qabul qilishga mo'ljallangan yagona markazlashgan platforma yaratildi.

Mazkur platformaga kirish One ID tizimi orqali amalga oshirilib, hisobotlarni dastlabki nazoratdan o'tkazuvchi mantiqiy amallar va anomalayani tekshirish operatsiyalari joriy qilindi.

Bundan tashqari, foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlar qabul qilishlarida zarur bo'lgan yangi turdagi ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida Markaziy bankning Statistik byulleteni ham takomillashtirildi.

*Tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnom natijalariga ko'ra, ularning 93 foizga yaqini Markaziy bank tomonidan e'lon qilinadigan iqtisodiy ko'rsatkichlar va tahliliy sharhlarni kuzatib boradi.*

*Tadbirkorlar uchun biznes qarorlar qabul qilishda eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida inflyatsiya darajasi (27,9%), kredit foiz stavkalari (15,1%) va valyuta almashuv kursi (13,6%) qayd etildi.*

Aholi va tadbirkorlik subyektlarini iqtisodiyotda shakllangan foiz stavkalari va ularning dinamikasi haqida to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini hisoblash metodologiyasi takomillashtirildi.

Xususan, kreditlar va depozitlar bo'yicha nominal foiz stavkalari bilan bir qatorda real foiz stavkalarini oylik hisoblash va Markaziy bankning veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, bank bo'lmagan moliyaviy tashkilotlarning barqaror o'sib borayotgan moliyaviy aktivlari, kapital bazasi va iqtisodiyotga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari hajmi hamda ularning moliya tizimidagi roli mustahkamlanib borayotganligini tizimli ravishda yoritish maqsadida yangi "Boshqa moliyaviy tashkilotlar sharhi"ni (*bank bo'lmagan moliyaviy tashkilotlar sharhi*) davriy ravishda e'lon qilib borilmoqda.

### Tashqi sektor statistikasi

Hisobot yilida tashqi sektor statistikasini shakllantirishni takomillashtirish maqsadida Milliy statistika qo'mitasi bilan hamkorlikda Xalqaro valyuta jamg'armasining texnik ko'mak missiyasi jalb qilindi. Missiya doirasida tashqi savdo

va xalqaro investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va e'lon qilish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, Markaziy bank tomonidan Koreya bankining o'zaro bilimlar almashinuvi dasturi (*Knowledge Partnership Program — KPP*) doirasida Koreyaning Xongik va Donguk universitetlari bilan hamkorlikda O'zbekiston tashqi sektori ko'rsatkichlari asosida "O'zbekistonda to'lov balansi dinamikasi: asosiy belgilovchi omillar, tizimli xatarlarni baholash va ularning oldini olish bo'yicha choralarning keng qamrovli tahlili" mavzusida qo'shma ilmiy-tadqiqot ishi amalga oshirildi.

Mazkur tadqiqot doirasida so'nggi o'n yilda O'zbekiston tashqi sektorida kuzatilgan o'zgarishlar kompleks va tizimli ravishda tahlil qilindi, joriy operatsiyalar hisobi nomutanosibliklarining iqtisodiy mohiyati baholandi hamda to'lov balansi bilan bog'liq xatarlarni oldini olish bo'yicha, jumladan Koreya tajribasiga tayangan holda, iqtisodiy siyosatga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

### **Ma'lumotlarni boshqarish**

Markaziy bankda nazorat texnologiyalarini (*SupTech*) joriy etish maqsadida ma'lumotlarni markazlashgan holda boshqarishni ta'minlovchi ADR tahliliy axborot tizimini joriy etish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Loyihani amalga oshirish doirasida xalqaro konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan "Markaziy bankning ADR tahliliy axborot tizimini joriy qilish bo'yicha texnik topshiriq" loyihasi ishlab chiqildi.

Jahon banki ekspertlarining tavsiyalari, xorijiy tajriba hamda bozor tahlili natijalariga tayangan holda takomillashtirilgan texnik topshiriq loyihasi tasdiqlandi hamda tegishli tashkilotlardan ijobiy xulosalar olindi.

Shu bilan birga, Markaziy bankning nazorat ostidagi tashkilotlarda statistik, moliyaviy va nazorat hisobotlarini yig'ishning yangi formatiga o'tish doirasida ma'lumotlarni boshqarish tizimini takomillashtirish va hisobotlar sifatini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi.

Xorijiy tajriba va ekspertlar tavsiyalari asosida har bir bankda ma'lumotlarni boshqarish bo'yicha bosh direktor (*CDO*) lavozimi joriy etilib, uning asosiy vazifalari va malaka talablari belgilandi.

Shuningdek, Markaziy bankda statistik, moliyaviy va nazoratga doir tahliliy salohiyatni oshirish maqsadida "Qlik Sense" BI biznes-tahliliy vositasi amaliyotga tatbiq etildi.

### **Kredit axborotining davlat reyestri va kredit byurolari faoliyati**

Kredit axboroti almashinuvi tizimi Markaziy bankning Kredit axborotining davlat reyestri, "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosi (*KATM*) hamda "CRIF Kredit-axborot xizmatlari" kredit byurolarini qamrab oladi.

Kredit axborotining davlat reyestrda tijorat banklariga kredit (*lizing, faktoring va bank kafolatlari*) bo'yicha kelib tushgan buyurtmalar, tuzilgan bitimlar va ular bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi.

2026-yil 1-yanvar holatiga qarzdorligi mavjud bo'lgan amaldagi bitimlar soni 2025-yil boshiga nisbatan 22,8 foizga oshib, 9,2 mln ta, qarzdorlar soni esa 11,6 foizga o'sib, 5,5 mln nafardan oshdi.

2026-yil boshiga qarzdorlar tarkibining 94,2 foizini jismoniy shaxslar, 5,8 foizini esa yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil etdi. Jismoniy shaxs qarzdorlarining 54,5 foizi erkaklar, 45,5 foizi ayollardan iborat (6.1-rasm).

Qarzdorligi mavjud bo'lgan amaldagi bitimlar soni kredit turlari bo'yicha tasniflanganda, o'tgan yilga nisbatan kredit kartalari soni 1,4 barobarga, mikroqarzlarni soni 30,3 foizga, ta'lim kreditlari soni 14,2 foizga, mikrokreditlarni soni 11,2 foizga va ipoteka kreditlari soni 8,9 foizga ko'paygan (6.2-rasm).


2025-yilda Kredit reyestri ma'lumotlari akkreditivlar va faktoring operatsiyalari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar bilan kengaytirildi.

Shuningdek, nobank kredit tashkilotlari (*mikromoliya tashkilotlari va lombardlar*) bo'yicha kredit portfeli, ajratilgan va so'ndirilgan kreditlar hamda qarz yuki ko'rsatkichlari to'g'risidagi hisobotlarni avtomatik shakllantirish mexanizmi joriy etildi.


Ma'lumotlar sifatini ta'minlash maqsadida kredit axboroti inventarizatsiya qilinib, aniqlangan xatoliklar tijorat banklari bilan hamkorlikda bartaraf etildi. Shuningdek, nobank kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlardagi xatoliklarni kamaytirish uchun mantiqiy nazorat mexanizmlari ishlab chiqilib, dasturiy ta'minotga joriy qilindi.

2026-yil 1-yanvar holatiga KATM kredit byurosi bazasida kredit axboroti subyektlariga (*jismoniy va yuridik shaxslar*) oid ma'lumotlar soni 16,7 mln tani tashkil etib, shundan 16,1 mln tasi jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

6.1-rasm. Kredit qarzdorligi mavjud jismoniy shaxslar soni, ming nafarda



6.2-rasm. Jismoniy shaxslarning amaldagi kredit bitimlari ulushi, foizda



2025-yilda kredit axboroti almashinuvi bo'yicha shartnoma tuzgan foydalanuvchilar (*tijorat banklari, mikromoliya, lombard, lizing, sug'urta va reteyl tashkilotlar*) soni 72 taga oshib, 845 taga, kredit axborotini yetkazib beruvchilar soni esa 71 taga ko'payib, 848 taga yetdi.

KATM kredit byurosi tomonidan bank va nobank tashkilotlarga 65 turdagi kredit hisobotlari va xizmatlar taqdim etilmoqda. Shundan 15 tasi byuroning ichki xizmatlari, 50 tasi esa vazirlik va idoralar ma'lumotlariga asoslangan tashqi servislar bo'lib, ular asosan "Raqamli hukumat" platformasi orqali taqdim etiladi.

2025-yil davomida bank va nobank tashkilotlar tomonidan KATM kredit byurosidan jami 177,6 mln ta kredit hisobotlari olingan bo'lib, shundan 79,2 foizi tijorat banklari, 19,5 foizi nobank kredit tashkilotlar (*mikromoliya, lombard, lizing, sug'urta, reteyl tashkilotlar va boshqalar*) va 1,3 foizi jismoniy va yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keladi.

KATM kredit byurosi tomonidan kredit hisobotlari ommabopligini oshirish va foydalanuvchilar uchun qulayliklarni kengaytirish maqsadida 2025-yilda:

- kredit tarixini shakllantirish mexanizmi takomillashtirildi. Yangi tartibga ko'ra, kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sanadan keyin kredit axboroti 5 yil saqlanishi belgilandi;
- "Kreditga taqiq" xizmati joriy qilinib, fuqarolarga o'z nomiga kredit

rasmiylashtirishni taqiqlash yoki bekor qilish imkoniyati veb-sayt, mobil ilova, my.gov.uz portali va Davlat xizmatlari markazlari orqali bepul taqdim etildi<sup>9</sup>;

– amaldagi xizmatlar negizida "Kredit monitoringi" xizmati joriy etildi;

– qarzdorning amaldagi kreditlari, qarz qoldiqlari va hisob raqamlari to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab olgan "Hisob raqamlar bo'yicha kredit hisoboti" amaliyotga tatbiq etildi;

– kredit hisobotlari haqqoniyligini tasdiqlovchi QR-kod tizimi joriy qilindi;

– KATM kredit byurosining rasmiy Telegram-boti ishga tushirildi.

### **Garov reyestri**

Garov reyestri tizimi moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda kreditorlarning mulkka nisbatan talab huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hisobot yilida reyestr faoliyatini takomillashtirish doirasida:

– Markaziy bankning likvidlik operatsiyalari bo'yicha garovga olingan aktivlar uchun tegishli platformalar integratsiya qilinib, garov reyestriga avtomatik yozuv kiritish mexanizmi joriy etildi;

– elektron faktoring platformalari bilan integratsiya orqali hisob-fakturalar bo'yicha ma'lumotlar kiritish va qidirish imkoniyati yaratildi;

– Oliy sud va Majburiy ijro byurosi axborot tizimlari orqali garov reyestri xizmatlaridan foydalanish;

<sup>9</sup> Mazkur xizmatni joriy etgani uchun KATM kredit byurosi "ICTWeek Uzbekistan – 2025" haftaligi doirasida "O'zbekistonda 2025-yilning eng foydali davlat xizmatini joriy etgan tashkilot" sifatida yuksak e'tirof etildi

– foydalanuvchilarga veb-sayt orqali yozuvlarni ro'yxatdan o'tmasdan qidirish imkoniyati yaratildi.

Hisobot yilida garov reyestri xizmatlaridan foydalanish ko'lami sezilarli oshdi.

Jumladan, 2025-yilda reyestrga 746,6 ming yozuv kiritilib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 1,5 barobarga ko'paydi. Shuningdek, banklar va kredit tashkilotlari tomonidan "Notarius" tizimi orqali 675 mingdan ortiq holatda garov mulkiga taqiq qo'yish va yechish xizmatlari amalga oshirildi.

2026-yil 1-yanvar holatiga reyestrda aktiv yozuvlar soni 1,7 mln tani tashkil etdi. Yil davomida 2 mingdan ortiq o'zgartirish kiritilib, 326 mingdan ortiq ko'chirma taqdim etildi va 450 mingga yaqin yozuv reyestrda chiqarildi. Shuningdek, 2025-yilda 146 ta yangi foydalanuvchi ro'yxatdan o'tib, ularning umumiy soni 2 060 taga yetdi.

Shu bilan birga, garov munosabatlarini takomillashtirish va tizimni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ishlari davom ettirildi. Xususan, Xorijiy investorlar kengashi huzuridagi Ishchi guruh<sup>10</sup> doirasida mahalliy va xorijiy ekspertlar ishtirokida garovga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan muhokamalar o'tkazildi.

Ta'kidlash joizki, Jahon bankining "Business Ready (*B-Ready*)" hisobotiga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha garov reyestri faoliyati yuqori baholandi.

### **Kelgusi yillar uchun asosiy yo'nalishlar**

2026-yilda Markaziy bankning tadqiqot faoliyatini rivojlantirish bo'yicha 2026–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilinadi. Tadqiqot kengashiga mustaqil a'zolar jalb qilinadi. Tadqiqot maydoni doirasida ishlar faollashtirilib, mahalliy va xorijiy ilmiy hamkorlik kengaytiriladi.

Ma'lumotlarni boshqarish sohasida ma'lumotlar ko'lami va sifati oshirilib, bozor ishtirokchilari va investorlar uchun zarur ma'lumotlarning taqdim etilishi ta'minlanadi.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi "Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi majlisi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-226-son Qarori

## VII. KOMMUNIKATSION SIYOSAT VA XALQARO HAMKORLIK

### Markaziy bankning kommunikatsion siyosati

#### Markaziy bank kommunikatsiya ekotizimini rivojlantirish

2025-yilda Markaziy bank kommunikatsiya modelini modernizatsiya qilish hamda keng jamoatchilik uchun axborotning ochiqligi va tushunarligini oshirishga qaratilgan kompleks choralarni amalga oshirdi.

Xususan, quyidagi yangi yondashuvlar joriy etildi:

- kontentning yangi formatlari — qisqa videoroliklar, Reels va Bankcast videopodkastlari yoʻlga qoʻyildi. Ular iqtisodiy jarayonlarni sodda va tushunarli tilda tushuntirish imkonini berdi;
- turli yoʻnalishlar boʻyicha tahliliy sharhlar uchun yangilangan yondashuv ishlab chiqildi — materiallar vizual va ommaviy auditoriyaga moslashtirilgan formatda taqdim etila boshlandi;
- OAV bilan hamkorlik kuchaytirildi. Xususan, muntazam va tezkor brifinglar, sohaviy jurnalistlar puli hamda doimiy muloqot yoʻlga qoʻyildi;
- Yangi kommunikatsiya strategiyasi ishlab chiqilib, sezgir axborot holatlariga tezkor javob berish uchun maxsus protokollar joriy etildi;
- nashrlarning yagona vizual uslubi shakllantirildi — ranglar va axborot taqdimoti standartlashtirildi;
- murakkab maʼlumotlarni yanada tushunarli yetkazish maqsadida infografikalardan faol foydalanila boshlandi;

– auditoriya jalb etilishini oshirish uchun qisqa video formatlar va vizual tushuntiruvchi materiallar keng qoʻllanildi.

Ushbu qadamlar raqamli kanallarning barqaror ishlashi va yagona axborot makonini shakllantirishga mustahkam asos yaratdi hamda ochiqlik, tezkorlik va barcha foydalanuvchi guruhlari uchun tushunarlilikka asoslangan yaxlit kommunikatsiya tizimiga oʻtish imkonini berdi.

#### Tahliliy materiallar boʻyicha yagona koʻp tilli kontent toʻplami

Hisobot yilida tahliliy materiallarni keng jamoatchilikka taqdim etish boʻyicha yagona standartlashtirilgan yondashuv joriy etildi. Tadqiqotlar, hisobotlar va sharhlar alohida hujjatlar sifatida emas, balki turli auditoriyalar ehtiyojlariga moslashtirilgan yagona kommunikatsion toʻplam shaklida eʼlon qilina boshlandi. Bu iqtisodiy xulosalarni keng jamoatchilik, bozor ishtirokchilari va xalqaro ekspertlarga yanada tushunarli formatda yetkazish imkonini berdi.

Toʻplam oʻzaro bogʻlangan va auditoriyaga yoʻnaltirilgan quyidagi elementlardan iborat:

- Executive Summary (*asosiy xulosalarning qisqa bayoni*) — ishbilarmon va ekspert auditoriya uchun asosiy natijalar va xulosalarning qisqa bayoni (*oʻzbek va ingliz tillarida*);
- press-reviz — OAV uchun moʻljallangan boʻlib, unda asosiy raqamlar, qisqa izohlar va Markaziy bankning rasmiy pozitsiyasini qamrab olgan material (*oʻzbek va ingliz tillarida*);

- veb-saytdagi e’lon (*to’liq versiya va qo’shimcha materiallar*) — barcha foydalanuvchilar uchun rasmiy va birlamchi axborot manbai;
- Telegram-postlar — keng auditoriyaga asosiy tezislarni tezkor yetkazish va veb-saytga yo’naltirish (*o’zbek tilida*);
- ijtimoiy tarmoqlar uchun vizual materiallar (*kartochkalar, infografika, qisqa videolar*) asosan Facebook va Instagram orqali amalga oshiriladi (*o’zbek tilida*);
- LinkedIn va X (*Twitter*) — xalqaro professional auditoriyaga (*investorlar, xorijiy OAV va tahliliy markazlar*) materiallarni taqdim etish (*ingliz tilida*).

Natijada Markaziy bank tahliliy materiallarni turli formatlarda izchil tarqatish tizimini joriy etib, rasmiy axborotdan foydalanish va uning iqtibos keltirilish darajasini oshirdi hamda ishonchli iqtisodiy axborot manbai sifatidagi mavqeini mustahkamladi.

### **Foydalanuvchilar**

2025-yil davomida Markaziy bank faoliyati iqtisodiyot sektorida eng ko’p yoritilgan yo’nalishlardan biri maqomini saqlab qoldi. Nashrlarning o’rtacha oylik hajmi 400-600 ta materialni tashkil etdi.

Hisobot yilida axborot materiallarini iste’mol qilish va ulardan foydalanish ko’rsatkichlarida barqaror o’sish tendensiyasi kuzatildi. Xususan, sahifalarni ko’rishlar soni 8,8 mln tani (+29,7%), foydalanish (*sessiyalar*) 5,4 mln tani (+31,7%), doimiy foydalanuvchilar soni esa 2 mln tani (+15,1%) tashkil etdi.

Ta’kidlash joizki, trafik<sup>11</sup> manbalari diversifikatsiyalangan bo’lib, asosiy ulush qidiruv tizimlari (*3,7 mln*) va to’g’ridan-to’g’ri kirishlar (*1,2 mln*) hissasiga to’g’ri keldi. Tashqi havolalar orqali o’tishlar 115,1 ming tani tashkil etdi.

### **Pul-kredit siyosatining kommunikatsiyasi**

Samarali kommunikatsiya aholi, biznes va moliya bozori ishtirokchilarining inflyatsion kutilmalarini inflyatsiya darajasiga yaqin shakllanishini ta’minlashga harakat qiladi va shu orqali inflyatsion kutilmalarga o’z ta’sirini o’tkazadi.

Kommunikatsiya siyosati Markaziy bank faoliyatining shaffofligini oshirish, pul-kredit siyosatiga bo’lgan ishonchni mustahkamlash va uning transmissiyasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu maqsadda pul-kredit siyosatiga oid qarorlar va rejalar press-relizlar, tahliliy materiallar, infografikalar, shuningdek muntazam press-brifinglar va mediamuloqotlar orqali jamoatchilikka yetkazib borilmoqda.

Jumladan, Pul-kredit siyosati sharhi, Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027–2028-yillar davriga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari, aholi va tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari infografikasi, Mehnat bozori, Ko’chmas mulk bozori tahlili, Iste’mol kayfiyati, Biznes kayfiyati sharhi, Pul bozori va likvidlik sharhlari nashr etildi.

Shuningdek, xalqaro tajriba asosida “Bazaviy inflyatsiya va uni baholash usullari” qo’llanmasi ishlab chiqildi.

<sup>11</sup> Trafik axborot materiallariga murojaat qilayotgan foydalanuvchilar oqimi va ularning ushbu axborotga qaysi manbalar orqali kirganini ko’rsatadi.

Inflyatsion targetlash rejimiga o'tgan mamlakatlar tajribasiga muvofiq, pul-kredit siyosati kommunikatsiyasi asosan istiqbolga yo'naltirilgan (*forward-looking approach*) yondashuvga tayanadi va inflyatsion kutilmalarni boshqarishga qaratilgan bo'ladi. Markaziy bank ham o'z nashrlarida makroiqtisodiy prognozlar va ularga nisbatan pul-kredit siyosatining javob choralari bo'yicha axborot qamrovini kengaytirib bormoqda.

Shuningdek, bozor ishtirokchilari va keng jamoatchilik bilan kommunikatsiyani yaxshilash maqsadida e'lon qilinayotgan ma'lumotlar hajmi va sifati oshirilib, target auditoriya qamrovi kengaytirilmoqda.

Markaziy bank boshqaruvining asosiy stavkani ko'rib chiqish bo'yicha tayanch yig'ilishlari yakuni bo'yicha OAV vakillari hamda blogerlar uchun 3 ta press-brifinglar tashkil etildi.

Shuningdek, departament xodimlari tomonidan pul-kredit siyosati asosiy yo'nalishlari, inflyatsiya va kutilmalar hamda boshqa mavzular doirasida OAV vakillariga intervyular berildi.

Xalqaro tavsiyalar va ilg'or tajriba asosida Markaziy bankning rasmiy veb-saytidagi "Pul-kredit siyosati" bo'limi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda.

2025-yilda iqtisodiyot va bank-moliya sohasi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda talabalari uchun pul-kredit siyosati mavzularida 8 ta o'quv-seminarlar tashkil etildi.

Ushbu o'zgarishlar, o'z navbatida, pul-kredit siyosati ochiqligini yaxshilab, bozor ishtirokchilari va aholiga pul-kredit siyosati qarorlarini yaxshiroq tushunishga va qarorlar qabul qilishda hisobga olishga imkon yaratadi.

## Xalqaro hamkorlik

Hisobot yilida mamlakatimizning iqtisodiy nufuzini oshirishda xorijiy hamkorlar bilan Markaziy bankning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish yuzasidan xalqaro aloqalar va hamkorlik ishlari davom ettirildi.

Hisobot yilida xalqaro moliya institutlari, xorijiy markaziy banklar va boshqa xorijiy tashkilotlar bilan qariyb 785 ta (*2024-yilga nisbatan 2 barobar ko'p*) turli darajadagi uchrashuvlar o'tkazildi.

### Xalqaro moliya institutlari va xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlik

2025-yilda pul-kredit siyosati, bank nazorati, to'lov tizimlari, xalqaro zaxiralarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik va makroprudensial siyosat, moliyaviy savodxonlik va ommaboplik, kiberxavfsizlik va ichki audit yo'nalishlarini qamrab olgan 18 ta texnik ko'mak missiyasi hamda 4 ta konsultativ tashrif (*OTB va YTTB ishtirokida*) amalga oshirildi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining Moliya sektorini baholash dasturi (*FSAP*) doirasida makroprudensial siyosat, foiz stavkalari, to'lov tizimlari, stress-testlash, inqirozlarni boshqarish va kapital bozori masalalari muhokama qilinib, moliyaviy barqarorlik, moliya sektorini rivojlantirish va bank nazorati bo'yicha qator tahliliy hisobotlar tayyorlandi.

XVJ Kelishuv moddalarining IV moddasi missiyalari doirasida 2 ta tashrif o'tkazilib, makroiqtisodiy holat, pul-kredit siyosati, moliyaviy sektor barqarorligi va 2025–2026-yillarga oid prognozlar muhokama qilindi.

Shuningdek, XVJ va Jahon bankining bahorgi va yillik yig'ilishlari doirasida bank nazoratini kuchaytirish, sanatsiya mexanizmlarini takomillashtirish hamda yangi texnik ko'mak dasturlarini jalb qilish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda inklyuziv moliya sektorini rivojlantirish dasturining 2-bosqichi doirasida Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan 13 ta islohotlar amalga oshirildi.

Shuningdek, Fitch, Moody's va S&P Global reyting agentliklari bilan muntazam muloqot yo'lga qo'yilib, yil davomida 6 ta maslahatlashuv uchrashuvi o'tkazildi.

### **Xorijiy Markaziy banklar va xalqaro integratsion tashkilotlar bilan hamkorlik**

2025-yilda Markaziy bank xorijiy markaziy banklar bilan pul-kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, kiberxavfsizlik, to'lov tizimlari, moliyaviy monitoring, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida mutaxassislar darajasida tajriba almashish ishlarini davom ettirdi.

Xususan, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Italiya, Koreya, Irlandiya va Polsha markaziy banklariga tajriba almashuv tashriflari tashkil etilib, Markaziy bank mutaxassislarining bilim va ko'nikmalari oshirildi. Koreya, Rossiya, Armaniston, Qozog'iston, Ozarbayjon va Vengriya markaziy banklari vakillari ishtirokida 8 ta tajriba almashinuv tadbirlari Markaziy bankda o'tkazildi.

Mintaqaviy hamkorlik doirasida Qozog'iston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston markaziy banklarining to'lov tizimlari bo'yicha ishchi guruhi yig'ilishi Toshkent shahrida o'tkazilib, hamkorlik yo'nalishlari belgilab olindi.

Shuningdek, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo Markaziy banklari kengashining birinchi yig'ilishida ishtirok etilib, pul-kredit siyosati va to'lov tizimlari yo'nalishlarida ikkita quyi ishchi guruh tuzildi.

Bundan tashqari, Shveysariya Milliy banki bilan markaziy bank raqamli valyutasi, favqulodda likvidlik yordami va ko'chmas mulk bozorini baholash masalalari bo'yicha texnik ko'mak jalb qilinishiga kelishildi.

Jahon savdo tashkilotiga a'zolik doirasida bank qonunchiligiga oid masalalar bo'yicha ishchi muloqotlar olib borilib, tegishli savollar yuzasidan rasmiy javoblar taqdim etildi.

### **Boshqa xalqaro munosabatlar**

2025-yilda bank nazorati va fintex sohalarida Xitoy Moliyaviy tartibga solish milliy boshqarmasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, GFTN va INCEIF bilan jami 4 ta xalqaro hujjat imzolandi.

Markaziy bank xalqaro tashkilotlarga a'zolik doirasida, jumladan Moliyaviy ommaboplik alyansi (*AFI*), Xalqaro moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish tashkiloti (*FinCoNet*), Bazil Maslahatlashuv guruhi (*BCBS*), Fishingga qarshi guruh (*APWG*), Islom moliyaviy xizmatlar Kengashi (*IFSB*), Risklarni boshqarish bo'yicha xalqaro ishchi guruh (*IORWG*), Markaziy banklarga ikki tomonlama yordam va salohiyatni oshirish (*BCC*) hamda Markaziy banklar va nazorat organlari moliyaviy tizimining ekologik tozaligini oshirish hamjamiyati (*NGFS*) bilan hamkorlik ishlarini davom ettirdi.

Shuningdek ushbu tashkilotlarning Yalpi majlislarida rahbariyat va ekspert darajasida ishtirok etdi.

Shuningdek, “CitiBank AS” (*Turkiya*) sho‘ba bankining O‘zbekistondagi vakolatxonasi akkreditatsiya qilindi, “J.P. Morgan Chase Bank”, “Landensbank Baden-Wurttemberg” va “Shinhan Bank” vakolatxonalarining akkreditatsiya muddatlari uzaytirildi.

## VIII. MOLIYAVIY INKLYUZIYA VA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

### Moliyaviy xizmatlar ommabopligi va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish

Hisobot yilida moliyaviy ommaboplik va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha kompleks ishlar amalga oshirildi.

Xususan, moliyaviy ommaboplik yo'nalishida:

- joriy holatni baholash va strategik yo'nalishlarni belgilash;
- bank xizmatlari bilan qamrab olinmagan aholini jalb qilish;
- ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash;
- bank agentlari ishini tizimlashtirish;
- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ustida ish olib borildi.

Moliyaviy savodxonlik bo'yicha:

- an'anaviy tizimli loyihalarni davom ettirish;
- yangi tematik loyihalarni ishga tushirish;
- mutasaddi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirishga ahamiyat qaratildi.

### Tadqiqot, so'rovnoma va bozor tahlillari

Hisobot yilida Markaziy bank bilan hamkorlikda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan moliyaviy ommaboplik, moliyaviy savodxonlik va to'lov tizimi holatini baholash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi.

Shuningdek, WB Fintech tomonidan moliyaviy ommaboplik indikatorlari, IFC SME Finance Forum va WB SME Enterprise tomonidan kichik va o'rta tadbirkorlikka oid tadqiqot natijalari e'lon qilindi. McKinsey va UNDP tomonidan gender masalalari, jumladan ayollar tadbirkorligi bo'yicha mustaqil o'rganishlar, Jahon banki tomonidan qo'shimcha tahlillar amalga oshirildi.

McKinsey, World Bank va UNDP tomonidan olib borilgan gender tadqiqotlari ayollar tadbirkorligida qator tizimli to'siqlar mavjudligini ko'rsatdi.

Xususan, ayollar tadbirkorligidagi asosiy to'siqlar bilim va ko'nikmalar yetishmasligi (28–33%), murabbiylik va ishbiarmonlik aloqalarining cheklanganligi (30%), ro'zg'or majburiyatlari yukining yuqoriligi (48–60%) hamda moliyalashtirish imkoniyatlarining yetarli emasligi (38–41%) bilan bog'liq. Shuningdek, ayollar orasida biznesni boshqarishda o'ziga ishonch pastligi ham sezilarli omil sifatida qayd etilgan.

Hisobot yilida Markaziy bank tomonidan aholining bank xizmatlaridan foydalanish tendensiyalari o'rganildi. 2025-yil dekabr holatiga katta yoshli aholining 82,4 foizi bank hisobvaraqlariga ega bo'lib, ularning 72 foizi hisobvaraqlaridan faol foydalanmoqda.

Bank omonatlari bozori tahliliga ko'ra, omonatlarga ega katta yoshli aholi ulushi yil boshiga nisbatan 2 foiz bandga oshib, 14,7 foizni tashkil etdi. Omonatlarning 57,2 foizi 16–40 yoshli aholi hissasiga to'g'ri kelib, katta yoshli aholining jamg'arish madaniyati sustligini ko'rsatmoqda. Gender kesimida omonatlarning 43,2 foizi ayollarga to'g'ri keldi.

Bank kartalari bozori tahliliga ko'ra, bank kartalari bozorida turli mahsulotlar taklif etilmoqda. Muomaladagi jami kartalar soni 68 mln tani, bank kartasiga ega katta yoshli aholi esa 21,6 mln tani tashkil etdi. Kredit kartalari ulushi hozircha 3 foiz bo'lib, muddatli to'lov kartalari faqat 4 ta bank tomonidan taklif qilinmoqda.

Tadqiqot natijalari moliyaviy ommaboplikni baholash yondashuvini kengaytirish, aholining bank xizmatlaridan faol foydalanishini oshirish, jamg'armalarni banklarda saqlash madaniyatini rivojlantirish, shuningdek kichik va o'rta tadbirkorlik bo'yicha sifatli statistik ma'lumotlar va bozor tahlillarini ochiq taqdim etish zarurligini ko'rsatdi.

### **Strategiyalar va yo'l xaritalar**

Hisobot yilida moliyaviy ommaboplik va moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan bir qator strategik hujjatlar hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tasdiqlandi. Jumladan, 2025–2030-yillarga mo'ljallangan Moliyaviy ommaboplikni oshirish milliy strategiyasi, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha moliyaviy xizmatlar strategiyasi, Markaziy bankning o'rta muddatli strategik

tashabbuslar xaritalari, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish hamda moliyaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritalar belgilandi.

Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Moliyaviy ommaboplik milliy strategiyasi to'rtta ustuvor yo'nalishni qamrab oldi: moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy mahsulotlar xilmaxilligini rag'batlantirish, mikro, kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda bank xizmatlari iste'molchilarining moliyaviy imkoniyatlarini oshirish<sup>12</sup>.

Shuningdek, hisobot yilida moliyaviy savodxonlik yo'nalishida Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyatda jami 18 ta loyiha amalga oshirilib, 384 ta o'quv tadbirida 61,5 ming nafar aholi ishtirok etdi.

OAV loyihalari orqali 3,7 mln aholiga moliyaviy bilimlar yetkazildi.

### **Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan loyihalar**

Hisobot yilida hududlarda aholi va tadbirkorlar uchun sayyor treninglar tashkil etildi.

Jumladan, 3-, 4- va 5-toifaga kiruvchi 71 ta tumanda aholi uchun bank xizmatlari, 14 ta hudud markazlarida tadbirkorlar uchun faktoring mavzusida treninglar o'tkazildi. Shuningdek, Markaziy bank hududiy boshqarmalari tomonidan 162 ta tumanda doimiy sayyor treninglar har oy muntazam tashkil etilib, jami 18,4 ming nafar aholi va tadbirkor qamrab olindi.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida PF-16-son Farmoni

Shuningdek, “Moliyaviy savodxon maskan” loyihalari doirasida Toshkent shahridagi 2 ta respublika va 112 ta mahalla kutubxonalarida turli moliyaviy mavzularda bilimlarni ulashish maqsadida alohida interaktiv o‘quv materiallari tayyorlandi va 6 408 nafar bolalar va yoshlar uchun har oy tizimli ravishda bilim olish imkoniyati yaratildi.

### **Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda amalga oshirilgan loyihalar**

Hisobot yilida moliyaviy ta’limni rivojlantirish doirasida hamkorlikda qator loyihalar amalga oshirildi.

Jumladan, 2024-yilda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va tijorat banklari bilan yo‘lga qo‘yilgan “Moliyaviy savodxonlik to‘garagi” loyihasi hisobot yilida qo‘shimcha 3 ta bankni (*hozirda jami 19 ta bank*) o‘ziga jalb qildi.

2025-2026 o‘quv yilida 133 ta maktabda 5-11-sinf o‘quvchilari uchun darsdan tashqari mashg‘ulotlar tashkil etildi, ularga 8 481 nafar o‘quvchi jalb qilindi. Loyiha doirasida o‘qituvchilar o‘rtasida tanlov o‘tkazilib, ularning loyihaga qo‘shgan hissalari baholandi va rag‘batlantirildi.

“Butunjahon pul haftaligi” doirasida o‘tkazilgan tadbirlar orqali 30,6 ming nafar aholi, jumladan 18 ming nafar maktab o‘quvchilari qamrab olindi. Kampaniya natijalari OECD/INFEning 2025-yilgi global nashrida qayd etildi.

Shuningdek, “Moliyaviy imkon” loyihasi doirasida Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Paynet” AJ hamkorligida nogironligi bo‘lgan shaxslar orasidan 140 nafar fuqaro tanlab olindi va bugungi kunda 100 ga yaqin fuqarolarga “Paynet” to‘lov agenti sifatida faoliyat boshlashda ko‘maklashilmoqda.

### **Yordamchi-agentlar faoliyatini tizimlashtirish**

2025-yilda joriy etilgan yordamchi-agentlar instituti orqali mahallalar kesimida aholini bank-moliya xizmatlariga jalb qilish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va bank xizmatlarini joyida taqdim etish bo‘yicha tizimli mexanizm shakllantirildi<sup>13</sup>.

Respublika bo‘yicha jami 9 009 nafar yordamchi-agent faoliyat boshlab, ularning qariyb 70 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Agentlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy bank va banklar biznes-trenerlaridan iborat ishchi guruh tuzilib, 208 ta tuman va shaharda 878 ta o‘quv mashg‘uloti o‘tkazildi. O‘quv jarayonlari va kundalik faoliyat mahalla.bank-kredit.uz platformasi orqali markazlashtirilgan tarzda monitoring qilinmoqda.

Bank kartasiga ega bo‘lmagan 1,9 mln aholini qamrab olish doirasida yordamchi-agentlar orqali 1,3 mln nafar fuqaroga bank kartalari ochildi (67,8%), ular raqamli to‘lovlar va mobil bank xizmatlaridan foydalanishga o‘rgatildi.

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2025-yildagi “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-12-son Qarori

Tizimni rag'batlantirish va joylarda faollikni oshirish maqsadida "Yilning eng yaxshi yordamchi agenti – 2025" tanlovi o'tkazilib, 4 467 nafar agent ishtirok etdi va mahallalarda 5 mingga yaqin targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi. 44 ta eng yaxshi biznes g'oyalar asosida 14 ta hudud bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

2025-yilda "Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida moliyaviy xizmatlar ko'rsatish strategiyasi" va uni amalga oshirish yo'l xaritasi tasdiqlandi<sup>14</sup>. Strategiya 3 ta ustuvor yo'nalish va 29 ta chora-tadbirni qamrab oldi.

We-Fi Code tashabbusi doirasida bank sektorida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishchi guruh (*milliy koalitsiya*) tuzildi. Unga 19 ta tashkilot, jumladan 11 ta bank va 4 ta mikromoliya tashkiloti, shuningdek O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Mikromoliya institutlari uyushmasi, Fintech uyushmasi va "Hamroh" kompaniyasi a'zo bo'ldi.

Bank tizimida tadbirkor ayollarga xizmat ko'rsatish uchun 8 070 nafar maxsus tayyorlangan ayol xodimlar faoliyat yuritmoqda, hududiy bo'linmalarda (*BXM, BXO*) 186 nafar ayol rahbar o'rinbosarlari tayinlandi. Respublika bo'yicha 26,5 ming nafar ayol tadbirkorlar ishtirokida moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik ko'nikmalari bo'yicha o'quv seminarlari o'tkazildi. Milliy koalitsiyaga a'zo mikromoliya tashkilotlari tomonidan 400 nafar ayol mijozlarga konsalting xizmatlari taqdim etildi.

Ayol tadbirkorlar uchun imtiyozli shartlarda 4 ta maxsus kredit mahsuloti joriy etildi.

*BRB: "Ayol tadbirkor" kredit mahsuloti, amaldagi kredit foiz stavkasidan 2% past;*

*Xalq banki: "Dilbar" kredit mahsuloti, asosiy vositalarni xarid qilish uchun mo'ljallangan, 3 oylik imtiyozli davr va 21% dan;*

*Agrobank va Asakabank: tadbirkor ayollar uchun 100 mln so'mgacha bo'lgan miqdorda, amaldagi kredit foiz stavkasidan 2% past kredit ("Mahalla loyihasi" dasturi doirasidagi mablag'lar yo'naltiriladi);*

*Oasis Credit: tadbirkor ayollar uchun 70 mln so'mgacha bo'lgan garovsiz kredit.*

Shuningdek, ayollar tadbirkorligi bo'yicha kreditlar soni va miqdori, muammoli kreditlar va depozitlar qamrab olingan ma'lumotlar platformasi (*dashboard*) prototipi ishlab chiqildi.

#### **Yangi yo'nalishlarda strategik hamkorlik**

Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moliyaviy ommaboplikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi imzolandi. U 2026–2028-yillarda banklarda to'siqsiz muhit yaratish, inklyuziv bank xizmatlari metodologiyasini ishlab chiqish va moliyaviy savodxonlik loyihalarini tizimli davom ettirishni nazarda tutadi. Ilk bosqichda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi uchun 4 bo'limdan iborat videodarslar, test va keyslardan tashkil topgan moliyaviy savodxonlik dasturi tayyorlanib, agentlikka taqdim etildi.

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2025-yildagi Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-103-son Qarori

Shuningdek, maktablarda moliyaviy savodxonlik o'quv materiallarini o'quvchilar yoshiga moslashtirish va o'qituvchilar malakasini oshirish maqsadida Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan yo'l xarita ishlab chiqildi.

### **Xalqaro hamkorlik**

Xalqaro hamkorlik doirasida tajriba almashish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam uchun tematik loyihalarni amalga oshirish hamda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirildi.

Moliyaviy ommaboplik alyansi (AFI) bilan hamkorlik yangi bosqichga chiqib, ESAPI mintaqaviy tashabbusiga raislik qilish doirasida 2024–2028-yillarga mo'ljallangan ish rejasi ishlab chiqildi. U moliyaviy ommaboplikni yaxshilash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, yashil moliya, fintex va raqamlashtirish sohalarida mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishni qamrab oldi.

Samarqandda o'tkazilgan ESAPI yig'ilishlari va Global siyosat forumi doirasida O'zbekistonning kichik biznes, moliyaviy ta'lim va inklyuziya bo'yicha tajribasi xalqaro maydonda taqdim etildi.

Markaziy bank ishtirokida tayyorlangan "Moliyaviy innovatsiyalar orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish" hisobotida raqamli to'lovlar va innovatsion yechimlar tahlil qilinib, O'zbekistonning regulyator qumdon tajribasi alohida keys sifatida kiritildi.

ESAPI doirasidagi samarali faoliyat natijasida Markaziy bank AFI Direktorlar kengashi rais o'rinbosari nomzodiga 2027-yilgacha tayinlanib, 2028–2029-yillar

davomida o'rnatilgan tartib bo'yicha Kengashda raislik vazifasini bajaradi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti (*IOM/UN Migration*) bilan hamkorlikda Markaziy Osiyo mamlakatlari markaziy banklari ishtirokida pul o'tkazmalari va moliyaviy savodxonlik bo'yicha mintaqaviy ishchi guruh faoliyati yo'lga qo'yildi, mehnat migrantlari uchun moliyaviy savodxonlikka oid videomateriallar tayyorlandi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro fondi (*IFAD*) bilan hamkorlikda xalqaro pul o'tkazmalarini iqtisodiy faollikka yo'naltirish, maxsus moliyaviy mahsulotlar, raqamli yechimlar va moliyaviy savodxonlik masalalari muhokama qilinib, 2026-yil uchun ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Shuningdek, Fransiya banki (*Banque de France*) bilan moliyaviy savodxonlik sohasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. Hamkorlik doirasida Fransiya bankining ta'lim materiallari Finlit.uz platformasi uchun adaptatsiya qilinib, o'zbek tiliga tarjima qilinadi, shuningdek zaruratga qarab subtitr yoki dublyaj bilan ta'minlanadi. Litsenziya kelishuvini imzolash orqali mazkur materiallardan bepul foydalanish imkoniyatini yaratish rejalashtirilgan.

## **Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish**

2025-yilda Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati (*keyingi o'rinlarda — Xizmat*) tomonidan moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish, ularni O'zbekiston bank tizimiga joriy etish bilan bir qatorda kredit tashkilotlari faoliyati bo'yicha tizimli muammolarning qonuniy yechimini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, ilg'or xorijiy davlatlar regulyatorlarining (*Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Malayziya, Irlandiya, AQSh*) tajribalaridan kelib chiqib, Markaziy bankning "Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish Konsepsiyasi" hujjati tasdiqlandi.

Konsepsiya moliyaviy xizmatlar sohasida tartibga solish va nazorat qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab, iste'molchi uchun 9 ta asosiy natijaga erishishni nazarda tutadi.

Konsepsiyani amaliyotga joriy etish doirasida tijorat banklarining iste'molchilar bilan munosabatlariga qo'yiladigan minimal talablar takomillashtirildi.

Jumladan, moliyaviy xizmatlar shaffofligini oshirish, insofsiz amaliyotlarni cheklash, moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan mijozlarni qo'llab-quvvatlash, iste'molchilarga adolatli munosabatni ta'minlash, xavfsizlikni kuchaytirish va himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 20 dan

ortiq normativ-huquqiy o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Shuningdek, fuqarolar nomiga ularning xabarisiz firibgarlik yo'li bilan kredit rasmiylashtirilishi holatlarining ko'payishi ushbu yo'nalishda huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shu munosabat bilan ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda, tegishli idoralar bilan hamkorlikda "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonunga jismoniy shaxslarga o'z nomiga kredit olishni taqiqlash huquqini beruvchi qo'shimchalar kiritildi. Hozirda 170 mingdan ortiq fuqaro ushbu imkoniyatdan foydalanmoqda.

Jahon banki ekspertlari bilan hamkorlikda moliyaviy xizmatlar bozorida iste'molchilar uchun yuzaga kelayotgan xatarlarni erta aniqlash va oldini olishga qaratilgan Moliyaviy bozorni monitoring qilish qo'llanmasi ishlab chiqildi. Ushbu qo'llanma asosida monitoringni amaliyotga joriy etish iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida nazoratning tezkorligi va samaradorligini oshirib, yuqori riskli segmentlarga resurslarni manzilli yo'naltirish va muammolarni erta bosqichda bartaraf etish imkonini beradi.

Bundan tashqari, Irlandiya, Armaniston va Argentina tajribasi asosida kredit tashkilotlarida iste'molchilarga xizmat ko'rsatish talablariga rioya etilishini baholash uchun "sirli mijoz" usulida nazorat tadbirlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqildi. Mazkur mexanizm joylardagi kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish, qonunchilikni takomillashtirish hamda normalarning amaliyotdagi ijrosini baholashga xizmat qiladi.

Kredit berish jarayonida xatarlarni kamaytirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash va qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini mas'uliyatli baholash maqsadida Mas'uliyatli kreditlashning umumiy tamoyillari ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Ushbu tamoyillar qarzдорlar kelgusida to'lov qiyinchiliklariga duch kelmasligi va zarur hollarda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini nazarda tutadi.

Shuningdek, kredit tashkilotlari faoliyatida aniqlangan insofsiz amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Markaziy bankning rasmiy kanallari orqali ochiq e'lon qilish amaliyoti joriy etildi. Bu iste'molchilarni bozordagi xatarlardan xabardor qilish, shaffoflikni oshirish va kredit tashkilotlari uchun profilaktik ta'sir mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, Jahon banki texnik ko'magi doirasida 2025-yilda ikki marotaba xorijiy konsultantlar ishtirokida missiyalar o'tkazilib, bozor monitoringi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida nazorat jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajriba o'rganildi va amaliy ko'nikmalar oshirildi.

Moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish yo'nalishida Markaziy bank AFI (*Namibiya*) va FinCoNet (*Irlandiya*) tomonidan tashkil etilgan asosiy yig'ilishlarda ishtirok etib, a'zo davlatlar regulyatorlari bilan dolzarb muammolar va ularni hal etish bo'yicha o'zaro fikrlar almashildi.

Osiyo taraqqiyoti banki bilan hamkorlikda "Inklyuziv moliya sektorini rivojlantirish dasturi" doirasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha 4 ta yo'nalishda chora-tadbirlar amalga

oshirildi hamda dasturning 3-kichik bosqichida qo'shimcha texnik ko'mak ajratish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Banklarning jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan moliyaviy xizmatlari haqidagi axborot portalini (*"bankxizmatlari.uz"*) aholiga keng targ'ib qilish va portaldagi ma'lumotlarning aktualligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida 2025-yil yakuniga kelib saytning oylik foydalanuvchilari soni 17 ming nafarga, oylik tashriflar soni esa 23 mingtaga yetdi.

Bugungi kunda platformada 347 ta kredit, 198 ta omonat va 281 ta bank kartasi turlari, 9 mingdan ortiq bankomatlar hamda barcha banklarning valyuta kurslari (*AQSH dollari, yevro, Rossiya rubli*) to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan.

Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari nazorat qilish doirasida 2025-yilda Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari bilan birgalikda banklarning joylardagi mussasalarida bazaviy xizmatlar ko'rsatilishining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilinishi holatlari yuzasidan 284 ta "sirli mijoz" usulidagi nazorat tadbirlari amalga oshirildi.

Nazorat natijalariga ko'ra, banklarga nisbatan ta'sir choralari qo'llanildi, kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi hamda aniqlangan tizimli muammolar va insofsiz amaliyotlar asosida qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, ushbu natijalar kelgusida tekshirishlarni riskka asoslangan yondashuv asosida rejalashtirish uchun tahliliy baza sifatida foydalanildi.

Qo'shimcha ravishda, 5 ta bankda bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari bo'yicha tematik tekshirishlar o'tkazilib, natijada qonunchilik va shartnomalarga zid undirilgan 29 mlrd so'm miqdoridagi foizlar, komissiyalar va boshqa to'lovlar mijozlar foydasiga qayta hisob-kitob qilindi. Kamchilikka yo'l qo'ygan banklarga 2,8 mlrd so'm jarima sanksiyalari qo'llanildi.

Shuningdek, garov munosabatlari bo'yicha qonunchilik talablarining bank amaliyotida qo'llanilishi masofaviy monitoring qilindi. Ushbu o'rganishlar natijasida qoidabuzarlikka yo'l qo'ygan 18 ta bankka 1,8 mlrd so'm jarima belgilandi.

Hisobot yili davomida moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlari buzilishiga oid 1 961 ta murojaat ko'rib chiqildi. Natijada 188 nafar iste'molchining huquqlari tiklanib, omonat mablag'lari, noto'g'ri hisoblangan kredit qarzdorliklari va asossiz undirilgan to'lovlar qayta hisob-kitob qilinishi orqali jami 26 mlrd so'm miqdorida moliyaviy manfaat ta'minlandi.

### **Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash**

2025-yilda Markaziy bank tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablari asosida ko'rib chiqilishi ta'minlandi.

Markaziy bankka kelib tushgan 5 379 ta murojaatdan 5 209 tasi yoki 96,8 foizi bevosita banklar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan murojaatlar hisoblanadi. Mazkur murojaatlar belgilangan tartibda ko'rib

chiqish uchun tegishliligi bo'yicha banklarning bosh ofisiga yuborilib, natijalari to'g'risida murojaatchilarga o'z vaqtida ma'lum qilinishi ustidan monitoring o'rnatildi.

Hisobot yilida jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlarning 5 066 tasiga (94,2%) belgilangan tartibda tegishli tushuntirishlar berildi va ijobiy hal qilindi, 91 ta (1,7%) murojaat tegishliligi bo'yicha ko'rib chiqish uchun boshqa vazirlik va idoralarga yuborildi, 218 tasi (4%) ijro jarayonida va 4 tasi (0,1%) anonim murojaat bo'lganligi sababli ko'rib chiqilmadi.

Markaziy bankka kelgan murojaatlarning qariyb 84,7 foizi kredit, bank kartalari va firibgarlik, to'lov tizimi va naqd pulsiz hisob-kitoblar hamda bank xodimlarining xatti-harakatlari masalasidagi murojaatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Murojaatlar tarkibida bank kreditlari, kredit operatsiyalari hamda to'lov tizimi va naqd pulsiz hisob-kitoblar masalalariga oid murojaatlar ulushi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda. Shu bilan birga, bank tizimidagi islohotlar hamda bank xizmatlari sifati oshishi natijasida ushbu murojaatlar ulushi o'tgan yilga nisbatan 10 foiz bandga kamaydi.

Qo'shni davlatlarda ham kuzatilayotgani kabi, firibgarlik bilan bog'liq holatlar keskin oshdi va ushbu masala bo'yicha murojaatlar soni ko'paydi. Xususan, fuqarolar nomiga bank kartalari orqali kreditlar rasmiylashtirish va mablag'larni o'zlashtirish, shuningdek kartadan egasi xabardorligisiz pul yechib olish holatlari bo'yicha murojaatlar o'tgan yilga nisbatan 8,6 barobarga ko'paydi.

Hisobot yilida aholining murojaatlarini joyida o'rganish va hal etish maqsadida olis va aholi zich hududlarda Markaziy bank rahbariyati tomonidan sayyor qabullar o'tkazildi. Qabullar davomida masalalarni tezkor va xolis hal etishga, shuningdek aholining roziligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, tashkil etilgan 31 ta sayyor qabullarda jami 1 mingga yaqin tadbirkorlar, omonatchilar va fuqarolar bilan uchrashildi. Qabulda 513 ta imtiyozli kredit va bankka oid boshqa masalalarda murojaatlar qabul qilindi va ularning 348 tasi ijobiy hal qilindi (*46,5 mlrd so'm hamda 3,5 mln dollar miqdorida kreditlar ajratildi*), 154 tasiga tegishli tushintirishlar berildi, 11 tasi tegishli idoralarga yuborildi.

Murojaatlarni o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqish bilan birga, ular orqali aniqlangan tizimli muammolar asosida bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarga doir minimal talablar takomillashtirib borildi.

Jumladan, Markaziy bankning "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga murojaatlar tahlili asosida tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Kiritilgan o'zgartirishlar bank xizmatlaridan foydalanuvchilar uchun qulayliklarni kengaytirish, bank xodimlari mas'uliyatini oshirish, ortiqcha hujjatlar talab qilishni cheklash, shikoyat berish tartibini soddalashtirish hamda xizmat ko'rsatishda shaffoflik va tezkorlikni oshirishga qaratildi. Shuningdek,

qarzdorlik bo'yicha qiyinchilikka duch kelgan aholi uchun kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish, jumladan kredit muddatini uzaytirish, foiz stavkasini pasaytirish va penya miqdorini kamaytirish imkoniyatlari yaratildi.

O'z navbatida, kredit va to'lov tashkilotlari faoliyatiga oid murojaatlarni avvalo tegishli tashkilotlar darajasida hal etish, Markaziy bankka esa faqat hal etilmagan murojaatlarni yuborish amaliyotini kuchaytirishga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish muddatini qisqartirib, sifatini oshiradi hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

### **Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash**

Hisobot yilida tadbirkorlik subyektlarining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, investitsion loyihalarni moliyalashtirish va aholi bandligini oshirishda banklarning o'rni muhim ahamiyat kasb etdi.

2025-yilda mikro, kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun jami 131,2 trln so'm kreditlar ajratildi (*o'sish — 1,4 barobar*) (8.1-rasm).

Tarmoqlar kesimida ajratilgan kreditlarning asosiy qismi savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga — 32% (*42,9 trln so'm*) to'g'ri keldi. Shuningdek, sanoat sohasiga — 21 foiz (*17,7 trln so'm*) va qishloq xo'jaligiga — 16 foiz (*17,9 trln so'm*) mablag'lar yo'naltirildi.

2025-yilda banklar tomonidan savdo va xizmatlar sohasidagi 85 mingdan ortiq tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish uchun 77,8 trln so'm kredit ajratildi.

Turizm sohasini rivojlantirish doirasida 7 073 ta tadbirkorlik subyektiga 4,9 trln so'm kredit ajratildi.

Shuningdek, tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishda xorijiy kredit liniyalari resurslaridan ham keng foydalanildi.

Xorijiy kredit liniyalari hisobidan 39 mingdan ortiq loyihalar uchun jami 5,0 mlrd dollar miqdorida kreditlar ajratildi, shundan 2,6 mlrd dollari kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirishga to'g'ri keldi.

### **Tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari**

Aholi va tadbirkorlik subyektlarining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2025-yilda "Biznesga birinchi qadam", Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" va "Mahalla loyihasi" dasturlari doirasida imtiyozli kreditlar ajratildi.

Mahallalarda tadbirkorlik faolligini oshirish va aholi bandligini ta'minlash maqsadida tijorat banklari tomonidan "Biznesga birinchi qadam", "Biznesga birinchi qadam-2", "Mahallada biznes", "Tomorqa-biznes" va "Biznesga ko'mak" kabi kredit mahsulotlari joriy etildi. Hisobot yilida 200 mingdan ortiq o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga 4,6 trln so'm kredit ajratildi.

2025-yilda ushbu dasturlar amalga oshirilishi davom ettirilib, asosiy e'tibor yoshlar va xotin-qizlarni band qilishga qaratildi. Hokim yordamchilari tavsiyalari asosida 260 mingdan ortiq loyihalarga 4,4 trln so'mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratildi. Jumladan, yoshlar tashabbuslariga 1,5 trln so'm (85 mingdan ortiq loyiha) va xotin-qizlar loyihalariga 2,2 trln so'm (136 mingdan ortiq loyiha) yo'naltirildi.

Dasturlar doirasida ajratilgan kreditlarning asosiy qismi — 4,4 trln so'mi (99%) o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga, 50,2 mlrd so'mi (1%) esa yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga to'g'ri keldi.

Kredit ajratish jarayonlari to'liq raqamlashtirilib, Oilakredit.uz yagona elektron platformasi orqali amalga oshirilmoqda.

2025-yildan Xalq banki tomonidan Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda "Moliyaviy ommaboplik" dasturi amalga oshirilmoqda. Dastur doirasida "Mahalla loyihasi" (*Parkent tajribasi*) kredit mahsuloti joriy etilib, avval oilaviy tadbirkorlik dasturlarida ishtirok etgan fuqarolarning biznes faoliyatini kengaytirish uchun soddalashtirilgan tartibda garovsiz kreditlar ajratilmoqda.

Ushbu kreditlar 3 yilgacha muddatga 50 mln so'mgacha, yillik 25 foiz (*ayollar uchun 24%*) stavkada taqdim etiladi. Hisobot yilida mazkur dastur barcha tijorat banklarida joriy qilinib, 210 mingdan ortiq loyihalarga jami 14 trln so'm kredit ajratildi.

Tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy mexanizmlaridan biri "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi hisoblanadi. Ushbu dastur doirasida kreditlar 7 yilgacha (*aylanma mablag'lar uchun 18 oygacha*) muddatga, 36 oygacha imtiyozli davr bilan (*aylanma mablag'lar uchun 6 oy*) 300 mln so'mgacha ajratiladi.


Bunda, kreditning 100 mln so'mgacha qismi "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" mablag'i hisobidan garovsiz, 100 mln so'mdan oshgan qismi tijorat banklarining o'z mablag'i hisobidan moliyalashtiriladi.

2025-yilda ushbu dastur doirasida 64 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektiga 7,5 trln so‘m kredit ajratildi.

Hisobot yilida tijorat banklari aholini tadbirkorlikka jalb qilish va daromadli mehnat bilan ta‘minlash bo‘yicha bir qator tashabbuslarni amalga oshirishni davom ettirdi. Xususan, “Sayxunobod” va “Uychi” tumanlari tajribasi hamda “bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosidagi ishlar kengaytirildi. “Sayxunobod tajribasi” doirasida mahallalarda 409,6 ming mikroloyihani amalga oshirish uchun 7,7 trln so‘m kredit ajratildi va natijada 840,4 ming nafar aholi daromadli mehnat bilan ta‘minlandi.

“Uychi tajribasi” doirasida 25 mingdan ortiq tadbirkor bilan uchrashuvlar o‘tkazilib, ular tomonidan ko‘tarilgan 106,8 mingdan ortiq masala va muammolar hal etildi. Shuningdek, “bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida 11,9 ming gektar yer maydonida 1 075 ta namunaviy loyiha amalga oshirilib, ularga 169,3 mlrd so‘m kredit ajratildi. Ushbu loyihalarga “yetakchi” tadbirkorlarni jalb qilish orqali 30,4 mingta dehqon xo‘jaliklari tashkil etildi.

8.1-rasm. Mikro, kichik va o‘rta biznesga ajratilgan kreditlar, trln so‘mda



## IX. PUL MUOMALASI

Hisobot yilida naqd pul muomalasini tashkil etishda iqtisodiyotning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda naqd pullarga bo'lgan talabni uzluksiz va yetarli darajada qondirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu bilan birga, banknotalar nominal qatorini optimallashtirish, muomaladagi naqd pullar sifatini yaxshilash va eski namunadagi banknotalar ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, banklarda kassa ishlarini tashkil etish, xususan naqd pullar bilan ishlash jarayonlariga yangi xizmat turlarini joriy etishga hamda raqamlashtirishga a'lohida e'tibor qaratildi.

2025-yilda naqd pul muomalasini tashkil etish, naqd pullarning hududlararo va banklararo harakatini boshqarishni erkinlashtirish hamda infratuzilmaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ishlar izchil davom ettirildi.

### Naqd pul aylanmasi va muomaladagi pullar

Hisobot yilida banklar orqali naqd pul aylanmasi 1 250 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 1,2 barobarga oshdi. Bank kassalariga tushgan naqd pullar hajmi 22,8 foizga o'sib, 615,1 trln so'mni tashkil qildi.

Naqd pul tushumlari o'sishi asosan tovarlar sotishdan tushumlarning 13,8 foizga, pullik xizmatlardan 28 foizga, bank xizmatlari (*omonatlar, kredit to'lovlari, valyuta operatsiyalari*) bo'yicha 34,7 foizga, soliqlar va boshqa manbalardan 14,7 foizga oshishi hisobiga ta'minlandi.

Tushumlar tarkibida bank xizmatlari 37,6 foiz, tovarlar sotish 33,1 foiz, soliqlar va boshqa manbalar 17 foiz, pullik xizmatlar esa 12,3 foiz ulushni tashkil qildi.

Bank kassalariga naqd pul tushumlarining YaIMga nisbati 33,3 foiz darajasida saqlanib qoldi.

2025-yilda iqtisodiy faollik oshishi fonida naqd pulga bo'lgan talab oshishi natijasida banklar tomonidan aholi va xo'jalik subyektlariga berilgan naqd pullar hajmi 2024-yilga nisbatan 24,6 foizga o'sib, 634,9 trln so'mni tashkil etdi. Yil davomida naqd pulga bo'lgan talab 125,3 trln so'mga ko'paydi.

Naqd pullarning banklararo harakatini erkinlashtirish, naqd pullar bilan ta'minlashda banklarning o'zaro munosabatlarini rivojlantirish, bunda Markaziy bank ishtirokini kamaytirish maqsadida "Naqd pullarning elektron maydoni" platformasi doimiy tarzda takomillashtirildi.

2025-yilda amaliyot natijalaridan kelib chiqib, mazkur axborot tizimi foydalanuvchilari uchun bir qator raqamli yechimlar joriy etildi. Jumladan, belgilangan vaqt tugagandan so'ng banklar tomonidan alohida darcha orqali naqd pullarga buyurtma berish imkoniyati yaratildi, shuningdek Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalari, banklar va inkassatsiya xizmatida farmoyishlarni shakllantirish, imzolash va ijroga yuborish jarayonlari to'liq raqamlashtirildi.

2026-yil 1-yanvar holatiga tizimga ulangan foydalanuvchilar soni 1 009 tani tashkil etdi, shundan 955 tasi banklar, 38 tasi Markaziy bank, 16 tasi inkassatsiya xizmati muassasalari hissasiga to'g'ri keldi.

2025-yil davomida tizimda shakllangan ehtiyojdan ortiqcha naqd pullar taklifi va naqd pullarga bo'lgan talabga muvofiq jami 180,2 trln so'mlik kelishuvlar amalga oshirilgan bo'lib, ushbu kelishuvlar doirasida tijorat banklari o'rtasida — 43,1 trln so'm, Markaziy bankdan tijorat banklariga — 65,1 trln so'm yetkazib berildi va tijorat banklaridan Markaziy bankka — 72 trln so'm naqd pullar olib kelindi.


Shu bilan birga, naqd pullar bilan ishlash, saqlash va logistika sohasida "Inkassatsiya markazlari" orqali kassa operatsiyalarini outsorsing asosida amalga oshirish amaliyoti kengaytirildi.

2025-yil yakuniga kelib 9 ta hududda joylashgan 20 ta "Inkassatsiya markazi" tomonidan Agrobankingning 106 ta bo'linmasiga xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi.


Inkassatsiya markazlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida banklar uchun naqd pul va qimmatliklarni saqlash, kassa qoldiqlari doirasida naqd pul bilan ta'minlash, mijozlarning naqd tushumlarini qabul qilish va hisobraqamlarga o'tkazish kabi qo'shimcha xizmatlar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Shuningdek, naqd pullar va qimmatliklarni qabul qilishda qoplarni plombalash uchun bir martalik raqamlangan shtrix-kod yoki QR-kodli plastik plombalar joriy etildi. Natijada naqd pullarni bank kassalariga topshirishda ortiqcha blankalar va hujjatlar soni qisqartirilib, bank xodimlari aralashuvi kamaytirildi hamda kassa operatsiyalarini amalga oshirish tezlashtirildi.

9.1-rasm. Naqd pul tushumlari hajmi va tarkibi dinamikasi, trln so'mda



9.2-rasm. Naqd pullarning berilishi bo'yicha yo'nalishlari, foizda



Shuningdek, banklarning naqd pul va qimmatliklarini shartnoma asosida saqlash bo'yicha "Respublika maxsus aloqa bog'lamasi" DUK tomonidan taqdim etilgan xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ushbu sohada raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan choralar ko'rildi.

2025-yilda respublika hududlarida naqd pul muomalasi holatini baholash va aholi fikrini o'rganish maqsadida jamoatchilik so'rovnomalarini yilda ikki marotaba o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

So'rovnoma natijalari naqd pul muomalasidagi mavjud muammolarni aniqlash, naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillarni belgilash va manzilli yechimlar ishlab chiqish imkonini bermoqda.

### **Muomalaga chiqarilgan pullar**

2025-yilda naqd pulga bo'lgan talabdan kelib chiqib muomalaga qo'shimcha naqd pullar chiqarish, shu bilan birga muomaladagi naqd pullar tarkibini optimallashtirish va banklarda banknot va tangalar zaxiralarini shakllantirish ishlari davom ettirildi.

Muomaladagi naqd pullar hajmi 2025-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 16,8 trln so'mga yoki 25,6 foizga oshdi.

Naqd pullar qatorini optimallashtirish natijasida past nominalli (1 000 va 10 000 so'mlik) banknotlar hajmi 534,9 mlrd so'mga kamaygan bo'lsa, yuqori nominalli (2 000-200 000 so'mlik) banknotlar hajmi 17,3 trln so'mga ko'paydi.

Qo'shimcha naqd pullarning muomalaga chiqarilishi hisobiga banknotlar soni 262 mln donaga oshib, jami 2,4 mlrd donani tashkil etdi.

Muomaladagi banknotlar tarkibida 200 000 so'mlik banknotlar ulushi 23,4 foizdan 28,5 foizga oshgan, 100 000 so'mlik banknotlar ulushi esa 40,9 foizdan 36,4 foizga kamaygan bo'lib, bu asosan eski namunadagi banknotlarni muomaladan chiqarish bilan izohlanadi.

Shuningdek, muomaladagi tangalar hajmi 1,1 barobarga oshdi va ularning jami pul belgilari tarkibidagi ulushi 0,3 foizni tashkil etdi.

Yil yakuniga kelib, yangi namunadagi banknotlar ulushi sezilarli darajada oshdi: 5 000 so'mlik banknotlarda 93 foizga, 10 000 so'mlikda 95 foizga, 50 000 so'mlikda 96 foizga, 100 000 so'mlik banknotlarda esa 97 foizga yetdi.

Natijada, 2026-yil 1-yanvar holatiga 2021-2022-yillar namunasidagi yangi banknotlarning (*shu jumladan 2 000, 20 000 va 200 000 so'mlik*) muomaladagi jami banknotlar sonidagi ulushi 76,3 foizdan 90,4 foizga, qiymat bo'yicha ulushi esa 85,5 foizdan 97,5 foizga yetdi.

2025-yilda aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun naqd pul hisob-kitoblarini yanada qulaylashtirish maqsadida muomaladagi naqd pullarni nominallar bo'yicha optimal taqsimlash mexanizmi joriy etildi. Ushbu mexanizmga muvofiq, kichik nominallar uchun 1–3 foiz, o'rta — 15–25 foiz va yirik — 72–84 foiz ulush koridorlari belgilandi.

Banklar tomonidan mazkur tavsiyaviy yondashuv qo'llanilishi natijasida 2025-yil yakuniga kelib, naqd pullar tarkibida kichik nominallar 1,1 foiz, o'rta nominallar 15,8 foiz, yirik nominallar esa 83,1 foizni tashkil etib, belgilangan maqbul koridorlar doirasida shakllandi.

### Bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar

So'nggi yillarda bank kartalariga naqdsiz shaklda tushayotgan mablag'lar hajmining oshishi fonida kartalardan naqd pul yechib olish hajmi ham o'sish tendensiyasini saqlab qolmoqda.

2025-yilda bank kartalariga tushgan mablag'lar 2024-yilga nisbatan 44,6 foizga (461,5 trln so'mga) oshgan bo'lsa, kartalardan naqdashtirish hajmi 23,7 foizga (53,6 trln so'mga) ko'payib, 279,5 trln so'mni tashkil etdi.

Shu bilan birga, aholining to'lov infratuzilmasidan foydalanish ko'nikmalari va ishonchi ortishi hamda raqamli to'lov


texnologiyalarining kengayishi natijasida naqdashtirishning kartalarga tushgan mablag'lar hajmidagi ulushi 21,8 foizdan 18,7 foizgacha kamaydi.

*Hisobot yilida bank kartalari orqali amalga oshirilgan jami chiqim operatsiyalari 1 493,1 trln so'mni tashkil etib, shundan 81,3 foizi naqdsiz, 18,7 foizi esa naqdashtirish hissasiga to'g'ri keldi (2024-yilda — 78,1%).*

Bank kartalariga tushgan mablag'lar tarkibida ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiya to'lovlari 22,5 foiz, naqd pul va omonat hisobvaraqlaridan kirimlar 20 foiz, aholining boshqa daromadlari 13,8 foizni tashkil etdi.

To'lov infratuzilmasining kengayishi natijasida umumiy pul tushumlarida bank kartalari orqali hisob-kitoblar ulushi 42,8 foizga yetdi (2024-yilda — 40,4%). Savdo va pullik xizmatlar tushumida esa kartalar orqali to'lovlar ulushi 47,6 foizni tashkil etdi.

9.3-rasm. Muomalaga chiqarilgan pul belgilari (banknotlar va tangalar)ning nominal qiymatlari bo'yicha ulushi, foizda



## X. INSON RESURSLARI SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

### Xodimlar bilan ishlash tizimini rivojlantirish

*Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadlari bo'lgan narxlar, bank va to'lov tizimlari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan strategik vazifalarni amalga oshirishda zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori salohiyatli xodimlarning roli muhim hisoblanadi.*

#### Ushbu maqsadda 2025-yilda:

- ish jarayonlariga moslashuvchan ish vaqti rejimi joriy etildi;
- ilmiy va amaliy ko'nikmalarga ega xodimlar salmog'ini oshirish maqsadida xorijiy top universitetlarda tahsil olishini moliyaviy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yildi.

2025-yilda Markaziy bank va uning hududiy bosh boshqarmalarida mavjud vakant lavozimlarga ishga qabul qilish jarayonlari ochiqlik, shaffoflik va raqobat tamoyillari asosida tashkil etildi. Tanlov bosqichlari nomzodlar uchun qulay va masofaviy formatda o'tkazilib, test sinovlari Telegram-bot orqali, xorijiy tillar bo'yicha baholash esa Google Meet platformasida amalga oshirildi.

Suhbatlar Markaziy bankning tajribali mutaxassislaridan iborat ekspertlar guruhi tomonidan o'tkazilib, barcha nomzodlar uchun teng imkoniyatlar ta'minlandi. Ishga qabul qilish jarayonlari real vaqt rejimida uzatib borildi.

Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar Markaziy bankning rasmiy veb-sayti (*cbu.uz*) va ijtimoiy tarmoqlarda muntazam e'lon qilib borildi. Shuningdek, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali tanlov jarayonlari bo'yicha tushuntiruvchi videomateriallar tarqatilib, nomzodlar uchun ma'lumotlarni tez va oson topishlari hamda tanlov bosqichlarini tushunarli bo'lishi ta'minlandi.

Kadrlar zaxirasini kengaytirish maqsadida yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi hamda mehnat yarmarkalari va "TalabaExpo-2025" ko'rgazmalarida faol ishtirok etib kelindi.

2025-yilda ishga qabul qilish uchun ishlab chiqilgan Telegram-bot (*@CBUuz\_bot*) orqali 11 416 nafar nomzod ro'yxatdan o'tdi. Tanlov bosqichlaridan o'tgan 648 nafar nomzod bilan ochiq onlayn suhbatlar o'tkazilib, yil davomida 274 nafar eng munosib nomzod (*186 nafar Markaziy apparatga, 88 nafar hududiy bosh boshqarmalarga*) ishga qabul qilindi.

Shu bilan birga, "Maxsus stipendiya" dasturi doirasida respublikaning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida tanlov o'tkazilib, 49 nafar iqtidorli talaba Markaziy bank stipendiyasi sohibi bo'ldi. Ular uchun amaliy tajriba, murabbiylik va kasbiy moslashuv tizimi yo'lga qo'yildi. 2024-yil dastur natijasida 2025-yilda 18 nafar stipendiat ishga qabul qilindi.

### **Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar**

Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish markazi tomonidan 2025-yil davomida Markaziy bank xodimlarini kasbiy bilimlarini oshirish va ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Hisobot yilida Markaziy bank markaziy apparati va hududiy bosh boshqarmalarining 220 nafar xodimi xorijiy davlatlarda tashkil etilgan jami 164 ta o'quv tadbirida ishtirok etdi.

Mazkur o'quv tadbirlari xorijiy markaziy (*milliy*) banklar, xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan bo'lib, jumladan, Birlashgan Vena instituti (*JVI*) — 36 ta, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (*YeAES*) — 24 ta, xorijiy markaziy va milliy banklar — 23 ta, Germaniyaning federal banki — 15 ta, Xalqaro valyuta jamg'armasining Kavkaz, Markaziy Osiyo va Mo'g'uliston davlatlarini texnik qo'llab-quvvatlash markazi (*CCAMTAC*) — 10 ta, Xalqaro valyuta jamg'armasi — 9 ta, Jahon banki va RAMP dasturi — 8 ta, Shveysariyaning Iqtisodiy ishlar bo'yicha davlat kotibiyati (*SECO*) va Shveysariyaning Gersenzee o'quv markazi — 4 tadan va boshqa xorijiy tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan 31 ta o'quv tadbirlarida Markaziy bank xodimlari ishtirok etishdi.

Xodimlarning xorijdagi o'quv tadbirlari bo'yicha umumiy o'quv soatlari 11 556 soatni tashkil etib, bir xodim hisobiga o'rtacha o'quv soati 52,5 soat to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, Rossiya, Angliya, Germaniya, Fransiya, Armaniston va Belarus davlatlarining markaziy banklari hamda xalqaro moliya tashkilotlari

tomonidan tashkil etilgan 75 ta onlayn o'quv tadbirida 244 nafar xodim ishtirok etdi.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda Markaziy bank, tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlari xodimlari uchun 21 ta qo'shma o'quv tadbiri tashkil etildi. Ushbu tadbirlarda Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (*EBRD*), Markaziy banklar salohiyatini oshirish dasturi (*BCC*) Kotibiyati, Rossiya Banki, KPMG hamda boshqa xorijiy hamkorlar ishtirok etdi.

Ushbu tadbirlar pul-kredit siyosati, bank nazorati, moliyaviy barqarorlik, xalqaro zaxiralarni boshqarish, IT va kiberxavfsizlik, fintex hamda moliyaviy savodxonlik kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab oldi.

Mazkur o'quv tadbirlarida jami 689 nafar ishtirokchi qatnashdi. Shundan 391 nafari (57%) Markaziy bank xodimlari, 275 nafari (40%) tijorat banklari, mikromoliya va boshqa kredit tashkilotlari xodimlari, 11 nafari Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Statistika qo'mitasi vakillari, 12 nafari esa tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari xodimlarini tashkil etdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan tashkil etilgan 3 oylik "Rahbar ayollar" o'quv kursida Markaziy bank markaziy apparatining 1 nafar xodimi ishtirok etdi.

Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida Markaziy bankning Qoraqalpog'iston Respublikasi va Sirdaryo hududiy bosh boshqarmalarining 15 nafar xodimi

“O‘zbek adabiy tili me‘yorlari, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi hamda davlat tilida ish yuritish asoslari” kurslarida malaka oshirdi.

Bundan tashqari, “Ish jarayonida sun‘iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish” hamda “ChatGPT orqali ish jarayonini takomillashtirish” mavzularidagi o‘quv kurslarida 179 nafar Markaziy bank xodimlari ishtirok etdi.

Shu bilan birga, 2025-yil davomida Ekologiya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, LB-WE (*Landesbank Baden-Wuerttemberg*), Respublika kasbiy ko‘nikmalar markazi, Russvift kompaniyasi, Osiyo taraqqiyot banki (ADB), AQSh elchixonasi, YuNESKO va Yevropa Ittifoqi (YI) tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli o‘quv kurslarida markaziy apparat boshqarmalarining 23 nafar xodimi qatnashdi.

Stipendiatlar uchun tasdiqlangan dasturi doirasida Markaziy bank tasarrufidagi “Davlat belgisi” MChJ, Qimmatbaho metallarni saqlash va ular bilan ishlash xizmati hamda “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ tashriflar tashkil etildi.

2026-yil 1-yanvar holatiga, xorijiy magistrlik darajasini olgan 103 nafar xodim Markaziy bankda faoliyat yuritmoqda.

Xorijiy magistrlik darajasini olgan 103 nafar xodimlarning 44 nafari Yaponiya, 24 nafari Buyuk Britaniya, 9 nafari Koreya, 5 nafari Germaniya va 21 nafari boshqa xorijiy mamlakatlarda davlat siyosati, iqtisodiyot, moliya va bank ishi, MBA va xalqaro menejment kabi

yo‘nalishlarda ta‘lim olishgan. Bundan tashqari, 1 nafar xodim Yaponiyada doktorantura (*PhD*) dasturini bitirib qaytib kelgan.

Hozirgi kunda Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Shveysariya, Avstraliya, Germaniya va Ispaniya davlatlari oliygohlarining magistratura dasturida 25 nafar, doktorantura (*PhD*) dasturlarida 1 nafar xodimlar tahsil olib kelmoqda.

## XI. MOLIYAVIY XAVFSIZLIK, XATARLARNI BOSHQARISH VA ICHKI NAZORAT

### Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash

2025-yilda kredit va to'lov tashkilotlari, to'lov tizimlari operatorlari hamda kredit byurolari axborot tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash, shuningdek raqamli texnologiyalar orqali sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini kuchaytirishga ustuvor e'tibor qaratildi.

Zamonaviy kiberhujumlar tahdidi ortib borayotgani sababli banklar va kredit byurolariga qo'yiladigan kiberxavfsizlik talablari kuchaytirildi. Shuningdek, faktoring elektron platformalari uchun ham axborot va kiberxavfsizlik bo'yicha alohida talablar belgilandi.

### Onlayn firibgarliklarga qarshi choralar

Fuqarolar nomiga bir vaqtning o'zida bir nechta banklarda onlayn kredit rasmiylashtirilishining oldini olish maqsadida kredit buyurtmalari va kredit axborotini real vaqt rejimida kredit byurolariga uzatish mexanizmi joriy etildi.

Banklar, to'lov tizimlari operatorlari va kredit byurolarining axborot tizimlari Markaziy bank Yagona platformasiga integratsiya qilinishi natijasida firibgarlik holatlarini tahlil qilish muddati 3 ish kunidan 4 soatgacha qisqartirildi.

Mobil ilovalarda quyidagi himoya mexanizmlari joriy etildi:

– OTP-kodning (*SMS tarzida yuboriladi*) faqat foydalanuvchining mobil qurilmasida amal qilishi (*telekom antifrod*);

– foydalanuvchi harakatlari va ulanish parametrlarini tahlil qiluvchi session antifrod;

– qurilmada zararli dasturlar aniqlanganda ogohlantiruvchi antivirus himoya tizimi;

– ro'yxatdan o'tish, parolni tiklash va boshqa qurilmadan kirish jarayonlarida biometrik identifikatsiya (*Face ID*).

### Nazorat va huquqiy choralar

Bank va to'lov tizimlarida axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha talablarning bajarilishi yuzasidan 37 ta o'rganish o'tkazildi. Kamchiliklarga yo'l qo'ygan 3 ta bankka 115 mln so'm miqdorida jarima sanksiyalari qo'llanildi.

Masofadan moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda firibgarliklarni oldini olish bo'yicha kredit va to'lov tashkilotlariga qo'yiladigan talablar hamda firibgarlar ta'sirida onlayn kredit rasmiylashtirgan fuqarolardan qarzdorlik undiruvchi to'xtatilishini nazarda tutuvchi Nizom ishlab chiqildi.

Banklar foydalanadigan apparat va dasturiy vositalarda yuzaga keladigan zaifliklar va kiberhujumlar to'g'risida o'z vaqtida xabar topish va tezkor himoya choralari ko'rish maqsadida 8 ta tijorat banking 30 dan oshiq axborot tizimi "Muhim axborot infratuzilmasi obyektlari reestri"ga kiritildi.

Internet tarmog'ida bank kartalari ma'lumotlari tarqalishini va axborot tizimlari barqarorligiga xavf soluvchi omillarni monitoring qiluvchi zamonaviy platforma joriy etildi. Shuningdek, kiberxavfsizlik hodisalari to'g'risida ma'lumotlarni elektron shaklda yig'ish va tahlil qilish bo'yicha maxsus axborot tizimi ishga tushirildi.

### **Malaka oshirish va profilaktika**

Aholida "kibergigiyena"ni shakllantirish maqsadida 2025-yil noyabr oyida o'tkazilgan "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" doirasida keng targ'ibot ishlari amalga oshirildi.

Banklar va to'lov tashkilotlarining kiberxavfsizlik va antifrod bo'linmalari xodimlari uchun har chorakda xalqaro ekspertlar ishtirokida seminar va treninglar tashkil etildi.

Markaziy bank va Ichki ishlar vazirligi hamkorligida hududlarda raqamli huquqbuzarliklarning oldini olish mavzusida o'quv seminarlari o'tkazildi.

Shuningdek, axborot va kiberxavfsizlik darajasini baholash maqsadida Markaziy bankning maxsus Reyting axborot tizimi ishlab chiqildi.

### **Axborot xavfsizligini ta'minlash**

Iqtisodiyotning barcha sohalarida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadal sur'atlarda kechishi bank va to'lov xizmatlariga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirdi. Bunda Markaziy bank axborot tizimlari va to'lov infratuzilmasining uzluksiz, barqaror va xavfsiz ishlashi moliyaviy barqarorlik hamda jamoatchilik ishonchi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

2025-yil davomida axborot xavfsizligini kuchaytirish va raqamli xizmatlardan xavfsiz foydalanishni ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Markaziy bank axborot tizimlari, serverlari va ma'lumotlar bazalarida foydalanuvchilarning kirish huquqlarini boshqarish mexanizmi qayta ko'rib chiqildi va vakolatlar qayta tahlil etildi. Axborot resurslarini boshqarish modullari xavfsizlik tizimlari bilan integratsiya qilindi.

Korporativ tarmoq va internet trafigi zamonaviy:

- tarmoqlararo ekranlar (*Firewall*);
- hujumlarni aniqlash va oldini olish tizimlari (*IDPS*);
- proksi serverlar orqali doimiy monitoring qilindi.

Shuningdek, Markaziy bank axborot tizimlari, tizim osti modullari va resurslariga jami tashqi tizimlar bilan tashkil etilgan 134 ta bog'lanishda axborotni himoyalash choralari ko'rildi. Bu to'lov tizimlari, banklar va boshqa moliya institutlari bilan axborot almashinuvini xavfsiz kanallar orqali amalga oshirishni ta'minladi.

Shuningdek, 457 ta tashkilot Bank-mijoz tizimiga ulanib, axborot xavfsizligi vositalari bilan ta'minlandi. Banklar va mikromoliya tashkilotlarini tizimlarning yangi versiyalariga ulash ishlari davom ettirilmoqda.

Markaziy bankda axborotlarni kriptografik himoya qilish yo'nalishidagi ishlar tizimli ravishda amalga oshirildi. Elektron raqamli imzo (*ERI*) kalitlari va sertifikatlarini yaratish, yangilash va bekor qilish belgilangan tartibda ta'minlandi.

Markaziy bank to'lov tizimlari va ichki axborot tizimlari ERI bilan ta'minlandi, bu banklar, tashkilotlar va Markaziy bank xodimlari raqamli xizmatlardan xavfsiz foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Axborot almashinuvi IPsec, VPN, SSL/TLS texnologiyalari asosida shifrlangan kanallar orqali amalga oshirildi. Barcha domen va subdomenlar amal qiluvchi SSL sertifikatlar bilan ta'minlandi.

2025-yil davomida Markaziy bank axborot tizimlarida kiberinsidentlarga qarshi kompleks monitoring va tahlil ishlari amalga oshirildi. IDPS, WAF, antivirus, SIEM kabi zamonaviy xavfsizlik vositalari 24/7 rejimida muhofazasi nazoratga olindi.

Natijada:

- tarmoq va veb-ilovalar orqali hujumlar;
- zararli fayllar va viruslar;
- ruxsatsiz kirishga urinishlar barvaqt aniqlanib, bartaraf etildi.

Axborot xavfsizligi talablariga rioya etilishi nazorat qilindi, konfidensial va shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish tartiblari qayta ko'rib chiqildi. Elektron ma'lumotlarni saqlash va almashish bo'yicha yagona reglament joriy etildi.

## **Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasini tartibga solish va nazorat qilish**

2025-yilda Markaziy bank tomonidan banklar, nobank kredit tashkilotlari va to'lov tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish hamda ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi talablarga rioya etilishi yuzasidan monitoring va nazorat ishlari davom ettirildi.

Banklar, nobank kredit tashkilotlari va to'lov tashkilotlarida sohaga oid risklar baholanib, bunda asosiy e'tibor yuqori riskli mahsulot, xizmatlar, amalga oshirish kanallari va mijozlar turlarini aniqlash, mavjud tahdid va zaifliklarni tahlil qilish hamda har bir sektor bo'yicha sof risk darajasini belgilashga qaratildi.

Aniqlangan risklarni kamaytirish maqsadida nazorat ostidagi tashkilotlar tomonidan ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqish, hisobot va nazorat nuqtalari hamda mas'ul xodimlarni belgilash orqali risklarni monitoring qilish tizimini takomillashtirishni nazarda tutuvchi tavsiyalar ishlab chiqildi va joriy etildi.

Mazkur tavsiyalar nazorat ostidagi subyektlarga ichki hujjatlarda belgilangan preventiv chora-tadbirlarni hisobga olgan holda yuqori riskli yo'nalishlarni mustaqil baholash imkonini beradi.

Bundan tashqari, 2025-yilda tizimli ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi 5 ta risk bo'yicha kuchaytirilgan monitoring olib borildi:

- xalqaro pul o'tkazmalari bilan bog'liq operatsiyalar;
- yuridik shaxslarning hisobvarag'idagi pul mablag'larini noqonuniy naqdlashtirish bilan bog'liq operatsiyalar;
- yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxsga yoki jismoniy shaxs tomonidan yuridik shaxsga pul mablag'larining o'tkazilishi bilan bog'liq operatsiyalar;
- jismoniy shaxslar o'rtasidagi kartadan kartaga pul o'tkazmalar (*P2P operatsiyalar*);
- ro'yxatdagi shaxslar va ularning operatsiyalari.

### **Nazorat tadbirlari**

Hisobot yilida risk profili bo'yicha tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan 10 ta bankda joyiga chiqqan holda, shuningdek 22 ta bankda, 9 ta to'lov tashkilotida, 8 ta nobank kredit tashkilotida va 2 ta to'lov tizimi operatorida sohaga oid masalalar yuzasidan masofadan nazorat tadbirlari o'tkazildi.

Natijada tegishli xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan 24 ta bank va 8 ta nobank kredit tashkilotiga nisbatan jarima chorasi qo'llanildi, shuningdek 9 ta to'lov tashkiloti hamda 2 ta to'lov tizimi operatori kelgusida kamchiliklar aniqlangan taqdirda qat'iy choralar ko'rilishi to'g'risida ogohlantirildi.

### **Normativ bazani takomillashtirish**

Tizim samaradorligini oshirish, sektorlar kesimida aniqlangan risklarni kamaytirish hamda qonunchilikni FATF tavsiyalariga muvofiqlashtirish maqsadida nazorat ostidagi tashkilotlar uchun ichki nazorat qoidalari takomillashtirildi. Jumladan, asosiy tushunchalar, shubhali operatsiyalar mezonlari, mijozlar risk darajasini baholash tartibi hamda Ro'yxatga kiritilgan shaxslar operatsiyalarini aniqlash va to'xtatish mexanizmlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Markaziy bank vakillari Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi (*EAG*) bilan hamkorlik doirasidagi majburiyatlarning<sup>15</sup> bajarilishini ta'minlab kelmoqda hamda 2025-yilda *EAG*ning 42 va 43-Yalpi majlislarida ishtirok etdi.

Xodimlar malakasini oshirish doirasida ikki nafar xodim *ICA* ning<sup>16</sup> jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha sertifikatiga ega bo'ldi, yana ikki nafar xodim *FATF* va *EAG* ekspert-baholovchilarini tayyorlash dasturini tamomladi.

Banklarning xorijiy moliya institutlari bilan korrespondentlik munosabatlarining tugatilishi ehtimoli hamda ularning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi xorijiy davlatlar qonunchiligi talablariga rioya etilishi bilan bog'liq risklarni aniqlash va baholash zaruratini inobatga olgan holda, "Banklar va banklar guruhlarining

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 23-yanvardagi "Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi to'g'risidagi Bitimni amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar haqida"gi 16-sonli Qarori

<sup>16</sup> Xalqaro komplayens assotsiatsiyasi

tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Mazkur o'zgartirishlar banklar tomonidan sanksiyaviy tavakkalchiliklarni risk-boshqaruv tizimi doirasida kompleks va tizimli baholashni ta'minlashga qaratilgan.

Bank xodimlari uchun sanksiyaviy komplayens yo'nalishi bo'yicha tashkil etilgan "Komplayens klub" loyihasi davom ettirilib, uning doirasida bank amaliyotida yuzaga kelayotgan dolzarb sanksiyaviy keyslar muntazam ravishda muhokama qilinmoqda, xalqaro amaliyotdan kelib chiqib banklar o'rtasida tajriba almashinilmoqda.

Shuningdek, Turkiya va BAA markaziy banklari bilan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasi (AML/CFT) va sanksiyaviy komplayens bo'yicha qo'shma seminar o'tkazildi.

### **Komplayens-nazorat**

2025-yilda Markaziy bank markaziy apparatida mustaqil Komplayens-nazorat xizmati tashkil etildi. Shuningdek, hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufdagi korxonalarda belgilangan minimal mezonlar asosida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari shakllantirildi<sup>17</sup>.

Shuningdek, Markaziy bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti asosida bankka yuklangan 52 ta funktsiya bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholashdan o'tkazildi<sup>18</sup>.

### **Monitoring, nazorat va profilaktik tadbirlar**

2023-yil 24-dekabrda tasdiqlangan ichki audit va komplayens-nazorat rejasi asosida Markaziy bank tizimida korrupsiyaga qarshi hujjatlar ijrosi yuzasidan monitoring tadbirlari amalga oshirildi.

Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va boshqarish to'g'risidagi Nizomga muvofiq 2025-yil uchun barcha xodimlardan yillik deklaratsiyalar olindi.

Jumladan, 2 152 nafar boshqaruv xodimidan deklaratsiya qabul qilinib:

– "mavjud" holatlar bo'yicha bartaraf etish choralari;

– "ehtimoliy" holatlar bo'yicha boshqaruv mexanizmlari belgilandi.

Bundan tashqari, Xarid jarayonlarida korrupsiyaviy risklarni oldini olish maqsadida jami 1 408 ta (*markaziy apparat — 312 ta, hududiy bosh boshqarmalar — 189 ta, tasarrufdagi korxonlarda — 907 ta*) kontragent bo'yicha o'rganishlar o'tkazilib, tegishli xulosalar berildi.

Ishga qabul qilish jarayonida jami 589 nafar nomzod (*markaziy apparat — 170 nafar, hududiy bosh boshqarmalar — 57 nafar, tasarrufdagi korxonlarda — 362 nafar*) tekshirildi. O'rganishda manfaatlar to'qnashuvi holatlari, avvalgi ish faoliyati va korrupsiyaviy risklar alohida baholandi.

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21-apreldagi "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-147-sonli Qarori

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-sonli Qarori

### Targ'ibot va kommunikatsiya tadbirlari

2025-yilda Markaziy bank tizimi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi mavzularda jami 206 ta davra suhbat (*Markaziy apparatda – 31 ta, hududiy bosh boshqarmalarda – 119 ta, tasarrufdagi korxonalarda – 56 ta*), ma'ruza va seminarlar tashkil etildi.

Shuningdek, xodimlarini Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasining bazaviy va maxsus kurslarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, jami 2 125 nafar xodim "Davlat xizmatida halollikni ta'minlash", "Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi kurashish" va "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish" bo'yicha maxsus kurslarida o'qitildi<sup>19</sup>.

*2025-yil yakuni bo'yicha davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi reyting baholash tizimida Markaziy bank 95 ball bilan yuqori baholangan.*

### Ichki audit

2025-yilda Markaziy bankning ichki audit va xatarlarni boshqarish tizimini ilg'or xalqaro amaliyot va standartlarga asosan takomillashtirish bo'yicha ishlar davom ettirildi.

2025-yildan boshlab Ichki auditning xalqaro standartlari (*GIAS*) talablariga muvofiq uch yillik audit sikli joriy etildi. Ushbu yondashuv Markaziy bank faoliyatiga doir barcha muhim xatarlarni to'liq qamrab olish va ularni boshqarish samaradorligini baholashni nazarda tutadi.

Mazkur audit rejasiga muvofiq, 2025-yildan boshlab ichki audit tadbirlari xatarlar tahliliga asoslangan uslubiy yondashuv asosida amalga oshirilib, Markaziy bank faoliyatiga doir xatarlarning ta'sirini kamaytirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar samaradorligi, ularning yetarliligi hamda ijrosi holati baholanib, ularni boshqarishni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berib boriladi.

Jumladan, tasdiqlangan ichki audit rejasiga muvofiq 2025-yil davomida belgilangan 15 ta audit obyektlarida o'tkazilgan ichki audit tadbirlari jarayonida jami 35 ta xatarlar va ularni boshqarish bo'yicha 115 ta nazorat mexanizmlari tahlil qilindi. Shundan 19 ta xatarlar bo'yicha nazorat mexanizmlari amalda qo'llanilishi yetarli va samarali deb baholangan bo'lsa, 16 ta xatarlar bo'yicha ularni boshqarishni takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

Hisobot davrida Markaziy bankda xatarlarni boshqarish tizimini joriy qilish bo'yicha ishlarni samarali va tizimli tashkil etish maqsadida alohida Xatarlarni boshqarish tizimini rivojlantirish boshqarmasi tashkil etildi.

Shuningdek, Markaziy bank boshqaruvi tomonidan belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, Markaziy bank hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufdagi tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq xatarlarni aniqlash va baholash ishlari yakuniga yetkazildi.

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21-iyundagi "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-228-sonli Qarori

Jami 177 ta xatarlarni o'z ichiga oluvchi Markaziy bankning umumlashgan Xatarlar reyestri shakllantirildi, xatarlarni oldini olish va ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi hamda ularning ijrosi ustidan monitoring yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, Xatarlarni boshqarish bo'yicha xalqaro ishchi guruh (*IORWG*)ga a'zolik doirasida Markaziy bankning xatarlarni boshqarish xizmati xodimlari ilg'or amaliyotlar bilan tanishdi.

Hisobot yilining oktyabr oyida Xalqaro valyuta jamg'armasining ichki audit va xatarlarni boshqarish masalalari bo'yicha navbatdagi texnik ko'mak missiyasi jalb qilindi. Bunda Markaziy bankdagi ichki audit va risk-menejment amaliyotlari tahlil qilinib, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi.

Ushbu tavsiyalar asosida Markaziy bankda 2026–2028-yillarda xatarga asoslangan ichki audit va xatarlarni boshqarish amaliyotlarini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalari tasdiqlandi.

